ISSN 2181-9335



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY



2022, №4

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

RUSTAMBAYEV M.X.
Xalqparvar davlat: asosiy belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari **3**
УЗАКОВ Ш.Ш.
К вопросу о потерпевшем от преступления и его защите прокурором **8**
RUZIYEV R.D.
Majburiyatlarni bajarish prinsipi (qoidasi)ning ilmiy-nazariy masalalari **14**
NURMATOV M.M., BEKSARIYEV X.Q.
Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida afv etish institutini takomillashtirishning ayrim masalalari **19**
KUCHKAROV X.Z.
Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish tartibi..... **24**
HOSHIMXONOV A.M.
Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari..... **28**
ISOQOV L.
Markaziy Osiyoda migratsiya huquqi tarixi **34**
ЗОКИРОВ Б.П.
Научные подходы к изучению процесса возвращения доходов (активов), полученных преступным путем **41**
ATANIYAZOV J.K.
Jinoyat ishi yuritishni rad etish yoki tugatishda mavjud protsessual muammolar..... **46**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

MADJITOV F.F., MAMARASULOV D.X.
Shaxsiy tarkibning ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari (yaqin xorij mamlakatlari tajribasi asosida)..... **52**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR
III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

MAXSADOV M.I.
Harbiy qonunchilikni tizimlashtirishni shakllanish bosqichlari..... **58**
MURODOV B.M.
Bo‘lajak ofitserning harbiy-kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar tahlili va ularni takomillashtirish..... **65**

ЖУМАЕВ А.Ж., ДОЛГОВА И.Е.
Характеристика различных подходов к индикативной оценке состояния общественной безопасности 71
ASHUROV R.N., GOLUBENKO A.Y.
Qo'l ostidagi harbiy jamoani boshqarishda ofitser rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining tutgan o'rni va ahamiyati 78

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

SARABEKOV X.D.
Ichki ishlar organlari o'zlariga biriktirilgan sektorlar hududlarida aholini tadbirkorlikka jalb etish va hududga investitsiyalarni kiritishni takomillashtirish 82
MIRZAMAXMUDOV A.A.
Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimidagi ayrim muammolar to'g'risida 90
XURRAMOV M.K.
O'zbekiston – Qozog'iston Respublikalarining mintaqadagi suv-energetika muammolarini hal etish borasidagi yondashuvlari 97
RADJAPOV A.X.
Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash usullari va ularni takomillashtirishning ayrim masalalari 102

V. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
V. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

ISLOMOV A.B., MURADULLAYEV A.A.
O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida autsorsing xizmatlarini tashkil etish afzalliklari... 109

VI. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VI. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

KULDASHEV I.X., ABDULLAYEV L.O.
Sanoat xavfsizligi sohasida xavf, xavf-xatar, va xavfsizlik tushunchalarining tahlili va dolzarbligi 115
ГЛУХОВ Е.В., ХАТАМОВ Б.Б., МАДАЛИЕВ С.О.
Методы управления радиочастотным спектром в когнитивных радиосетях 120

VII. XORIJIY TAJRIBA
VII. FOREIGN EXPERIENCE

SAIDOV A.A.
Mahkumlar bilan muomala qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining amaliyoti va xalqaro hamkorlik 125
ТУРСУНОВ О.Б.
Основные принципы международного водного права 127
КОВАЛЬЧУК А.В., ДУХОВНИК Ю.Е.
Неоказание капитаном судна помощи терпящим бедствие (ст. 160 Уголовного кодекса Республики Беларусь): вопросы регламентации уголовной ответственности и установления наказания 130
РАШИДОВА К.И.
Концептуальные подходы определения современных форм рабства в международном праве 139
MAMARASULOV D.X., KARIMOV J.J.
Xodimlar huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba 146

Ashurov Ravshan Nosirovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Umumiy taktika va operativ san'at kafedrasi dotsenti, dotsent;
Golubenko Aleksey Yuryevich,
O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali
Kasbiy jangovar tayyorgarlik kafedrasi dotsenti, dotsent

QO'L OSTIDAGI HARBIY JAMOANI BOSHQARISHDA OFITSER-RAHBARNING KASBIY VA SHAXSIY FAZILATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Harbiy xizmatchilar faoliyatida shaxsiy xususiyatlarni o'rganish muammosi yangi emas. Biroq, bu har doim zamonaviy harbiy boshqaruvning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ayniqsa, harbiy boshqaruv faoliyatida ofitser-rahbarning (rahbar)ning o'rni.

"Shunga aminmanki, - degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - odam birgina shirin so'z tufayli, majoziy qilib aytganda, tog'ni talqon qilishi mumkin. Afsuski, keyingi vaqtlarda bizning ba'zi rahbarlarimiz odamlarga bunday munosabatda bo'lishni deyarli unutib qo'yganlar. Chunki odamga ishonch uni ulug'laydi, o'z kuchiga ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Ishonchsizlik, xolisona munosabatda bo'lmaslik odamlarning hafsalasini pir qiladi va shu tufayli biz qanchadan-qancha iste'dodli rahbar-u tashabbuskor yoshlarimizni boy bermoqdamiz" [1].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 30 iyun kuni Yoshlar kuniga bag'ishlangan bayram tabrigida, shuningdek, bir qator boshqa nutqlarida "kelajakda rahbar xodimlarni vatanga shijoati va sadoqati kuchli bo'lgan yoshlardan tayyorlashni" qayta-qayta ta'kidlamoqda [2]. Bu juda to'g'ri va hayotiy yondashuv hisoblanadi.

Boshqaruv tizimining mohiyatiga chuqurroq kirib borsak uning nihoyatda turli-tuman sinoatlarga boyligini ko'ramiz. Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo'lishidan qat'i nazar, har bir Ofitser-rahbarning o'z ishiga talab darajasida yondashishi uchun nimalarni bilishi, qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, degan savol esa hamisha oldimizda ko'ndalang turadi.

Ofitser-rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari muammosining ahamiyati o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga, shuningdek, u yoki bu harbiy jamoa tomonidan hal qilinadigan o'zgaruvchan vazifalarga bog'liqligi bilan belgilanadi. Harbiy boshqaruv amaliyoti rahbar kadrlarga bo'lgan talablarni doimiy ravishda oshirib boradi. Ofitser-rahbarning boshqaruv faoliyatida kasbiy va shaxsiy fazilatlarni namoyon etish uchun harbiy jamoa muhim rol o'ynaydi.

Rus olimi V.F.Perevalovning ta'kidlashicha "harbiy jamoa - bu harbiy xizmatchining shaxsiyatini armiya va jamiyat bilan bevosita bog'laydigan, uni ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimiga kiritadigan asosiy hujayra. U jangovar tajriba va mahorat, an'analar va harbiy munosabatlar normalarining ishonchli saqlovchisidir" [3]. Tadqiqotchining fikridan kelib chiqib, quyidagi fikrni keltirishni asosli deb hisoblaymiz, ya'ni harbiy jamoa, harbiy xizmatchi shaxsini shakllantirish va tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo'lib qolishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmat vazifalarini bajarish jarayonida har bir harbiy xizmatchi doimiy ravishda harbiy jamoaning boshqa a'zolari bilan munosabatlarga kirishadi, shu bilan birga turli xil jamoa ichidagi o'zaro munosabatlar va muloqotlarning katta tizimiga kiradi. Belgilangan funksional vazifalarga ega bo'lgan harbiy xizmatchining pozitsiyasi uning harbiy jamoaning ijtimoiy tuzilmasidagi mavqeini belgilaydi. Harbiy xizmatchi egallagan ijtimoiy mavqeiga mos keladigan kutilgan harakat yo'nalishi, uning ijtimoiy rolini, ya'ni ma'lum bir me'yoriy tasdiqlangan xatti-harakatlar namunasini tavsiflaydi. Aynan shu rolda tegishli yoki bo'ysunuvchi funksiyalarni bajaradigan harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy fazilatlari aks etadi.

Harbiy jamoada shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan ofitserlar va harbiy xizmatchilarning, serjantlar va oddiy askarlar lavozimlarida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan funksional guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ofitserlarning alohida funksional-rolli guruhiga bo'linishi bizga ushbu guruhning harbiy jamoadagi ijtimoiy rolini o'rganish imkoniyatini beradi. Turli toifadagi harbiy xizmatchilar tomonidan ofitser-rahbarning o'z rolini bajarishdagi muvaffaqiyat darajasini baholash, uning jamoaviy fikrda ifodalangan, tan olingan ijtimoiy mavqeini tavsiflaydi. Ta'riflangan tahlil yo'nalishi ofitserni alohida emas, balki boshqa harbiy xizmatchilar va

harbiy xizmatchilar guruhlari bilan murakkab aloqalar tizimida ifodalaydi.

Harbiy jamoa tomonidan ijobiy baholangan ofitser-rahbarning shaxsiy fazilatlari ushbu jamoani muvaffaqiyatli faoliyatini kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ofitser-rahbarning muvaffaqiyati qanday fazilatlar asosida belgilanadi? Bo'ysunuvchi jamoani samarali boshqarishga hissa qo'shadigan ofitser shaxsining fazilatlari nimalarda aks etadi? degan savollar hozirgi vaqtgacha dolzarbligini yo'qotmagan.

Jamoani boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida ofitser-rahbarning shaxsiy fazilatlarini o'rganish muammosi hamda ko'plab tadqiqotlar predmetini tashkil etadi.

O'zbek olimi Narzulla Boymurodov rahbar-yetakchining qiyofasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini o'tkazgan, unda haqiqiy rahbar-yetakchida bo'lishi kerak bo'lgan asosiy fazilatlar ro'yxati keltirilgan. Bularga quyidagilar kiradi: ijodkorlik, malakalilik, do'stona munosabat, o'ziga ishonch, rivojlanish istagi, muvozanat, mas'uliyat, maqsadlilik, jamoani yig'ish qobiliyati, mustaqil bo'lish, ijtimoiy faoliyatning qonuniy taqiqlanmagan hamma sohasi bilan shug'ullana olish kabilar kiradi. Shu bilan birga, u o'zi boshqarayotgan jamoa orasida obru-e'tiborga ega bo'lishi, o'zini kamtar tutishi zarur. U ona tilini chuqur egallashdan tashqari, bir yoki ikkita xorijiy tilni yaxshi bilsa va faoliyatida ulardan erkin foydalana olsa, boshqaruv faoliyati yanada samarali bo'ladi [4] deb ta'kidlab o'tilgan.

Ingliz olimlari M.Vudkok, D.Frensislar ta'kidlashlaricha o'z-o'zini boshqarish, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, odamlarga ta'sir o'tkazish qobiliyatlari va boshqa shaxsiy fazilatlar boshqaruv samaradorligini ta'minlashning kaliti hisoblanadi [5]. Rus tadqiqotchisi V.P.Pugachev esa o'ziga bo'lgan ishonch, ustunlik, aql-zakovat, yetakchining professional muhim fazilatlari sifati deb hisoblaydi [6]. Ofitser-rahbarning shaxsiy fazilatlarini tahlil qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlarni sarhisob qilish, maxsus kuchlarning zamonaviy ofitserlar tarkibiga xos bo'lgan fazilatlar ofitser-rahbarning ideal modeliga mos keladi degan xulosaga tadqiqotchi A.A.Oseyev keladi, bu esa "harbiyning ideal modelini", jumladan: jasorat, yetakchilik, yuqori darajadagi aql-zakovat, hissiy barqarorlik, kuchli irodalilik kabi fazilatlari, yuksak axloqiy me'yorlarini ishlab chiqishga imkon berdi.

Zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda, inson psixologiyasini yangicha qarashlari, unga ta'sir qilish uslublari kundan kunga o'zgarishi shuningdek, zamonaviy o'zbek armiyasi ofitserlari oldida turgan xizmat faoliyatning turli sohalarida murakkab vazifalari, uning funksional roliga qarab turli xil professional darajadagi bilimlarga ega bo'lishlari bilan tavsiflanadi.

Ofitserning hayotiy faoliyatida haqiqiy ofitserga xos bo'lgan bir qator quyidagi fazilatlar orqali ifodalash mumkin, ya'ni: tashkilotchi, tarbiyachi, pedagog, jangovor harakatlar rahbari, xo'jalik faoliyat rahbari va boshqalar. Ofitser-rahbar tomonidan bajariladigan funksiyalarning har biri uning fazilatlari hamda xatti-harakatlarining mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ofitser-rahbarning har bir aniq holatda o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishi, atrofidagilarga o'ziga xos tarzda ta'sir qila olishi, shu bilan birga ta'sir natijalari qanchalik yuqori bo'lsa, ijobiy fazilatlari ham ko'p bo'ladi, shunda uning harbiy jamoa oldidagi obro'si ham yuqori bo'ladi, bularning barchasi esa yuqoridagi keltirilgan fazilatlarning ofitser-rahbar uchun zarurligini yana bir bor tasdiqlab beradi. [8].

Ofitser-rahbarning birinchi navbatda tashkilotchi vazifasini bajaradi va harbiy jamoaning o'quv-jangovar vazifalarini bajarish uchun doimiy tayyorligini ta'minlashga majburdir. Ushbu funksiyani sifatli amalga oshirish uchun u birinchi navbatda xizmatda, bo'sh vaqtlarida, sinfda va to'g'ridan-to'g'ri belgilangan vazifalarni bajarishda bo'ysunuvchilarning faoliyatini tashkil etish qobiliyatini o'z ichiga olgan yuqori tashkiliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Yuqoridagi fazilatlarning mavjudligi ofitser-rahbarga bo'ysunuvchi harbiy jamoaning faoliyatini belgilangan vazifalarga muvofiq eng malakali tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalash ularning malakasini oshirish, shakllantirish va rivojlantirish, ularga kasbiy fazilatlarni singdirish va professional maqomi hamda harbiy ishlar talablariga muvofiq takomillashtirishga intilish bo'yicha mansabdor shaxslarning maqsadli faoliyatida ifodalanadi. Harbiy xizmatchilarni tarbiyalash kasbiy faoliyatning barcha turlarida amalga oshiriladi ya'ni: mashg'ulotlarda, qorovullik xizmatini o'tashda, kundalik faoliyatida, xo'jalik ishlarida, o'quv mashqlarini olib borilganda va jangovar topshiriqlarni bajarish paytida. Kasbiy faoliyat shart-sharoitlaridan, kasbiy ta'lim usullari va uslublaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchi harbiy jamoa tomonidan bevosita yoki bilvosita

tarbiyalanadi.

Ofitser-rahbarning o‘z vazifalarini bajarish jarayonida pedagog hisoblanadi, bundan tashqari bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibini o‘qitishda o‘quv jarayonining rahbari sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, harbiy bo‘linmalarda pedagogik jarayoni samaradorligini oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan harbiy mutaxassislarni tayyorlashning muhim yo‘llaridan biri ofitserning faoliyati, uning pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, pedagogik takti juda muhim rol o‘ynaydi. Ofitser-rahbarning pedagogik muloqot madaniyati bevosita uning kasbiy va axloqiy madaniyati, ya’ni uning axloqiy ongining rivojlanish darajasini belgilaydigan axloqiy talablar, tamoyillar, me’yorlar tizimini o‘zlashtirishi bilan bevosita bog‘liqdir. Harbiy xizmatchilarni axloqiy tarbiyalash vazifalarini hal etishda ofitser-rahbar tomonidan kasbiy-pedagogik etika talablari va me’yorlariga rioya qilinishining ahamiyati ayniqsa kattadir [9].

Harbiy jamoalar tomonidan o‘z maqsadlari bo‘yicha vazifalarni bajarish sharoitida ofitser jangovar harakatlar rahbari vazifasini bajaradi. Jangovar vaziyatda ofitser-rahbarning ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. U jang olib borish uchun qaror qabul qiladi, bo‘ysunuvchilar uchun vazifalarni belgilaydi, ularning harakatlarini muvofiqlashtiradi va o‘zaro hamkorlikni tashkil qiladi. Jangda ofitser-rahbardan shaxsiy jasorat, yuksak ma’naviy, siyosiy va psixologik holatni saqlab turish qobiliyati talab etiladi. Buning uchun ofitser-rahbar zarur axloqiy va jangovar fazilatlarga ega bo‘lishi kerak, xususan: jasurlik, mardlik, qahramonlik, bahodirlik va boshqalar. Amir Temur o‘z vazir va qo‘mondonlaridan quyidagi xislatlarga ega bo‘lishni talab etgan: birinchisi, asllik, toza nasllik; ikkinchisi, aql farosatlilik; uchinchisi, sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik; to‘rtinchisi, sabr, chidamlilik va tinchliksevarlik. Bunday xislatlarga ega bo‘lish, albatta, davlat boshqaruvida, turli murakkab holatlarni bartaraf etishda qo‘l keladi [10].

Ofitserning kasbiy faoliyati xo‘jalik faoliyati rahbarining funksiyasini bajarish bilan ham bog‘liq. Ofitser-rahbarning qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarning ahvoli va saqlanishi, texnik, moddiy, tibbiy, moliyaviy, ijtimoiy-huquqiy va maishiy ta’minoti uchun javob beradi [11]. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish, qo‘l ostidagilarning muammolarini o‘rganish qobiliyati harbiy jamoa a’zolari tomonidan yuqori baholanadi.

Yuqoridagi keltirilgan olimlarni fikrlari va ilmiy qarashlarini inobatga olgan holda, quyidagilarni ta’kidlashimiz o‘rinli hisoblanadi, ya’ni bugungi kundagi talablardan kelib chiqib, bo‘linmalarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun ofitser-rahbar yuqori professional va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak degan xulosaga kelamiz. Buning misolida esa quyidagilarni sanab o‘tish maqsadga muvofiq: ya’ni ofitser-rahbarda yuqori darajadagi tafakkur, ijodkorlik, o‘z-o‘zini rivojlanish, mustaqil bo‘lish, aql-zakovat, hissiy barqarorlik, kuchli iroda, muammolarini o‘rganish, shuningdek, bo‘ysunuvchilarning faoliyatini tashkil etish qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan yuqori tashkiliy ko‘nikmalarga va kasbiy-pedagogik etika talablari mos fazilatlar shakllangan bo‘lishi kerak. Ofitser-rahbar uchun ega bo‘lishi kerak bo‘lgan barcha fazilatlar xizmat faoliyatning turli sohalarida nafaqat bo‘ysunuvchi harbiy jamoani boshqarishda balki o‘ziga tegishli bo‘lgan xizmat majburiyatlarini qo‘llashda ham bevosita foydalanishi kerakligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Harbiy jamoa hayotining u yoki bu sohasini boshqarish jarayonida ofitser-rahbarning shaxsiy fazilatlari alohida emas, balki jamlangan holda, bir butun sifatida namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. - Т.: «Ўзбекистон», 1999, 100-бет.

2. Ўзбекистон овози газетаси. № 2 (32-721) 30.06.2022 й.

3. Перевалов В.Ф. Воинский коллектив. Динамика отношений. - М. Военное издательство, 1991. - С. 11-12.

4. Боймуродов Н. «Рахбар психологияси». «Янги аср авлоди», 2007 йил. 38 бет.

5. Вудкок М., Френсис Д. Раскрепощенный менеджер: Для руководителя-практика: [Пер. с англ.] / М. Вудкок, Д. Френсис; [Вступ. Ст. Л.И. Евенко] - 2-е изд., пераб. М.: Дело, 1994.

6. Пугачев В.П. Руководство персоналом: Учебник. М.: Аспект Пресс. 2006.

7. Осеев А.А. Личные качества руководителя как фактор повышения эффективности

управления организацией в современной России. Социологический анализ. (Кадровый аспект): автореф. дис. Канд. соц. наук.: М. 2018.

8. Осипенко Э.Б., Сальников А.В., Барановский М.В. Авторитет и доверие в структуре военного управления и военной мысли // Социология. 2020. № 6.

9. Ивашкин В.И. Роль Офицер-раҳбарнинга (руководителя) в педагогической профилактике конфликтов в воинском коллективе // Историческая и социально - образовательная мысль. Военный университет МО РФ. 2016. № 2.144-147 С

10. Темур тузуклари. – Тошкент, 1996, 94-б.

11. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг Умумҳарбий Низомлари: Т.: "Шарқ", 2004 йил. 28 бет

Ashurov R.N., Golubenko A.Y. Qo'l ostidagi harbiy jamoani boshqarishda ofitser rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini tutgan o'rni va ahamiyati

Ushbu maqolada ofitser-rahbarlarning asosiy kasbiy va shaxsiy fazilatlari harbiy jamoalarni boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida ko'rib chiqilgan. Harbiy jamoalardagi boshqaruvchi o'zaro munosabatlarga kasbiy va shaxsiy fazilatlarning ta'sirining xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ofitser-rahbarning bir qator aniqlovchi funksiyalari va ularni boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fazilatlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: harbiy jamoa, kasbiy va shaxsiy fazilatlar, funksional faoliyat, ofitser, harbiy xizmatchi.

Ашуров Р.Н., Голубенко А.Ю. Роль и значение профессиональных и личностных качеств офицера-лидера в управлении находящимся под его командованием воинским коллективом

В представленной статье рассмотрены основные профессионально-личностные качества офицеров-руководителей, как основного фактора повышения эффективности управления воинскими коллективами. Рассматриваемые профессиональные и личностные качества Офицер-раҳбарнингов подразделений дифференцированы по различным направлениям функциональной деятельности офицера в системе управления военной организации. В статье также рассмотрены ряд определяющих функций офицера-руководителя и качества необходимые для их успешной реализации в управленческой деятельности.

Ключевые слова: воинский коллектив, профессионально-личностные качества, функциональная деятельность, офицер, военнослужащий.

Ashurov R.N., Golubenko A.Y. The role and importance of the professional and personal qualities of the officer-leader in the management of the military team under his command

This article examines the main professional and personal qualities of officer-leaders as a key factor in increasing the effectiveness of military team management. The characteristics of the influence of professional and personal qualities on managerial interactions in military teams are analyzed. Also, a number of defining functions of the commander and the qualities necessary for their successful implementation in management activities are discussed.

Key words: military team, professional and personal qualities, functional activity, officer, military serviceman.

Sarabekov Xasan Dovronovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrasi dotsenti

ICHKI ISHLAR ORGANLARI O'ZLARIGA BIRIKTIRILGAN SEKTORLAR HUDUDLARIDA AHOLINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH VA HUDUDGA INVESTITSIYALARNI KIRITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Respublikamizda bugungi kunda aholini ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilish yo'lida olib borilayotgan ishlar xalqimizni hayotdan rozi qilish yo'lida muhim kasb etmoqda. Ichki ishlar organlari o'zlariga biriktirilgan sektorlar hududlarida aholini ehtiyojmand qatlamini yashash sharoitini yaxshilash borasida tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish hayotning taqozosi ekanligi ko'rinib turibdi.

Sektorlar hududlarida istiqomat qiluvchi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini olib borish imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolarga har tomonlama yordam ko'rsatib, iloji boricha ularga banklardan kreditlar olib berish yo'li bilan shaxsiy korxonalarini ochishga imkoniyatlar yaratishimiz kerak.

2021 yillarda mamlakatimizda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan **«Har bir oila — tadbirkor», «Yoshlar kelajagimiz»** va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami **13 trln so'mdan ziyod** imtiyozli kreditlar ajratilib, **600 mingdan ziyod** oilalarni qamrab olishga erishildi.

Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

21 aprel 2021 yilda Prezidentimizning "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-5087 sonli qaroriga asosan aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish asosiy maqsad etib belgilandi [1].

Aholini , ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari amaliyotga joriy etildi:

-tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit tizimini tashkil etish va yagona davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilishini va muvofiqlashtirib borilishini yo'lga qo'yish;

-tadbirkorlik ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish;

-aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqarish;

-aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqish va manfaatdorligini oshirish;

-aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jalb qilish;

-tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va barcha bo'g'indagi hokimliklar hududlarda aholining tadbirkorlikka qiziqishini va manfaatdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashi lozim.

2022 yil 1 iyuldan boshlab **«Har bir oila — tadbirkor», «Yoshlar kelajagimiz»** va boshqa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida davlat maqsadli resurslari hisobidan kreditlar «Mikrokreditbank» ATB tomonidan tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha tegishli o'quv kurslarini tamomlagan shaxslarga yagona mikrokreditlash dasturi asosida ajratiladi.

«Mikrokreditbank» ATB zimmasiga 2021 yil davomida respublikaning barcha tuman va shaharlarida, shu jumladan raqamli texnologiya-

larni keng joriy etish orqali mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini yaratuvchi bank infratuzilmalari tarmoqlarini tashkil etishda:

- o‘zi operatorlik vazifasini bajaruvchi Mikromoliyalash milliy tizimini yaratish va unda boshqa kredit tashkilotlarining manfaatdorlik asosida ishtirok etishini ta’minlovchi tizim joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

- bankning quyi bo‘g‘in xodimlarini to‘liq qayta tayyorlash va mijozga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish tizimini joriy qilsin. Bunda sohada muvaffaqiyatga erishgan va xalqaro tan olingan xorijiy moliya institutlarida xodimlarning malaka oshirishi va tajriba almashishini tashkillashtirish;

- maxsus sertifikat olgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot almashish maqsadida mikrokreditlash dasturlarida ishtirok etayotgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro elektron axborot almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatilgan.

Moliya vazirligi «Mikrokreditbank» ATB boshqaruvi tarkibiga ijtimoiy yo‘naltirilgan mikrokreditlash sohasida yetarli tajribaga ega bo‘lgan xorijiy malakali mutaxassislarning jalb qilinishini ta’minlashga mas’ul.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va Moliya vazirligi 2021 yilning 1 yanvariga qadar «Mikrokreditbank» ATBning aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo‘yicha yangi biznes modelini ishlab chiqish va unda quyidagilarga e’tibor qaratish belgilangan:

- mikrokredit olib keyinchalik barqaror tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan va ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirgan yoki kambag‘allik ro‘yxatidan chiqqan mijozlar soni va ulushi oshib borishini bank faoliyati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan (KPI) biri sifatida belgilash;

- mikrokreditlash dasturlari doirasida kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish hamda mikrokreditlash maqsadlarida aholini moliyaviy savodxonlik o‘qitishni tashkil etish;

- mikrokredit olgan tadbirkorlar faoliyatini doimiy kuzatib borish hamda ularga maslahat va ko‘mak berish institutini shakllantirish;

- bank mijozlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun xaridorlar topish va bozorlarni kengaytirishda ko‘maklashish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sektor rahbarlariga aholini tadbirkorlikka va hududga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- sektor hududida aholini tadbirkorlikka va hududga investitsiyalarni hal etish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini ishlab chiqish va uning ijrosini tashkil etish;

- sektor darajasida birinchi navbatda “mahallabay”, “oilabay”, “fuqarobay” va “sektorbay” asosida hududda fuqarolar tomonidan ko‘tarilgan eng dolzarb muammolarni aniqlash, shuningdek ularning yechimi bo‘yicha aniq choralar ko‘rish;

- sektor hududida aholi hayot darajasiga real ta’sirini hisobga olgan holda tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiya kiritish choralarini tuman, viloyat, respublika miqyosida muammolarni aniqlab yechimini hal etish borasida ularga murojaatlar qilish va yechimi bo‘yicha choralar ko‘rish;

- sektor hududida aholini tadbirkorlikka jalb etish va investitsiya kiritish borasidagi muammolarni yechimini hal etish borasida tuman Xalq deputatlari sessiyasiga masalalarni kiritish choralarini ko‘rish;

– aholini “mahallabay”, “oilabay”, “fuqarobay” uyma-uy yurib o‘rganish davomida ularni tadbirkorlikka jalb qilish yo‘nalishlari aniqlash, hududga investitsiya loyihalarini olib kirishda hududni geologik joylashuvchi va aholining ijtimoiy ahvolini hisobga olgan holda tadbirkorlik istagida va tashabbuskor shaxsni yoki tadbirkorlik subektlari bilan hamkorlikni tashkil etish. Ichki ishlar organlari o‘zlariga biriktirilgan sektor hududlarida fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish:

Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi degan muammoga duch kelayotgan bugungi kunda har qarich yerdan unumli foydalanish davr talabiga aylanib ulgurdi. Serquyosh zaminimizda tomorqadan unumli foydalangan har bir xonadon avvalo ro‘zg‘or uchun zarur qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zlari yetishtirmoqda. Qolaversa, ko‘plab oilalar o‘z tomorqasini qo‘shimcha daromad manbaiga aylantirib, yaxshigina foyda ko‘rishyapti.

Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida serhosil va yuqori daromad beradigan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, moddiy-texnik resurslarni tizimli yetkazib berish orqali ichki iste’mol va eksport uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish hamda qishloq aholisining moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida Hukumat qarori qabul qilingan [2]. Ichki ishlar organ xo-

dimlariga ushbu qaror bilan bir qator vazifalar belgilab berilganligi ahamiyatlidir. Masalan, endilikda har bir dehqon xo'jaligida va tomorqa yer uchastkasida yuqori daromad beradigan eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, moddiy-texnik resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish tashkil etiladi.

Dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarida 2020 yil hosili uchun to'qsonbosti usulida ekiladigan bahorgi va takroriy qishloq xo'jaligi ekinlari mavsum davomida ajratilgan suv limitlari doirasida o'z vaqtida suv bilan to'liq ta'minlanadi. Shuningdek, tuman sektorlari va mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida har bir hududning ixtisoslashuvi, tuproq, iqlim sharoiti, suv ta'minoti inobatga olingan holda **"bir mahalla — bir mahsulot"** tamoyili asosida qishloq xo'jaligi ekinlari joylashtiriladi.

Qarorda tashqi bozor talablari asosida mahallalarning eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish, **"Tomorqa xizmati"** MChJlarga mahallalarni biriktirgan holda ular tomonidan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga shartnoma asosida urug'lar, ko'chatlar va boshqa zarur moddiy resurslarni belgilangan tartibda yetkazib berish, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga amaliy yordam ko'rsatish, **"Tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi"** hamda boshqa ixtisoslashtirilgan kasbga o'qitish muassasalarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kasb-hunarga tayyorlash, agrotexnologiya, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik hamda asalarichilik sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish vazifalari ham belgilab qo'yildi.

Fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko'rsatish sektorlar rahbarlarining *asosiy vazifalaridan* biri hisoblanadi. Hududdagi tomorqa egalari va tomorqa hajmi, yetishtirilishi mumkin bo'lgan mahsulot to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish orqali yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva, parrandachilik va hokazolarni tashkil etish bo'yicha "Yo'l xarita" tuziladi. Joylardagi mas'ullar bilan hamkorlikda aholiga tomorqadan samarali foydalanish usullari to'g'risida tushuntirish ishlari bilan birga amaliy yordam ko'rsatiladi. Bunda faoliyat yuritayotgan mahalla raislarining tomorqa va obodonlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash masalalari bo'yicha o'rinbosar hamda jamoatchilik asosida mahallada faoliyat yurituvchi ishchilar kuchidan foydalaniladi.

Fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

-fuqarolarga tomorqa uchastkalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha har bir sektor hududida doimiy ravishda har bir xonadonga kirib ularning hovlisidagi yerdan qanday foydalanayotganini o'rganish choralarini ko'rish;

-har bir mahallada yashovchi fuqarolarni yig'ib ularga tomorqasidan qanday foydalanish, yerga qanday ekinlar ekib undan foyda olish borasida tegishli qishloq xo'jaligi xodimlarini, agronomlarni tavsiyalarini olish borasida tushuntirish ishlarini tashkil etish, oilalar o'rtasida yerdan unumli foydalanish borasida musobaqalarni tashkil etish va tomorqalardan unumli foydalanish borasida "mahallabay" nazoratini kuchaytirish;

- tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, baliqchilik asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish hamda tomorqani rivojlantirish borasida ko'maklashish choralarini ko'rish;

- tomorqadan maqsadli foydalanishda aholiga kreditlarni banklardan olish borasida ularga yordamlar ko'rsatish choralarini ko'rish.

Ichki ishlar organi 3-sektor xodimlari uyma- uy yurishi natijasida fuqarolarning yashab turgan hovlilaridagi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish borasida tushuntirish ishlarini olib borishlari va tomorqa yerlarga har xil ekinlarni ekish borasida amaliy yordam ko'rsatishlari kerak.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududida meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo'jaligi faoliyati turlarini rivojlantirish:

So'nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

2016 – 2019 yillar davomida respublikamizda yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi – **171,2 foizga,** jumladan meva-sabzavotchilik – **172,6** foizga, chorvachilik mahsulotlari – **170**

foizga, o'rmon va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish – **177,5** foizga oshdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport hajmi 1,4 mln tonnadan oshib, 2016 yilga nisbatan **1,5 barobarga** o'sishga erishildi [3].

Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab qilmoqda.

Ayni vaqtda respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun quyidagi qulay sharoitlar mavjud:

- zaharli moddalar bilan zararlanmagan ekin maydonlari;
- tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan organik mahsulotlarni eksport qilish natijasida aholi daromadini oshirish imkoniyati;
- organik ishlab chiqarish bo'yicha agroklasterlogistika va kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish natijasida aholi bandligini oshirish imkoniyati;
- laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini tahlil qilish imkoniyati;
- genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan holi mintaqalar.

Hududda mavjud fermer, dehqonchilik va tomorqa xo'jaliklari egalari bilan hamkorlikda meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo'jaligi faoliyati turlarini yo'lga qo'yish mumkin. Buning uchun har fermer, dehqon yoki tom orqa egalarini salohiyatlari va ularni muammolarini to'liq o'rganib chiqib hal qilish orqali ijobiy natijaga erishish lozim.

O'zbekistonda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek, bir qismi qishloq xo'jaligi korxonalari hisoblanadi. Bugungi kunda yetishtirilayotgan kartoshka – 75,3%, sabzavot – 64,1%, poliz mahsulotlari – 48,7%, meva – 52,3% va uzumning – 45,3% dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelmoqda va ular kichik hajmdagi yer uchastkalarida yuqori sifatli, ham ichki, ham tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar. Yetishtirilayotgan kartoshkaning – 23,9%, sabzavot – 35,0%, poliz mahsulotlari – 49,6%, meva – 45,6% va uzumning – 53,2% fermer xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelmoqda [4].

Ichki ishlar organi xodimlari faoliyat olib borayotgan 3-sektorda meva sabzavotchilik va uzumchilikning samaradorligi hamda raqobatdoshligini oshirish uchun ham davlat, ham xo'jaliklarning o'zlari tomonidan anchagina investitsion mablag'lar sarfini talab qiluvchi quyidagi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, zaxlab, sho'rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli va tizimli amalga oshirish;
- tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda tumanlarning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olish;
- suv tanqisligi sharoitida sug'orish texnikalari va texnologiyalarni takomillashtirish, jumladan, tog'li va tog'oldi hududlarida suvtejamkor sug'orish usullaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;
- respublikamiz hududlarida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, tashish va qayta ishlash jarayonlarida resurs tejovchi texnologiyalar va ekologik xavfsiz chora-tadbirlarni keng qo'llanilishidan manfaatdorligini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- paxta xom-ashyosi yetishtirilayotgan rentabelligi past yerlarda zamonaviy agro va innovatsion texnologiyalarga asoslangan meva-sabzavot plantatsiyalarni yaratish;
- mahsulot ishlab chiqarishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash va uni iqtisodiy rag'batlantirish;
- keskin iqlim o'zgarishlari ta'siriga chidamli va sho'rxok yerlarda yetishtirish mumkin bo'lgan kartoshka, sabzavot, poliz urug'lari, meva va uzumning ko'chatlar navlarini yaratish;
- iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha jahon tajribalaridan samarali foydalangan holda, keskin sovuq, do'l o'rishi va quyosh nuridan saqlovchi maxsus qoplamalar hamda tomchilatib sug'orishga asoslangan innovatsion himoya va yetishtirish texnologiyalari majmuini joriy qilish;
- eski bog' va tokzorlarni yangilash uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini ishlab chiqish;
- energiya va resurslar tejash texnologiyalariga asoslangan zamonaviy issiqxonalarni tashkil etishni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish;
- zamonaviy omborxonalar va muzlatkichlar tizimini yaratish bo'yicha olib bori-

layotgan ishlarni yanada jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- respublikada meva-sabzavot mahsulotlar asosan kichik maydonlarda yetishtirilayotganini inobatga olgan holda ixcham va kichik gabaritli qishloq xo'jaligi texnikalar ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish meva-sabzavot mahsulotlari raqobatbardoshliligini oshirishi, aholi bandligini ta'minlash va daromadlari oshirish, qayta ishlash sanoatini yanada rivojlantirish, mamlakat valyuta tushumining o'sishiga imkon yaratadi.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududlarida asalarichilikni rivojlantirish:

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida asalarichilik sohasini rivojlantirishga, asal mahsulotlarini yetishtirishga bo'lgan e'tibor va talab yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, ekologik toza asal ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyoj nihoyatda yuqori.

Ichki ishlar organi xodimlari o'zlari faoliyat olib borayotgan 3-sektor hududida yashovchi barcha fuqarolarni asalarichilik bilan shug'ullanishlari uchun targ'ibot ishlarini olib borishlari lozim va mutaxassislarni jalb qilgan holda fuqarolarga asalarichilikdan kelib tushadigan daromadlarni, ularni boqish va ulardan foydalanish tartiblarini tushuntirishlari lozimdir.

O'tgan yillar ichida respublikamizda asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, asalarichilik xo'jaliklari soni 2011 yilga nisbatan 2016 yilga kelib 216,0 foizga ko'payib, asal mahsuloti ishlab chiqarilish 405,3% ga ko'paygan. Respublikamiz rahbariyatining mustaqillik yillarida asalarichilikka bo'lgan e'tibori, xususan asalarichilik to'g'risida har yili davlat dasturlarining qabul qilinishi tarmoqni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu boradagi ishlarning izchil davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil yanvardagi bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Respublikada 2017 yilda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi"da belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan viloyatlarda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2017 yilning 1 avgust holatiga jami 829 ta subyekt, shu jumladan, 468 ta shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari, 321 ta asalarichilik fermer xo'jaliklari tashkil etilgan. Bundan tashqari 30 ta korxona va tashkilotlarda asalarichilik faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Viloyatlarda nektarga boy bo'lgan fatseliya o'simligini ko'paytirish maqsadida jami 18 gektardan ortiq maydonda ekish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, asalari ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida qurg'oqchilikka chidamli, nektarga boy daraxt va buta o'simliklari (jiyda, yapon safurasi, yulg'un, namatak va lipa) ko'chatlarini yo'l yoqalari, istirohat bog'lari va o'rmon fondi yerlariga ekish ishlari boshlangan.

Asalarichilik-naslchilik xo'jaliklari tomonidan asalari zotlarini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish maqsadida jami 3000 dona naslli ona asalari keltirilgan.

Respublikamiz ichki bozorlarida har yili ishlab chiqarilgan asal mahsulotlarining o'rtacha 55-60 foizi sotilmoqda. Qolgan 40-45 foizi (3500-4000 tonna) asalarichilar qo'lida, sotilmasdan, saqlanib qolmoqda. Bu holat asalarichilikni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammoning oldini olish va kelgusida sohani rivojlantirish uchun asalarichilikda 2 ta yo'nalishni izchil rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

I yo'nalish: Respublikamiz ichki bozorlarida ehtiyojdan oshiqcha bo'lgan asal mahsulotlarini xalqaro talablar darajasida qadoqlangan holda xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun Toshkent viloyati asalarichilik uyushmasi bazasida Respublikada xalqaro standartlar talabiga javob beradigan "Asalarichilik mahsulotlari sifatini aniqlash laboratoriyasi va qayta ishlash, qadoqlash kompleksi"ni tashkil etish va asal mahsulotlarini xorijga eksport qilishni yo'lga qo'yish kerak.

Buning uchun, birinchidan, asalarichilik mahsulotlari sifatini aniqlovchi xalqaro standartga javob beruvchi sifat laboratoriyasini va ikkinchidan, asal mahsulotlarini qayta ishlovchi va qadoqlash sexlarini tashkil etish lozim.

II yo'nalish: O'zbekiston iqlim sharoitining qulayligini hamda asalarichilik sohasida shug'ullanib kelayotgan asalarichilarning ko'p yillik tajriba va malakalarini inobatga olib xorijiy davlatlar talabiga ko'ra asalari paketlarini ishlab chiqarishni ko'paytirib, eksport qilishni yo'lga qo'yish lozim.

Buning uchun ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, markazlashgan holda Rossiya, Qozog'iston hamda Yevropa davlatlari bilan (Daniya, Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya va boshqa davlatlar) qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatish uchun asalari paketlarini eksport qilishda o'zaro

manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Buning uchun: 2018 yildan boshlab, iqlim sharoitini hisobga olib 4 ta alohida maxsus "izolyatsiya qilingan" hududlarda (Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida) asalari paketlarini yetishtiruvchi asalarichilik xo'jaliklarini (pitomniklar) tashkil etish lozim.

- Asalari paketlarini yetishtiruvchi asalarichilik xo'jaliklariga o'rmon xo'jaliklariga qarashli o'rmon fondi yerlaridan 20-30 km radiusli, boshqa asalari zotlari bilan aralashib ketmasdan, ularni parvarish qilish uchun alohida hududlar ajratib berish maqsadga muvofiq.

Kelgusida asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

1. Asalarichilikda mahalliy asalari populyatsiyasi genofondini sof holda saqlab qolish, ko'paytirish, tanlash, seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish va asalarichilik subyektlarini zotdor asalari oilalari bilan ta'minlash maqsadida, asalarichilik bilan shug'ullanadigan yirik fermer xo'jaliklari negizida har bir viloyatda 2-3 tadan naslli asalarichilik fermer xo'jaligi tashkil etish va ularni sertifikat bilan ta'minlash.

2. Har yili o'rtacha 35-40 ming dona asalari qutisi talab etilishini inobatga olib, Respublikadagi mavjud asalari jihozlari ishlab chiqaruvchi sexlarni (ob-havoning issiq va sovuq paytlarida ham o'z holatini o'zgartirmaydigan va o'zidan yoqimsiz hid chiqarmaydigan) 4-5 ming kub. metr ekologik toza yog'och (sosna, yel daraxti) materiallari bilan, kerakli miqdorda ta'minlashni va uni chetdan keltirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni konvertatsiya qilishni amalga oshirish.

3. Chorvachilik uchun zarur takroriy ekinlardan perko, raps, javdar kabi servitamin ekinlarni ko'proq ekish: erta bahorda asalarilar uchun gulshira va gulchangi beruvchi o'simliklar hisoblanib, qo'shimcha asal ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Bug'doydan bo'shagan yerlarga tez pishar kungaboqar navlarini ekish ham yoz-kuz oylarida asal to'plash uchun asosiy omil hisoblanadi.

4. Asalari oilasi mahsuldorligini oshirishning imkoniyatlaridan yana biri yilning mavsumiga qarab, asalari oilalarini ko'chirishni reja asosida tashkil qilib, ularning texnologik kartalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

5. Respublikadagi barcha yirik asalarichilik fermer xo'jaliklarida olingan asalning hisob-kitoblarini to'g'ri olib borish va asal mahsulotlarini eksportga chiqarishni tashkil etib, asalarichilarini moddiy tomondan qo'llab quvvatlash.

6. O'rmon xo'jaligida asalarichilikni 30-40 foizga ko'paytirishni yo'lga qo'yish hisobiga, asal ishlab chiqarish hajmini oshirish, respublikadagi paxtachilik, bog'dorchilik, poliz va boshqa ekinlar bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga asalarichilik subyektlarini biriktirish hisobiga ekinlarni asalari bilan changlatish natijasida, ularning hosildorligini oshirishni tashkil etish lozim.

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan sektor hududlarida aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirishni tashkil etish:

Respublikamiz aholisini turmush darajasi va sifatini yaxshilashda kommunal xizmatlar sohasining o'rni juda kattadir. Bu holat kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasi faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berishni talab etadi. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlar xususan, Uy-joy, Shahar-sozlik kodekslari, «Xususiy uy-joy mulkdor-larining shirkatlari to'g'risida»gi, «Iste'mol-chilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risi-da»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Ipoteka to'g'risida»gi, «Elektr energiyasi to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Chiqindilar to'g'risi-da»gi qonunlar shular jumlasidandir. Ushbu qonunlardan unumli foydalangan holda aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi samara-dorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy sohaning yuksalishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish sohasidagi islohotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi - bu murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi [5]. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyati uning ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil topganligidadir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turidan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va

uy-joy fondini ta'mirlash-qurilish tashkilotlari;

- elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;
- issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;
- suv ta'minoti va oqova-quvur xo'jaligi;
- gaz ta'minoti xo'jaligi;
- muhandislik tizimlari va inshootlariga xizmat ko'rsatish korxonalari;

Aholiga bevosita shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan sakkiz guruhga bo'linadi:

- elektr-energiya ta'minoti;
- gaz ta'minoti;
- suv ta'minoti va oqova quvur xo'jaligi;
- issiqlik ta'minoti;
- uy-joy fondini ta'mirlash qurilishi;
- muhandislik xizmati ko'rsatish;
- ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish.

Hozirgi davrda kommunal xizmat ko'rsatish tizimini samarali faoliyatini ta'minlashda birinchi navbatda sohadagi jismoniy va ma'naviy eskirgan asbob uskunalarni tubdan yangilash, zamonaviy texnikalarni, texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun sektor rahbari mazkur sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni kiritishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda issiqlik ta'minoti sohasida bir qator dasturlar qabul qilingan bo'lib, samarali faoliyat olib bormoqda. Biroq, hozirgi davrga kelib issiqlik ta'minoti tizimida qator kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, iste'molchilar tomonidan issiq suv uchun to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik holatlari, issiqlik tizimi issiq suv bilan aholi ehtiyojlarini qondira olmayotganligi, bir qator shaharlarda issiqlik manbalarining samarali faoliyat ko'rsatmayotganligi, issiq suv ta'minoti tizimi ta'mir talab bo'lib qolgan holatlar kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda [6].

Kommunal xizmati, yo'l qurilishi, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmini qo'llash bo'yicha bugungi holat va rivojlanish istiqbollari muhim ahamiyat kasb etmoqda. «O'zkommunxizmat» agentligi ma'lumotiga ko'ra, yiliga 100 million tonna sanoat chiqindilari, 35 million metr kub maishiy-ro'zg'or chiqindilari hosil bo'ladi. Bu chiqindilarni utilizatsiya qiladigan, qayta ishlaydigan tizimli korxonalarning yo'qligi natijasida mamlakatimiz miqyosida 2 milliard tonna chiqindi yig'ilib qolgani ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ham bu borada zarur choralar ko'rishni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari 3-sektor hududlarida aholining uy-joy va kommunal sharoitlarini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirishni tashkil etish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

– Ichki ishlar organlari xodimlari sektordagi mahalla raislari va ularning obodonlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha o'rinbosarlari yordamida ko'p qavatli uylarda kommunal xizmat ko'rsatuvchi shirkatlarni tashkil etish va ularni ishlarini muntazam nazorat qilib borish, hovlili xonadonlar egalaridan obodonlashtirish talablariga rioya etishlarini muntazam nazorat qilib borish lozim;

Sektor hududida hududda chiqindini qayta ishlash va undan sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqarish, qattiq maishiy chiqindilardan organik o'g'itlar ishlab chiqish, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan xodimlarning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari muntazam ravishda tegishli idoralarga taqdimnomalar kiritib borishlari maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, ekologik va sanitariya muhitini yaxshilanadi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi ishlar amalga oshiriladi.

– 3-sektor hududida kommunal xizmat ko'rsatish tizimini samarali faoliyatini ta'minlashda, jismonan va ma'nan eskirgan asbob uskunalarni tubdan yangilash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, sohada zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mazkur sohaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni kiritishga alohida e'tibor berish;

– Ichki ishlar organlari 3-sektorda kommunal xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligi uning tarmoqlari faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan uzviy bog'liq bo'lib, buning uchun "O'zkommunalxizmat" agentligi va uning barcha bo'g'inlari bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga quyish va natijalarni monitoringi va baholab borish;

– 3 –sektor hududida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi kommunal xizmat sohasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uni yechimi masalasi fikrimizcha, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tarmog'ida texnik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy masalalarda yangicha mexanizmni joriy etish lozim;

– 3-sektor hududida ko'p qavatli uylardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan kommunal xizmatlar ko'rsatishning arzon va muqobil turlarini rivojlantirish lozimdir.

Yuqorida e'tirof etilgan holatlar bir tomondan kommunal tizimi samaradorligini oshirishsa, ikkinchi tomondan aholi turmush sifati va darajasini yuksaltiradi

Bir so‘z bilan aytganda ichki ishlar organlari tizimlarida o‘zlariga biriktirilgan sektor hududlarida aholini bandligini ta’minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish,har tomonlama yashash sharoitini yaxshilashga ko‘maklashish, yoshlarni, ayollarni va ishsiz fuqarolarni bandligi ta’minlash borasida olib borayotgan ishlarida sadoqat bilan xalqiga xizmat qilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. 21 апрель 2021 йилда “Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш, ишбилармонлик муҳитини янада яхшилаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги ПҚ-5087 сонли қарори lex uz.>/5382179/)

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 январдаги “Деҳқон хўжаликлари ва аҳоли томарқалари ер участкаларидан янада самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 53-сон қарори // https://lex.uz/docs/4720426

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 майдаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичлари халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5995-сон фармони // https://lex.uz/docs/4815923

4. Ғ.Т.Юлдашев Ўзбекистон мева-сабзавотчилик тармоғининг ривожланиш тенденциялари // 339-Текст%20статьи-650-1-10-20191225.pdf

5. Бобоқулов С. Коммунал хизмат кўрсатиш тизими самарадорлигини ошириш усуллари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил

6. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил

Sarabekov X.D. Ichki ishlar organlari o‘zlariga biriktirilgan sektorlar hududlarida aholini tadbirkorlikka jalb etish va hududga investitsiyalarni kiritishni takomillashtirish

Maqolada sektorlar hududlarida istiqomat qiluvchi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini olib borish imkoniyatlar yaratish, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, hududga investitsiyalarni kiritishni takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sektorlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, mahallabay, oilabay, fuqarobay, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, sektorbay, kambag‘allikdan chiqarish.

Сарабеков Х.Д. Совершенствование привлечения населения в предпринимательскую деятельност и внесение инвестиций на территорию секторов закрепленных за органами внутренних дел

Статье рассмотрен вопрос создания возможности для граждан, проживающих в регионах, по отраслям осуществлять предпринимательскую деятельность, привлечения молодежи и женщин к предпринимательской деятельность, улучшения инвестиционной деятельности в регионе.

Ключевые слова: секторы, поддержка предпринимательства, население, нуждающееся в социальной защите, махаллабай, оилабай, фукарабай, гражданин, поддержка женщин, секторбай, борьба с бедностью.

Sarabekov Kh.D.Improving the involvement of the population in entrepreneurial activities and making investments in the territory of sectors assigned to the internal affairs bodies

The article considers the issue of creating opportunities for citizens living in the regions to carry out entrepreneurial activities by industry, attracting young people and women to entrepreneurial activities, and improving investment activities in the region.

Key words: sectors, support for entrepreneurship, population in need of social protection, mahallabay, oilabay, fukarabay, citizen, support for women, sectorbay, poverty alleviation.

Mirzamaxmudov Abduxalil Abdufattaxovich,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi xizmatchisi

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TIZIMIDAGI AYRIM MUAMMOLAR TO'G'RISIDA

Insoniyat paydo bo'libdiki o'z oilasi, uyi, vatanini turli tuman xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilishga ehtiyoj sezgan va bu borada xilma-xil chora tadbirlarni amalga oshirib kelgan. Xususan, davlat xavfsizligini, xalqning farovon, tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning eng asosiy omillaridan biri sifatida yaxshi jismoniy va ma'naviy tayyorgarlikka ega, har tomonlama ta'minlangan, qudratli, davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga mutanosib ravishda, imkon qadar ko'p sonli armiyalarni tuzish va saqlash deb qaralgan.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, oxirgi besh yarim ming yil ichida sayyoramizda 14 mingdan ortiq urushlar bo'lib o'tgan, ularda 4 milliarddan ortiq kishi halok bo'lgan. Faqat XX asrning birinchi yarmida bo'lib o'tgan ikkita jahon urushida 60 milliondan ortiq kishi qurbon bo'ldi, katta moddiy va ma'naviy boyliklar vayronaga aylandi.

Tarixdan ma'lumki, aksariyat hollarda, sifat jihatdan (jismoniy, ma'naviy-ruhiy, harbiy) yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan, vatanparvarlik ruhi yuqori bo'lgan shaxsiy tarkib bilan butlangan qo'shin son jihatdan ko'p bo'lgan armiyaga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan. Aynan shu jihat ko'p hollarda qurolli to'qnashuvlar (jangovar harakatlar)ning taqdirini hal etgan.

Shuning uchun ham barcha davlatlarda chegara va hududlarni harbiy nuqtai nazardan jihozlash, aholini harbiy ishga o'rgatish, dushman tajovuz qilgan hollarda yoshu-qarini vatan himoyasiga safarbar etish kabi masalalar podsholar va yurtboshilarning e'tibori markazida bo'lgan.

Misol uchun, Qadimgi Yunonistonda 18 yoshga to'lgan har bir o'smir bir yil davomida Afinada harbiy san'at sirlariga o'rgatilgan, keyin jangovar qurol olgan va qasamyod qabul qilgan. Greklarning jismonan baquvvat bo'lishlarida har to'rt yilda muntazam ravishda o'tkazilib kelingan olimpiada o'yinlari katta ahamiyat kasb etgan. Olimpiada o'yinlari katta bayramga aylanib ketgan. Hattoki bu vaqtda Yunonistondagi hamma ichki urushlar to'xtatilgan (birinchi olimpiada o'yinlari m.a. 776 yilda o'tkazilgan). Afinaliklar harbiy intizomga fuqarolik burchlarini bajarish deb qaraganlar.

Makedoniya davlati va uning armiyasi harbiy san'atining katta yuksalishiga asosiy sababchi bo'lgan, qadimgi dunyoning buyuk sarkardasi - makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) 16 yoshidan harbiy yurishlarda ishtirok eta boshlagan va yaxshi amaliy ko'nikmalar olgan.

Qadimgi Rimda harbiy xizmatga erkaklar 17 yoshdan qabul qilgan va 25-30 yil legionda xizmat qilish majburiyatini olgan. To'rt oy va undan ortiq tayyorgarlik va o'rgatishlardan keyin yoshlar ro'yxatga kiritilganlar va qasamyod qabul qilganlar. "Jangchilar imperator topshirgan hamma ishlarni tirishqoqlik bilan bajarishga, harbiy xizmatni hech qachon tashlab ketmaslikka, Rim davlati uchun o'limga ham tayyorlikka qasamyod qilganlar".

Yosh avlodni jismoniy rivojlangan, oriyatli, xalqi va vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash, ularni mehnatsevar va mudofaaga qurbi yetadigan darajada kamolga yetkazish sharq mamlakatlari, xususan, hozirgi Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududida yashab o'tgan ajdodlarimizning eng muhim vazifalaridan hisoblangan. Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' sarkarda va davlat arboblarining 9-12 yoshlaridan boshlab katta – katta qo'shinlarga boshchilik qilib muhim g'alabalarga erishganligi, xalqimiz o'rtasida yoshlar, ayniqsa shahzodalarning harbiy tayyorgarligiga juda katta e'tibor berilganidan dalolatdir.

Yunonistonlik tarixchi Klavdiya Yellanning ma'lumotlariga qaraganda O'rta Osiyolik ko'chmanchi qo'shinlar otliq jangchilardan tashkil topgan. Hatto ayollardan maxsus otryadlar tuzilgan. An'anaga ko'ra kuyov uylanishidan oldin qiz bilan kurash tushishi kerak bo'lgan. Agar u yutib chiqsa qizga uylangan, agar yengilsa u qizning asiriga aylangan. Bunday an'ana faqat erkak jangchilarni emas, balki ayol jangchilarning ham tarbiyasiga o'z hissasini qo'shgan. Ayollarning erkaklar bilan birga turib jang qilishlari muqaddas burch hisoblangan.

Qadim-qadimdan yurtimiz sarhadlarida yashagan xalqlar turli o'yinlar (ot o'yinlari (ko'pkari, uloq, qiz quvdi, poyga), kurash, dorbozlik, turli xil poygalar, tosh (yuk) ko'tarish kabi bir qator o'yinlar bilan nafaqat kundalik hayotda,

balki to‘ylar, bayramlar va boshqa milliy marosimlar davomida ham shug‘ullanib kelganlar. Ustoz-shogird an’analari asosida ushbu sport turlari bilan muntazam shug‘ullanilgan, xalqlar va millatlar o‘rtasida turli xil musobaqalar tashkillashtirilgan. Oilada bolalarni jismoniy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, to‘g‘ri tarbiyalash jiddiy e’tibor berish o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlari hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida ham davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlash o‘ta dolzarb va muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘tgan XX asr ulkan ilm-fan va texnologik yutuqlar qatorida ikkita jahon urushi va ko‘plab mintaqaviy urush va qurolli to‘qnashuvlar bilan insoniyat yodida qoldi. Aynan jahon urushlari, dunyoning barcha davlatlarida aholining harbiy tayyorgarligini tashkil etish, mavjud tizimlarni esa takomillashtirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirilishiga turtki bo‘ldi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishida ham qarashlar va yondashuvlar keskin o‘zgarib, katta voqeliklar yuz berdi.

Xususan, XX asr boshlarida, aniqrog‘i, 1907 yilda Buyuk Britaniyada “Skautlar harakati” (inglizcha “scout” – “razvedkachi”) deb nomlangan xalqaro nosiyosiy ko‘ngilli yoshlar harakatiga asos solindi.

Ushbu harakat asoschisi Robert Stefenson Smit Baden-Pauell 1899 yilda polkovnik unvonida Janubiy Afrikadagi Mafeking qal’asining komendanti edi. Burlar (Afrikaner-fermerlar) tomonidan qal’a qamal qilingan vaqtda, polkovnik mahalliy o‘smirlardan yordamchi bo‘linma tashkil qilib ularga razvedka va dushman pozitsiyalari orqali xabarlarni yetkazish vazifasini yuklaydi. Polkovnik bolalarning kattalar bilan tengma-teng jang olib borishi, mardligi, jasorati va hiylakorligidan hayratga tushadi. U yordamchi (kadet)larning madadi natijasida ushoqdekkina garnizon bilan, yordamchi kuchlar yetib kelguniga qadar, 207 kun qal’ani mudofaa qilib turgan. Aynan shu davrda polkovnik razvedkachilarni bolalikdan tayyorlash lozim ekan degan xulosaga kelgan va Angliyaga qaytib, general bo‘lgach, 1907 yilda “Skautlar harakati”ga asos soladi.

Skautlar harakatining maqsadi - yoshlarni shaxs, mas’ul fuqaro va mahalliy, milliy va xalqaro hamjamiyatning a’zosi sifatida jismoniy, intellektual, emotsional, ijtimoiy va axloqiy imkoniyatlarini to‘liq rivojlanishiga ko‘maklashishdir.

1910-1915 yillar ichida ushbu harakat butun dunyo bo‘ylab, shu jumladan Rossiya, Yevropa va Amerikaga tarqaldi va hozirgi kunga qadar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

1917 yilda oktabr revolyutsiyasidan keyin bolsheviklar tomonidan Skautlar harakati sekinasta siquvga olinib, butun Sovet ittifoqi hududida skautlik harakatining aksariyat tamoyillariga asoslangan pionerlik harakatigina qoldi xolos. Keyinchalik sovet hukumatining “Harbiy san’atga majburiy o‘qitish to‘g‘risida”gi qarori asosida chaqiruvga qadar tayyorgarlik kiritilib, 15-17 yoshli o‘quvchilar uchun o‘quv punktlari ochilgan. 1947 yilda o‘qimaydigan yoshlar uchun, 1962 yilda esa barcha katta sinf o‘quvchilari uchun harbiy tayyorgarlik bekor qilinadi. Ammo, 1967 yilda “Umumiy harbiy majburiyat to‘g‘risidagi SSSR qonuni” qabul qilingach maktablarning katta sinflari, hunar-texnika bilim yurtlari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining o‘quvchilari uchun “Boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik” (BHT) nomi ostida chaqiruvga qadar tayyorgarlik qayta kiritilgan edi. Shuningdek, boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik DOSAAF (Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi ko‘ngillilar jamiyati) tizimida ham olib borilar edi. Aynan 70-80 yillari “Zarnitsa” va “Orlyonok” harbiy sport o‘yinlari keng rivoj topib tarqalgan edi.

Sovet ittifoqi tarqalib ketgach, sobiq sovet respublikalarida milliy manfaatlaridan kelib chiqib yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga turlicha yondashuvlar asosida, bir qancha bosqichlardan o‘tildi. Hozirgi kunga kelib Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bir-biriga yaqin ko‘rinishlarda tashkil etilgan. Jumladan:

Belarus Respublikasida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakl va uslublarini takomillashtirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha rahbar” lavozimi kiritilgan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha rahbar zimmasiga o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan, haftada 1 soat “Chaqiriqqa qadar va tibbiy tayyorgarlik” fanidan mashg‘ulotlar va 10 sinf oxirida harbiy-dala yig‘inini o‘tkazish yuklatilgan. Shuningdek, “Izlanuvchan - qidiruvchilar” va “Harbiy xizmatga tayyorgarlik” deb nomlanuvchi qo‘shimcha ta’lim dasturlari doirasida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi “Vatanga xizmat qilishga tayyormiz”, “Yosh vatan himoyachilari” kabi fakultativ mashg‘ulotlar ham o‘tiladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha tadbirlar jasorat darslari, harbiy shon-sharaf kunlari, Vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lganlar xo-

tirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar (9 may kunlari abadiy olov yonida vaxta, harbiy qabrlarni obodonlashtirish va b.), faxriylar bilan uchrashuvlar va ularga yordam ko'rsatish, muzey va harbiy qismlarga mavzuli ekskursiyalar, harbiy mavzulardagi kinofilmlarni namoyishi va muhokamasi, kvest-o'yinlar, ommaviy sport tadbirlari ("Zarnichka", "Zarnitsa", chaqiruvgacha yoshdagi yoshlar spartakiadasi kabi harbiy-sport o'yinlari) va vatanparvarlik loyihalari va konkurslar shaklida o'tkaziladi.

Rossiya Federatsiyasida maktablarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchta asosiy yo'nalish bo'yicha tashkil etiladi: 1 yo'nalish – Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi. Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lganlar xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, jangovar shon-sharaf joylari, muzeylarga ekskursiyalar, faxriylar bilan uchrashuvlar va konsertlar tashkil etish, tabriklash, ularga yordam ko'rsatish, jasorat darslari, harbiy qabrlardan boxabar bo'lish, obodonlashtirish kabi tadbirlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. 2 yo'nalish – sport-sog'lomlashtirish tarbiyasi: "Orlyonok" va "Zarnitsa" harbiy sport o'yinlarini o'tkazish; 23 fevral, 9-may va boshqa muhim sanalarga bag'ishlangan sport musobaqalarini o'tkazish, sport-sog'lomlashtirish va ommaviy-mudofaa oyliklari, turli-tuman harbiy-sport musobaqalari va estafetalari, "Sog'lomlashtirish kuni" kabi umummaktab tadbirlari orqali hayotga tatbiq etiladi. 3 yo'nalish – Axloqiy-ruhiy tarbiya: harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi sinfdan tashqari tadbirlar, harbiy mavzulardagi uchrashuv, sinfdan tashqari mashg'ulotlar hamda o'quv mashg'ulotlari, ayniqsa "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani doirasida, o'quvchilarning chaqiruvga qadar harbiy tayyorgarlik bo'yicha bilimlarini mustahkamlab ularni chuqurlashtirishga qaratilgan "Harbiy xizmat asoslari" bo'limini o'rganish davomida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach xalqimizning asriy orzusi ushaldi - Vatanimiz o'zining Qurolli Kuchlariga ega bo'ldi. O'tgan 30 yil mobaynida bosqichma-bosqich o'tkazilgan islohotlar natijasi o'laroq O'zbekiston Qurolli Kuchlari nafaqat mintaqadagi eng jangovar va yaxshi ta'minlangan, balki dunyo armiyalari reytingida ham yuqori o'rinlarni egallovchi armiyaga aylandi.

Bunday yuqori natijalarga erishishda inson omili muhim ahamiyatga ega, zero, xar qanday murakkab va zamonaviy qurol-yaroq va texnika ham savodsiz va uquvsiz inson qo'lida qimmatbaho va samarasiz o'yinchoq bo'lib qolaveradi.

Demak, kuchli armiyaga ega bo'lishni istagan davlat o'z fuqarolarini, eng avvalo, yoshlarni chuqur bilimli, sog'lom, jismonan baquvvat, keng dunyoqarashga ega, harbiy kasbga qiziquvchan, Vatanga muhabbat, ajdodlar jangovar an'analariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni yo'lga qo'yishi lozim.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra ushbu jarayon 4 bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich (3 — 7 yoshda) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich. Unda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi;

ikkinchi bosqich (7 — 16 yoshda) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

uchinchi bosqich (16 — 18 yoshda) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib borish amalga oshiriladi;

to'rtinchi bosqich (18 — 30 yoshda) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda

tutadi.

Konsepsiyadan tashqari, davlatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar shayligini va salohiyatini yanada oshirish, armiyamizni zamonaviy qurol-yaroqlar bilan ta'minlangan, kam sonli, mobil va oldiga qo'yilgan har qanday vazifalarni bajarishga qodir bo'lishini ta'minlash maqsadida, xalqaro harbiy tajribani o'rganish va harbiy sohadagi aloqalarni rivojlantirish zamirida, zamonaviy harbiy ta'lim tizimini yaratish bilan bir qatorda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida bitiruvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi tashkil etilgan. Shuningdek, Mudofaa vazirligi huzurida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda. Ushbu tizim mutlaqo yangi Qurolli Kuchlar akademiyasini shakllantirishni, harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlar faoliyatini takomillashtirishni, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylar tashkil etishni ko'zda tutadi".

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari tomonidan o'quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni harbiy xizmatga tayyorlash borasida ko'plab topshiriq va vazifalar berilgan. Xususan, ta'lim muassasalarida o'qishi davridayoq o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini, intizomlilik, ijrochilik, maqsadga intiluvchanlik xislatlarini rivojlantirish, ularning irodasini chiniqtirish, qurolli kuchlarda mavjud harbiy texnika va qurol-aslahalarga bo'lgan ishonch va g'ururlanish hissini mustahkamlash, o'quvchilarni orastalik, uyushqoqlik, topqirlik va tashabbuskorlikka, matonat va qat'iylikka o'rgatish, jismoniy tarbiya orqali yoshlarimizda kuch, tezlik va epchillikni tarbiyalash zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi davrda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini tashkil etishga oid 20 dan ziyod O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va idoralar rahbarlarining buyruqlari va qarorlari hamda sohaga oid ko'plab reja va yo'l xaritalari qabul qilinganligini e'tirof etmoq lozim (1-jadval).

Jadvaldan kelib chiqib, Shuni e'tirof etish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan va ushbu tizim davlat miqyosida o'z funksional vazifasini bajarib kelmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasining uchinchi bosqichida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshiruvchi asosiy mexanizm sifatida ta'lim muassasalarining bitiruvchi sinf (kurs)larida Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish orqali yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ko'zda tutilgan va O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" (keyinchalik – Nizom deb yuritiladi) asosida amalga oshiriladi.

Ushbu kunda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi holatini o'rganish va tahlili davomida bir qator muammoli holatlar ko'zga tashlandi, xususan:

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (keyingi o'rinlarda ChQBT deb ataladi) umumta'lim o'rta maktablarda, o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida bitirish yili arafasidagi va bitiruvchi kurslarda yoki sinflarda majburiy fan sifatida o'qitiladi, ammo ushbu fan, keyingi vaqtlarda yurtimizda sezilarli darajada ko'payib borayotgan va eng iqtidorli o'quvchilarni o'ziga jamlayotgan, xususiy maktablarda hozircha o'qitilmayapti;

bugungi kunda mamlakatimizda ChQBTni tashkillashtirish bo'yicha asosiy normativ-huquqiy hujjat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomda ChQBT fani o'quv-moddiy bazasini barpo etish, moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shaharlar hokimliklari zimmasiga yuklatilgan bo'lsa-da, uni amalga oshirish mexanizmlari va manbalari aniq belgilab berilmagan, umumiy va xususiy o'rta ta'lim muassasalari esa ushbu qarorda umuman qayd etilmagan;

ChQBT fanini maktab, akademik litsey va

kasb-hunar kollejlarida o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari bir necha bor qayta ishlovdan o'tkazilgan. Bu jarayon asosan dars soatlarini qisqartirishga qaratilgan bo'lib, fanni va mavzularni o'rganishning alohida xususiyatlari va ahamiyatini hisobga olmagan holda amalga oshirilgan. Natijada, akademik litseylarda ushbu fanni o'qitish uchun ko'zda tutilgan soatlar soni 2014 yildagi 140 soatdan bugungi kunda 72 soatgacha qisqartirilgan.

Soatlar sonining qisqarishi o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha amaliy va nazariy bilimlari darajasini pasayishiga olib keldi. Bundan tashqari, ushbu fan o'qituvchilarining ish hajmini qisqarishi barobarida ularga to'lanadigan ish haqqi miqdori ham kamayishi ko'pchilik malakali va uzoq yillik stajga ega pedagog (harbiy pensioner) xodimlarni boshqa ishga o'tib ketishlariga sabab bo'lmoqda hamda ta'lim muassasasida o'quvchilar o'rtasida intizomni talab darajasida saqlashda muhim rol o'ynovchi, shundoq ham kamsonli, erkak o'qituvchilar sonini yanada kamayishiga olib kelmoqda;

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari va o'qituvchilarini tayyorlash, tanlab olish, lavozimga tayinlash, attestatsiyadan o'tkazish, malakasini oshirish, mehnatiga haq to'lash, pedagogik stajini inobatga olish, belgilangan imtiyoz va ijtimoiy kafolatlarni qo'llash jarayonida ancha muncha muammolar yig'ilib qolgan.

ChQBT fanini o'qitish bo'yicha amaldagi o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim muassasalarida ChQBT fanining alohida bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar ikkitadan sinf (guruh)larning o'g'il bola va qizlarini alohida guruhlarga ajratgan holda bir vaqtda o'tkaziladi. Ayrim ta'lim muassasalarida o'quv guruhlarini (sinflarni) o'quvchilar bilan butlashning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ayniqsa akademik litsey va kasb-hunar maktablarida, o'g'il bolalar soni qiz bolalarnikidan sezilarli ravishda farq qiladi, bu esa bir guruhda 35-40 o'g'il bola bo'lsa, ikkinchi guruhda 8-10 nafar qizlar bilan dars o'tish holatini keltirib chiqaradi. Bunday vaziyat o'tilayotgan mashg'ulotlarning, ayniqsa amaliy mashg'ulotlarning, samaradorligini keskin pasayishiga, amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar tomonidan texnika xavfsizligi qoidalarini buzilishiga va turli xil shikastlanish va noxush voqealar yuz berishiga, ikki sinf o'quvchilari qo'shilgani bois ular o'rtasida mojaroli vaziyatlar yuzaga kelishiga, cheklangan vaqt (45 yoki 80 minutlik dars) davomida o'quvchilarning bilimlarini xolisona baholash imkoniyatlarini pasayishiga olib kelmoqda;

ChQBT rahbarining (o'qituvchisining) zimmasiga harbiy va sportning amaliy turlari bo'yicha to'garaklarni tashkil etish va yuritish vazifasi yuklatilgan. To'garaklar asosan mashg'ulotlardan keyin, barcha bitiruvchi sinf (kurs) o'quvchilari repetitor yoki pullik qo'shimcha mashg'ulotlarga borishni rejalashtirgan vaqtda faoliyat yuritishi ko'zda tutilgan. Demak, to'garak faoliyati qancha qiziqarli bo'lmasin, 1-2 mashg'ulotdan keyin o'quvchi (ota-onalarning ruxsati yoki talabiga binoan) oliygohga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishi lozim ekanligini vaj qilib to'garak mashg'ulotlariga kelmaslik harakatida bo'ladilar;

mavjud statistik ma'lumotlarga qaraganda, hozirda ChQBT fani o'qitiladigan 10 000 ga yaqin umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda ushbu fan o'quv-moddiy bazasi ob'ektlari yetishmaydi, ya'ni: 8 700 dan ortiq to'siqlar yo'lagi; 7 600 ga yaqin gimnastik shaharchalar; 9 600 dan ortiq pnevmatik quroldan otish tiri yoki maxsus jihozlangan xona; 5 500 ga yaqin qurol saqlash xonalari; 900 dan ortiq saf maydonlari mavjud emas.

Bundan tashqari, hozirda ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan ChQBT fani o'quv-moddiy baza ob'ektlarining 50 foizi kapital ta'mirga muhtoj bo'lsa, yana shunchasi ChQBT o'quv xonalarining jihozlanishi o'rnatilgan talablarga javob bermaydi;

XXI asr – axborot texnologiyalar davrida o'quvchilarning an'anaviy tarzda berilgan ma'lumotlarga yetarlicha e'tibor bilan qaramasligi sir emas. Sohada faoliyat yuritayotgan ko'pgina o'qituvchi va mutaxassislarning fikriga ko'ra, yoshlarni, ayniqsa o'g'il bolalarni, ChQBT faniga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun eng avvalo o'quv qurollari sonini ko'paytirish, bu jarayonda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va elektron trenajyorlarning imkoniyatlaridan ham keng foydalanishni nazarda tutish lozim. O'ttizdan ortiq o'quvchi qatnashayotgan mashg'ulotda har bir o'smirga o'quv qurolini bir marta ko'tarib ko'rishi uchun kamida 30 minut vaqt talab etiladi. O'quv qurollarining soni cheklanganligi bois o'quvchilarda qurol-aslahalar bilan muomala qilish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi eng tajribali va mahoratli ustozlar uchun ham murakkablik qilmoqda;

amaldagi o'quv dasturlariga muvofiq ChQBTning yakunlovchi davrida o'qotar qurollardan amaliy o'q otish va 3 kunlik dala o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutilgan. 3 kunlik dala o'quv mashg'ulotlari tuman, viloyat mi-

qyosida tashkillashtirilganda sezilarli moddiy va moliyaviy sarf-xarajatlar qilishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, dala mashg'ulotlarini o'tkazish uchun juda ham katta hajmdagi tashkiliy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Dala-o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun mas'ul tashkilot va uni tashkillashtirish mexanizmlari aniq belgilab qo'yilmaganligi sababli, respublikaning aksariyat ta'lim muassasalarida dala o'quv mashg'ulotlari uzoq yillardan buyon o'tkazilmay kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida chaqiruvga qadar yoshdagi fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash va vatanparvarlik tarbiyasi tizimining me'yoriy-huquqiy asosi bo'lmish rahbariy hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom" ma'nan eskirgan va unda belgilangan me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlash mexanizmlari takomillashtirishni talab etadi. Buning natijasida, yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorgarligi va ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tadbirlarning ijrosi bugungi kunda yoki talab darajasida ijro qilinmayapti yoki belgilangan muddatlarga rioya etilmasdan kelinmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolar kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas va bir necha o'n yillardan buyon yig'ilib o'z yechimini kutib yotibdi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonda, har bir masala moliyaviy jihatga borib taqalishi bois, ushbu masalalarni yechimi va amalga oshirish tartib-qoidalariga qaratilgan hukumat darajasidagi normativ hujjat qabul qilinishi, unda yuqorida qayd etilgan muammoli masalalarni normaga soluvchi hujjatlarni, ChQBT va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda, qayta ishlash yoki taalluqliligi bo'yicha aniqlik va to'ldirishlar kiritish talab etiladi.

ChQBT fanini o'qitish uchun zarur bo'lgan o'quv ob'ektlarini to'liq taftishdan o'tkazish, mavjudlarini rekonstruksiya (ta'mirlash) qilish, yo'qlarini esa zamon talablariga mos ravishda qurish va jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun katta moddiy va moliyaviy resurslar talab etilishini inobatga olgan holda masalaning nostandart (faqatgina ko'rsatilgan muammolarning yechimiga qaratilgan qo'shimcha va to'ldirishlardan farq qiluvchi) yechimlarini ham diqqat bilan o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich harbiy tayyorgarligi masalasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyev talab qilganidek yondashuv, ya'ni mavjud muammolarni tomiriga yetib, sabablarini aniqlash, ilm-fan nuqtai-nazaridan kelib chiqib yechimini topish va bunday muammolar qayta yuzaga kelmaydigan qilib hal etish vaqti keldi.

Buning uchun esa, zamon talablari va mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatiga mos, xalqimizning mentaliteti va yashash tarzini inobatga olgan hamda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, zarur bo'lsa O'zbekiston Respublikasida yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi tizimini kardinal qayta qurishni talab etuvchi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida, ushbu mavzularga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar sonini ko'paytirish lozim. Zero ushbu masala Vatan himoyasi, yurtimiz tinchligi, xalqimizning tinch va farovon hayotini ta'minlash masalalari bilan bir qatorda yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida, mard, jasur, sog'lom va yetuk shaxslar qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги қонуни;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари пенсионерларини ижтимоий ҳимоя қилишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4960-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 18 декабрдаги "Ўзбекистон Республикаси ёшларини ҳарбий хизматга тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги 348-сон Қарори.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи.11.01.2018 й.

8. https://spravochnick.ru/pedagogika/voenno-patrioticheskoe_vospitanie.

Mirzamaxmudov A.A. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimidagi ayrim muammolar to‘g‘risida

Maqolada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining tarixiy ahamiyati va bu borada ayrim mamlakatlarda mavjud bo‘lgan qarashlar, urf-odatlar va an’analar to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ayniqsa chaqiruvga qadar yoshdagi o‘smirlarning harbiy xizmatga tayyorlash, bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda sohada mavjud bo‘lgan ba'zi muammoli holatlar yoritilib, ularni yechimi borasida o‘ziga xos takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, yoshlar, harbiy vatanparvarlik, o‘smirlar, jismoniy, ma’naviy, armiya, xizmat, boshlang‘ich, tayyorgarlik, o‘quv-moddiy baza, nizom, himoya.

Мирзамахмудов А.А. Об отдельных проблемах в системе воспитания молодежи в военно-патриотическом духе

В статье дана краткая информация об историческом значении военно-патриотического воспитания молодежи и связанные с ней существующие в отдельных государствах взгляды, традиции и обычаи. Также, наряду с мероприятиями, проводимыми в Республике Узбекистан по военно-патриотическому воспитанию молодежи, особенно по подготовке юношей допризывного возраста к военной службе, освещены отдельные проблемы и даны своеобразные предложения по их решению.

Ключевые слова: Родина, молодежь, военный, патриотизм, юноши, физическое, духовное, армия, служба, начальное, подготовка, учебно-материальная база, устав, защита.

Mirzamakhmudov A.A. About specific problems in the system of educating young people in a military-patriotic spirit

The article provides brief information about the historical importance of educating young people in the military-patriotic spirit and the views, customs and traditions that exist in this regard in some countries. Also, along with the work being carried out in the Republic of Uzbekistan to educate young people in the military-patriotic spirit, especially the preparation of teenagers of the age before the draft, some problematic situations that exist in the field are highlighted, and solutions to them are discussed. specific suggestions are made.

Key words: Motherland, youth, military patriotism, teenagers, physical, spiritual, army, service, primary, training, educational and material base, regulation, defense.

Xurramov Musurmon Keldiyorovich,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
tayanch doktoranti

O'ZBEKISTON – QOZOG'ISTON RESPUBLIKALARINING MINTAQADAGI SUV-ENERGETIKA MUAMMOLARINI HAL ETISH BORASIDAGI YONDASHUVLARI

1991 yil Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar vujudga kelishi bilan mintaqada transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish, mazkur daryolarda gidroinshootlar qurish hamda Orol dengizining butkul qurib bitishining oldini olish kabi bir qator mintaqaviy muammolar yuzaga chiqa boshladi. Sobiq Ittifoq davrida Moskva orqali boshqariladigan tizim faoliyati endilikda mavjud emasligi, mustaqil davlatlar umummintaqaviy manfaatlardan ko'ra milliy manfaatlarni ustun qo'yishga urinishi oqibatida mintaqadagi suv-energetika muammolari chuqur ildiz otib ketishiga sabab bo'ldi. Tomonlar o'zaro kelishuv asosida muammolarni hal etish borasida bir to'xtamga kela olmay fikrlar ikki guruh (daryoning yuqori oqimida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston, quyi oqimda joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston)ga bo'linib ketdi. Hattoki quyi oqim davlatlarining transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha pozitsiyalarida tafovutlar paydo bo'lganining guvohi bo'lamiz.

Transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqada vujudga kelgan muammolarni kengroq tasavvur qilish uchun biroz oldinroqqa nazar solishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Suv resurslarini integratsion usulda boshqarish va uni havza miqyosida saqlab turish zarurati mintaqa davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritishidan ancha oldin paydo bo'lgan edi. Garchi markazlashgan suv taqsimoti SSSR Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi (Minvodxoz SSSR) tomonidan besh respublika hukumatlari bilan maslahatlashuvlar asosida amalga oshirilgan bo'lsa-da, 1974 – 1975 yillardagi, ayniqsa 1982 yildagi suv tanqisligi Shuni ko'rsatdiki [1], mintaqadagi barcha davlatlarning kelishilgan sa'y-harakatlarisiz ekologik maqbul hamda qattiq nazorat qilinadigan suv ta'minoti imkonsiz edi. Shuning uchun SSSR Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, respublikalar bilan kelishiladigan, qonun-qoidalar va grafikka muvofiq suv resurslarini boshqara oladigan havza tashkilotlarini tashkil etish masalasi kun tartibiga chiqadi. Tashkilot tuzilmasi 1986 yilda tasdiqlanadi, natijada qarorgohlari Urganchda "Amudaryo" va Toshkentda joylashgan "Sirdaryo" nomli ikkita havza suv xo'jaligi tashkilotlari tuziladi [2].

Ushbu davrda suv taqsimoti bo'yicha sug'oriladigan maydonga proporsional ravishda alohida ekin va alohida soha uchun proporsional talab asosida boshqariladigan ikki xil yondashuv shakllanadi. Havza suv xo'jaligi tashkilotlari gidrologik prognozlarga muvofiq ravishda suv limitini har bir davlat uchun 10 foizgacha chegarada kamaytirishi yoki bo'lmasa ko'paytirib berishi mumkin edi. Havza suv xo'jaligi tashkilotlari suv sifatini nazorat qilish hamda davlatlar ichida suv iste'moli uchun javobgarlik majburiyatini olmagan edi. Shu sababli, Orol dengizi va Orolbo'yi hududida suv ta'minoti qiyinroq holatda bo'lib suv juda ham oz oqib kelardi. Mazkur hududlarda istiqomat qiluvchi insonlar esa yetib kelgan suvga qanoat qilib yashashga majbur edi. Ta'kidlash kerakki, sovet davrining oxiriga kelib, Markaziy Osiyoda suv resurslarining taqsimlanishi bilan bog'liq vaziyat og'irlashib ketadi.

Mustaqillik Markaziy Osiyoning beshta respublikalari oldiga butunlay yangi vazifalarni qo'ydi hamda ular uchun hayotning barcha sohalarida yangi muammolarni keltirib chiqardi. Dastlab faqat ma'muriy xarakterga ega bo'lgan davlatlararo chegaralar xalqaro davlat chegaralariga, katta daryolar esa transchegaraviy daryolarga aylandi. Yangi chegaralar uylar, qishloqlar, kanallar va sug'orish tizimlarining bo'linib ketishiga olib keldi. Suv taqsimlash masalasi xalqaro miqyosda hal etiladigan muammoga aylandi. Natijada transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish tizimi endi faqat mustaqil davlatlar o'rtasida yaqin hamkorlik va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin edi.

Ta'kidlash kerakki, mintaqa davlatlari o'zaro munosabatlarda dastlab Sovet Ittifoqi davrida to'plangan tajribadan foydalanishga harakat qilishgan. Ilk muhim siyosiy qadamlardan biri Markaziy Osiyo davlatlari milliy suv xo'jaligi idoralari yuqori mansabdor shaxslarining 1991 yil oktabr oyida Toshkent bayonotini qabul qilish tashabbusi bo'ldi. Mazkur tashabbus Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy dary-

olarning suv resurslaridan foydalanish borasidagi muzokaralar jarayonining boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Bayonotda barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga olgan holda umumiy tamoyillar asosida suv resurslaridan birgalikda foydalanish haqida so‘z yuritiladi [3].

Toshkent uchrashuvlarining davomi hamda mintaqadagi suv muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlarning asosi va boshlanish nuqtasi 1992 yil 18 fevralda Almatida Markaziy Osiyoning barcha beshta davlati o‘rtasida tuzilgan transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarish va himoya qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitim bo‘ldi. Bitimga binoan, sovet davridan meros qolgan mavjud suv taqsimlash tizimi xalqaro shartnomalar asosida yangi qoidalar ishlab chiqilgunga qadar saqlanib qolinishi kerak edi [4]. Garchi bu kelishuv mintaqadagi suv muammolarini hal qilolmagan bo‘lsa-da, o‘sha vaqt nuqtai nazaridan eng ijobiy qadamlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, sovet davrida tuzilgan shartnoma va bitimlar transchegaraviy daryolarning yuqori oqimidagi mamlakatlar olib borayotgan siyosatga mos emasligi ma’lum bo‘ladi. Ushbu masalada eng keskin davlatlararo ziddiyatlar Sirdaryo daryosi havzasida, Norin-Sirdaryo kaskadi suv omborlarida, Shuningdek, To‘qtog‘ulda suvdan foydalanish rejimiga nisbatan namoyon bo‘ladi [5]. Sovet davrida Sirdaryoning oqimi Norin-Sirdaryo kaskadi suv omborlari, birinchi navbatda, To‘qtog‘ul suv ombori tomonidan tartibga solingan bo‘lib asosan O‘zbekiston va Qozog‘istonning yerlarini sug‘orishga yo‘naltirilgan. Ilk ziddiyatlar 1993 yilda O‘zbekiston Qirg‘izistonning qarzlari sababli uni gazsiz qoldirgan vaqtda paydo bo‘lgan. Bunga javoban Bishkek qish faslida To‘qtog‘ul suv omboridan ko‘p miqdorda suvni oqizishni amalga oshiradi [6]. Qirg‘iziston To‘qtog‘ul suv omborining ish tartibi o‘zgarishini qishda elektr energiyasi ishlab chiqarish maqsadida yozda ko‘proq suv to‘plash zarurati bilan izohlaydi. Ta’kidlash joizki, bir qator obyektiv omillar, xususan, mintaqadagi iqtisodiy aloqalarning uzilishi, uglevodorod resurslari narxining oshib ketishi Qirg‘izistonning suv resurslaridan foydalanish sohasidagi siyosatini o‘zgartirishga undagan. Natijada Tojikiston singari Qirg‘iziston ham energetik inqirozga duch keladi, bu ikkala davlat suv omborlarining ish rejimini bir tomonlama o‘zgartirish va suv resurslaridan faqat o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

1993 yildan so‘ng To‘qtog‘ul kaskadining ish tartibiga o‘zgartirish kiritilib, yoz faslida suv to‘planadigan, qishda esa oqiziladigan tizim joriy etiladi. Bu o‘zgarish Qirg‘izistonning qishda elektr energiyasini ishlab chiqarishga bo‘lgan manfaati bilan bog‘liq edi. Manfaatlarning turli xil ekanligiga qaramasdan 1993 yilda Markaziy Osiyo davlatlari suv taqsimoti va suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasidagi o‘zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yana bir bor urinib ko‘rishadi. Muzokaralar natijasida “Davlatlararo manbalar suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va himoya qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi bitim qabul qilinadi. Biroq bu hujjat ham amaliyotda deyarli hech qanday natija bermaydi. 1995 yilda Markaziy Osiyo davlatlari Nukus deklaratsiyasini qabul qilib, suv resurslari sohasidagi bahsli masalalarni hal etishga harakat qilishadi. Mazkur uchrashuvda suv xo‘jaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ilgari imzolangan bitimlarning muhimligi qayd etiladi. Mintaqa davlatlari suv resurslaridan foydalanishda barcha davlatlarning manfaatlarini hisobga olish tamoyiliga sodiqliklarini tasdiqlaydilar. Keyin yana bir qancha hujjatlar qabul qilinadi, lekin ular ham Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi suv bilan bog‘liq nizolarni hal etishning uddasidan chiqa olmaydi.

1998 yil Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida “Sirdaryo daryosi havzasi suv-energetika resurslaridan foydalanish to‘g‘risida” shartnoma tuziladi va bu hujjatga 1999 yil Tojikiston qo‘shiladi. Ushbu hujjat kompensatsiya tamoyillarini mustahkamlagan bo‘lsa-da, ramziy xarakterga ega edi. Shartnomaga ko‘ra, Qirg‘iziston suvning katta qismini yozda oqizadi, o‘z navbatida quyi oqim davlatlari esa qishda Qirg‘izistonni elektr energiyasi bilan ta’minlash majburiyatini oladi. Biroq shartnomada gidroenergetika va irrigatsiya o‘rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy mexanizmi o‘z aksini topmagan [7] bo‘lib, buning oqibatda, quyi oqim mamlakatlari yozda, ya’ni suvga bo‘lgan eng katta talab davrida suv yetishmovchiligini boshdan kechirib, qish oylarida esa suv xo‘jaligi inshootlarini suv bosishi va suv toshqini bilan to‘qnash kela boshlaydi.

Qabul qilingan hujjatlar transchegaraviy daryolarning suv resurslarini taqsimlash muammosini hal eta olmaydi, chunki kompensatsiya to‘lovi borasida amaliy mexanizmlar ishlab chiqilmagan edi. Quyi oqim davlatlari yuqori oqimda joylashgan suv omborlar ish rejimi o‘zgarishi oqibatida yuqori mamlakatlarga yetkaziladigan zararni qoplashga tayyor emas edilar. Bundan

tashqari, mintaqadagi har bir davlat suv resurslari sohasida paydo bo'layotgan muammolarni mustaqil hal qilishga va qo'shnilarga bosim o'tkazish orqali o'zlari uchun ijobiy natijaga erishishga harakat qilishgan. Aslida esa asosiy muammo Markaziy Osiyo barcha davlatlari milliy rivojlanish dasturlarining bir-biriga zid ekanligidan iborat edi [8]. Oqibatda Turkmaniston va O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlar vaqti-vaqti bilan keskinlashib turishiga sabab bo'lgan.

O'z-o'zidan ma'lumki, mintaqa davlatlari transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish borasida suvni irrigatsiya yoki energetik maqsadda ishlatishni yoqlaydigan ikki guruhga bo'linib ketadi. Bu borada Tojikiston va Qirg'iziston mintaqadagi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish borasida o'xshash pozitsiyalarni egallaydi. Mazkur davlatlar iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun suv resurslarini faol o'zlashtirish, gidroenergetika inshootlarini qurish va ularning energiya xavfsizligini mustahkamlashni qo'shimcha daromad manbai sifatida ko'radi. Qirg'iziston davlatlar o'rtasida imzolangan transchegaraviy suv resurslari to'g'risidagi shartnomalar mamlakat manfaatlariga zid, degan pozitsiyani qattiq turib himoya qildi. 1992 yildan keyin imzolangan shartnomalar Qirg'iziston tomonini qoniqtirmaydi, chunki ular barcha davlatlarning manfaatlarini inobatga olgan holda suv omborlarining ishlashini sug'orish rejimiga yo'naltirishga asoslangan bo'lib, transchegaraviy daryolar suv resurslaridan foydalanishning sovet tizimi davrida bo'lgan majburiyatlarini belgilab qo'yganligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, Qirg'iziston qo'shni davlatlar bilan gidroenergetika inshootlarini sug'orish rejimida ishlatish uchun o'zaro hisob-kitob mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish taklifini ilgari surdi. Shu maqsadda iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan alohida resurs sifatida suv uchun to'lovlarni joriy etish yoki suv infratuzilmasini saqlash uchun kompensatsiya to'lashni taklif etadi [9]. Qirg'izistonning bu yondashuvi qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yanada murakkablashishiga sabab bo'ldi.

Qirg'iziston pozitsiyasini transchegaraviy daryolarda yangi yirik gidroenergetika inshootlarini qurish g'oyasini izchil targ'ib etgan Tojikiston ham qo'llab-quvvatlaydi. Tojikiston O'zbekistonning qat'iy e'tiroziga qaramasdan Rog'un GESi qurilishi loyihasini davom ettirdi. Mazkur GESni ishga tushirish orqali Tojikiston butun mamlakatni elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash muammosini hal etish, shu bilan birga, ortiqcha elektr energiyasini Afg'oniston va Pokistonga eksport qilishni mo'ljallaydi. Uzoq vaqt davomida Tojikiston tomonidan Rog'un GESi loyihasini amalga oshirish uchun tashqi investitsiya va mamlakat ichki mablag'larining yetishmasligi to'siq bo'lib kelgan.

O'z o'rnida quyi oqim davlatlari o'z qo'shnilarining transchegaraviy daryolar oqimini nazorat qilish borasidagi siyosatiga qarshi tegishli choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Xususan, Qozog'iston suv resurslari bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash uchun bir qator qarorlar qabul qilishga to'g'ri keladi. Kichik Orolni tiklash, mamlakatda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarining tuzilishini o'zgartirish, suv sarfini kamaytirishga mo'ljallangan hamda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Qozog'iston Sirdaryo daryosida Ko'ksaroy suv hisoblagichini barpo etib, suv resurslarining mavsumiy o'zgarishlarini kuzatib bordi. Chuqurroq e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, suv masalalari qancha ko'p muhokama etilgan bo'lsa, mintaqa mamlakatlari suv tanqisligi bilan bog'liq muammolarga shuncha ko'p duch kelganligini anglash mumkin. Natijada suv muammolari siyosiy tus olib davlatlararo ziddiyatga aylanib ketishiga sabab bo'lgan [10].

Ta'kidlash joizki, mintaqada iste'mol qilinadigan suvning deyarli yarmi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli transchegaraviy daryolardan foydalanish borasidagi har qanday o'zgarish yoki yangi gidrotexnik inshootlar qurilishi O'zbekiston manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston Tojikiston va Qirg'iziston bilan suv masalasida murosa qilishga to'g'ri kelgan. Ammo O'zbekiston ichki sug'orish tizimida suv tejaydigan texnologiyalarning rivojlanmaganligi hamda yerning meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltiriladigan mablag'larning yetishmasligi ko'p miqdordagi suvning haddan ziyod sarflanishiga olib kelgan.

Qozog'istondan farqli o'laroq O'zbekistonning transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish borasidagi pozitsiyasi qat'iyligi va ancha keskinligi bilan yaqqol ajralib turadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda suv resurslaridan foydalanish masalasi suv resurslarining oqilona va adolatli taqsimlanishi kafolatlanadigan, mintaqadagi barcha davlatlarning manfaatlari hisobga olinadigan xalqaro huquqning umume'tirof etil-

gan normalariga muvofiq ko'rib chiqilishi kerak degan, bayonotni doimiy ravishda ilgari surib keldi. O'zbekiston transchegaraviy daryolarning quyi oqimida joylashgan Markaziy Osiyo davlati hisoblanib, suv resurslarining jiddiy tanqisligi muammosini doimo his qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tomonining Markaziy Osiyodagi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish borasidagi pozitsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi [11]:

- Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan foydalanish mintaqaning barcha mamlakatlarida yashovchi 60 milliondan ortiq odamlarning manfaatlarini hisobga olgan holda hal qilinishi kerak;

- Transchegaraviy daryolarda amalga oshiriladigan har qanday harakatlar mintaqaning mavjud ekologik va suv balansiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

- Suvdan foydalanish va ekologiya sohasidagi amaldagi xalqaro huquqiy baza Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar resurslaridan birgalikda foydalanishning samarali tizimini yaratish uchun asos bo'lishi kerak;

- Loyihalarni amalga oshirish konstruktiv yondashuv va murosaga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak, bunda boshqa manfaatdor davlatlarning manfaatlariga putur yetmasligi hamda ikkita zarur shart kafolatlanishi kerak: quyi oqimda joylashgan mamlakatlar uchun tomonlar bilan kelishilgan suv oqimi suv balansi darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik; mintaqaning ekologik muvozanatini buzmaslik.

Davlatlararo o'zaro ishonchning pastligi, zarur moliyaviy mablag'larning yetishmasligi hamda o'zaro murosaga bormaslik oqibatida mintaqaviy suv muammolari o'z yechimini topmaydi. Mintaqa davlatlari bugungi kunga kelib ham transchegaraviy suv muammolarini hal etish bo'yicha bir to'xtamga kelmagan. O'zbekiston va Qozog'iston ushbu masala bo'yicha ko'pincha o'xshash pozitsiyada bo'lib kelgan, ammo ayrim o'rinlarda tomonlar turlicha yondashuvlarni ilgari surib kelgan. Shu sababli ham mazkur masala hozirgi kunga kelib ham kun tartibidan tushmay kelyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эшмент Б. Распределение водных ресурсов в Центральной Азии. Неразрешимая проблема? // 2011 г. С.7. https://library.fes.de/pdf-files/bueros/moskau/08598.pdf

2. К укреплению сотрудничества по рациональному и эффективному использованию водных и энергетических ресурсов Центральной Азии. Специальная программа ООН для экономик Центральной Азии. Проектная рабочая группа по энергетическим и водным ресурсам. Нью-Йорк, 2004. С.54. // https://unece.org/DAM/SPECA/documents/we_and_environment/effuse_r.pdf

3. Пикулина М.Л. Проблема трансграничных водных ресурсов в Центральной Азии // Казахстан спектр. – 2013. – № 1. – С. 31-42.

4. Искандархонова Б.А. Правовое регулирование использования трансграничных рек в Центральной Азии // Московский журнал международного права. – 2007. – № 3. – С. 140-153.

5. Кузьмина Е.М. Геополитика Центральной Азии // Е.М. Кузьмина. – М.: Наука, 2007. – 68 с.

6. Гусейнов В. Водные ресурсы ЦАР / В. Гусейнов, А.Гончаренко // Центральная Азия. Геополитика и экономика региона. – М.: Красная звезда, 2010. – С. 68-88.

7. Петров Г. Конфликт интересов между гидроэнергетикой и ирригацией в Центральной Азии. Его причины и пути преодоления // Центральная Азия и Кавказ. – 2010. – № 3. – С. 59-72.

8. Боришполец К.П. Вода как perpetuum Mobile центрально-азиатской политики // Вестник Московского университета. Сер. 12. Политические науки. – 2010. – № 5. – 29 с.

9. Ауелбаев Б. Политика стран Центральной Азии и водно-энергетические проблемы региона // Analytic (Казахстан). – 2009. – № 3. – С. 13-18.

10. Борисова Е. Таджикистан – Узбекистан: борьба за водные ресурсы // История и современность. – М., 2011. – С. 93-106.

Проблемы Арала и водных ресурсов региона // https://www.un.int/uzbekistan/news/проблемы-арала-и-водных-ресурсов-региона

Xurramov M.K. O'zbekiston – Qozog'iston Respublikalarining mintaqadagi suv-energetika muammolarini hal etish borasidagi yondashuvlari

Maqola O'zbekiston va Qozog'istonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv-energetika muammolarini hal etish borasidagi yondashuvlariga bag'ishlangan. Maqolada transchegaraviy suv resurslardan foydalanish, suv masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlarning keskinlashuvi hamda yuqori va quyi oqim davlatlarining suv muammolari bo'yicha pozitsiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: transchegaraviy suv resurslari, suv-energetika muammolari, havza tashkilotlari, Nukus deklaratsiyasi, yuqori va quyi oqim davlatlari.

Хуррамов М.К. Подходы Республики Узбекистан и Казахстан к решению водно-энергетических проблем региона

Статья посвящена подходам Узбекистана и Казахстана к решению водно-энергетических проблем Центральноазиатского региона. В статье анализируются использование трансграничных водных ресурсов, ужесточение межгосударственных отношений по водным вопросам, позиции стран верхнего и нижнего течения по водным вопросам.

Ключевые слова: трансграничные водные ресурсы, водно-энергетические проблемы, бассейновые организации, Нукусская декларация, страны верхнего и нижнего течения.

Khurramov M.K. Approaches of the Republics of Uzbekistan and Kazakhstan to solving water and energy problems in the region

The article is devoted to the approaches of Uzbekistan and Kazakhstan to solving the water and energy problems of the Central Asian region. The article analyzes the use of transboundary water resources, the tightening of interstate relations on water issues, the positions of the upstream and downstream countries on water issues.

Key words: transboundary water resources, water and energy problems, basin organizations, Nukus Declaration, upstream and downstream countries.

Radjapov Azamat Xudaynazarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TA'MINLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Mamlakatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bog'liq strategik maqsad va vazifalarning samarali amalga oshishi jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari faoliyati to'g'risida axborot olish tartibi va usullari haqida, qisqacha aytganda, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash mexanizmlari to'g'risida muayyan tushunchalarga ega bo'lishiga bog'liqdir. Binobarin, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash usullarining aniq belgilab qo'yilishi qabul qilinayotgan qarorlarni keng jamoatchilikka yetkazishda, halqimizning iqtisodiyot, siyosat va davlat qurilishi sohalarida olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini teran tuShunib yetishlarida hamda jamiyatda qonun normalarini hurmat qilish va unga qat'iy rioya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash kerakki, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasiga asosan davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash quyidagi 6 ta usul orqali amalga oshiriladi.

I. Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish).

Bugungi kunda davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish) ularining rasmiy nashrlari, rasmiy veb-saytlari hamda OAV orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni **rasmiy nashrlarda e'lon qilish** axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlarining faoliyati to'g'risida, mazkur organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar xususida atroflicha ma'lumot olishini ta'minlashga, Shuningdek, keng jamoatchilikni huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlardan keng foydalanishiga sharoitlar yaratish, jamiyatga huquqiy axborotni yetkazish tizimini takomillashtirish hamda amaldagi qonun hujjatlarini bosqichma-bosqich turkumlashni tashkil etishga xizmat qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil 1 yanvar holatiga respublika bo'yicha davlatga qarashli 334 ta gazeta, 243 ta jurnal va 12 ta byulleten-axborotnoma chop etib kelinmoqda [1].

Davlat organlarining rasmiy nashrlari ular o'zlari tomonidan ta'sis etiladi va faoliyatiga doir axborotlarni e'lon qilish (chop etish) bilan shug'ullanadi. Misol uchun, Ichki ishlar vazirligining «Postda» va «На посту» gazetalari hamda «Qalqon» va «Щыт» jurnallari ushbu organning rasmiy nashrlari hisoblanib, ular jami 90 ming nusxada chop etiladi [2]. Shu bilan birga, Oliy sud axborotnomasi, Bank axborotnomasi, Markaziy saylov komissiyasi axborotnomasi ham ushbu davlat organlarining rasmiy nashrlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, dalat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot ularning **rasmiy veb-saytlari** orqali ham e'lon qilib borilishi ushbu organlar faoliyati to'g'risida rasmiy nashrlar yoki ommaviy axborot vositalari orqali axborot ololmagan shaxslar uchun qulayliklar yaratilishiga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablarda rasmiy veb-saytda joylashtirish uchun majburiy bo'lgan 20 dan ortiq axborotlar ro'yxati belgilab qo'yilgan.

Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 iyuldagi 444-son qarori bilan Davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibi to'g'risidagi nizom bilan davlat organlari va tashkilotlari internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari, mobil messenjerlardagi rasmiy sahifalari, Shuningdek, brifing, matbuot konferensiyalarining onlayn translatsiyalarni tashkil etish orqali hisobot berish tizimi joriy etildi.

Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish (chop etish)da OAV muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda davlat organlari faoliyati bilan bog'liq axborotni keng jamoatchilikka o'z vaqtida yetkazishda jami 1 962 ta davlat va nodavlat OAV, shu jumladan, 1 168 ta bosma OAV, 75 ta televideniye va 37 ta radio kanallar, 677 ta veb-saytlar va 5 ta axborot agentliklari imkoniyatidan keng foydalanilmoqda [3].

Qayd etish joizki, davlat organlari axborot xizmatlarining OAV bilan hamkorligi kengayib, kundalik axborot oqimida ularning xabarlari ulushi ortib bormoqda. Masalan, davlat organlarining Internet jahon axborot tarmog'idagi, ijtimoiy tarmoq va mobil messenjerlardagi axborot manbalari soni 2019 yildagi 559 tadan, 2022 yilga kelib 3 064 taga yetdi [4].

Chegara bilmas muxbirlar (Reporters Without Borders) xalqaro nohukumat tashkiloti

tomonidan jahon matbuot erkinligi indeksi bo'yicha O'zbekiston 2022 yilda o'tgan yilga nisbatan 24 pog'ona, 2017 yilga nisbatan 36 pog'ona ko'tarilib, 180 ta davlat orasida 133 o'rinda qayd etildi [5].

Biroq, davlat organlari tomonidan e'lon qilinayotgan axborot materiallarining sifati talab darajasida emas. Masalan, Axborot xizmati rahbarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlariga (ro'yxat raqami 3187, 2019 yil 3 oktabr) asosan o'tkazilgan o'rganishlar natijalariga ko'ra, 2021 yilda Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan atigi 7 ta matbuot anjumani, 8 ta brifing, 2 ta press-tur o'tkazilgan. Shuningdek, OAV va Internet jahon axborot tarmog'idagi tanqidlarga o'z vaqtida munosabat bildirishda ham vazirlik eng past natijani qayd etmoqda (axborot xizmati tomonidan 2021 yilda vazirlik faoliyatiga nisbatan e'lon qilingan umumiy tanqidlarning atigi 29 foiziga munosabat bildirilgan). Bundan tashqari, 2021 yil II yarim yillikdagi faoliyati samaradorligi natijalariga ko'ra, «O'zneftgazinspeksiya» *(48 ball)*, «O'zmilliybank» AJ *(53 ball)*, «Asakabank» ATB *(51 ball)*, «Xalq banki» ATB *(49,9 ball)* axborot xizmatlarining faoliyati **«past darajada»** deb topilgan [6].

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishlarida ularga qulayliklar yaratish va ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida **«Davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni rasmiy nashrlar, rasmiy veb-saytlar, Shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish (chop etish) tartibi»**ni tasdiqlash bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatni (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining qo'shma qarori) qabul qilish (Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazish) va unda e'lon qilinadigan axborotga qo'yiladigan talablar, ularni yangilab borish tartibi, muddatlari, davriy e'lon qilib borilishi lozim bo'lgan davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan axborotlar hamda javobgarlik masalalarini, Shuningdek, ochiq ma'lumotlar bilan ishlash uchun mas'ul bo'linmani aniq belgilash, ichki axborot almashinuvini nazorat qilish va muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

II. Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish va yangilab borish.

Qonunchilikka muvofiq rasmiy veb-sayt Internet jahon axborot tarmog'idagi ushbu organlarga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga tegishli bo'lgan va ularning faoliyati to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan rasmiy veb-sayt sifatida identifikatsiya qilinadigan, hamma foydalanishi mumkin bo'lgan resursdir [7].

Bugungi kunda Milliy «Uz.» domenida ro'yxatdan o'tgan saytlar soni 106 009 tani tashkil etib [8], shundan 120 tasini davlat organlari va boshqa tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari tashkil etadi [9].

Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlar ro'yxati «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonunning 5 va 13-moddalari qoidalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablarga muvofiq holda tasdiqlanadi.

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlaridagi axborot davlat tilida joylashtirilishi kerak, lekin u boshqa tillardagi shakllarga ham ega bo'lishi mumkin. Davlat organlari o'zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradigan axborotda sana bo'lishi hamda u muntazam yangilab turilishi lozim. Axborotni yangilab turish muddati davlat organlari tomonidan belgilanadi, biroq u **haftasiga bir martadan kam bo'lmasligi** kerak.

Ta'kidlash lozimki, davlat organlari tomonidan ushbu talabga to'liq rioya qilinmayapti. Masalan, deyarli barcha viloyatlar hokimliklarining (Jizzax viloyatidan tashqari) rasmiy veb-saytida mavjud bo'sh ish o'rinlari, davlat xaridlari haqidagi ma'lumotlar, ochiq majlislar o'tkaziladigan sanalar, davlat dasturlari ijrosi haqidagi ma'lumotlar, hokimlik tomonidan qabul qilingan qarorlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Shuningdek, ushbu hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi va jamoatchilikni qiziqtiradigan boshqa dolzarb bo'lgan ma'lumotlar **bir oydan uch oygacha yangilanmay** qolmoqda.

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan axborot OAVda e'lon qilinadigan axborot bilan teng kuchga ega bo'ladi, shu sababli ushbu axborotlar ishonchli va aniq bo'lishi kerak.

Davlat organlarida rasmiy veb-saytdagi axborotlarni shakllantirish, joylashtirish, Shuningdek, yangilab borish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (bo'linma) belgilanadi. Odatda bu vazifa davlat organining axborot xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborotni tarqatish, davlat organining rasmiy veb-saytida ularning faoliyatiga tegishli axborotlarni joylashtirish, yangilab borish, idora faoliyatini yoritish axborot xizmatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tahlillar Shuni ko'rsatdiki, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi,

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmalarida **tuzilmasida axborot xizmati shtati mavjud emas.**

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Fuqaro aviatsiyasi agentligi, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi, Eksportni rag'batlantirish agentligi, Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi, Davlat personallashtirish markazi, Urug'chilikni rivojlantirish markazi, Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi, Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, Davlat mehnat inspeksiyasi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining tuzilmasida ham **axborot xizmati mavjud emas.**

Shularni inobatga olgan holda hamda xalq bilan muloqot qilish, davlat ichki va tashqi siyosatida amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan, davlat organlari tomonidan inson qadrini ulug'lash maqsadida aholiga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar to'g'risida keng jamoatchilikka hisob berish tizimini qat'iy joriy etish maqsadida barcha davlat organlari va tashkilotlarida axborot xizmatini tashkil etishning aniq tashkiliy shaklini, undagi umumiy xodimlari sonini hisobga olgan holda axborot xizmatining eng kam xodimlar sonini (o'sib borish tartibida), ichki axborot almashish va uni muvofiqlashtirishning aniq mexanizmlarini belgilab berish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi va Davlat mehnat inspeksiyasi ham o'zining rasmiy veb-saytiga ega emas.

Davlat organining rasmiy veb-sayti Internet tarmog'idagi «.UZ» domen zonasida va O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi, Shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida serverda jismoniy joylashtirilishi kerak.

Biroq, «Uzbekistan Airways» AJning rasmiy veb-sayti ushbu tashkilot tashkil etilganidan buyon «.com» domen zonasida faoliyat yuritmoqda.

Ko'rinib turibdiki, e'lon qilinishi va davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi lozim bo'lgan axborotlar kundan-kunga dolzarblashib, ularni keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning axborot olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Shuni inobatga olgan holda hamda davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni aholiga yetkazish bo'yicha yagona tizimni yaratish maqsadida davlat organing rasmiy veb-saytini yuritish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasini belgilagan holda uning huquqlari va majburiyatlarini, axborotga qo'yiladigan talablarni hamda uni joylashtirish va yangilab borish muddatlarini, e'lon qilingan axborotning sifati va undagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlikni, rasmiy veb-saytning barcha uchun qulay bo'lishi uchun jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtirib borish masalalarini nazarda tutuvchi barcha davlat organlari va tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan **«Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi axborotni ularning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va yangilab borish tartibi»**ni ishlab chiqish va (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining qo'shma qarori) tasdiqlash (Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazish) lozim.

III. Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarga va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish.

Davlat organlari o'zlari egallab turgan binolarning barcha kirishi mumkin bo'lgan xonalarida va (yoki) boshqa ajratilgan joylarida o'z faoliyati to'g'risidagi axborot bilan hammaning tanishishi uchun axborot stendlarini va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan boshqa texnik vositalarni joylashtirishi shart.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to'g'risida namunaviy nizomga asosan axborot e'lon qilish (chop etish) hamda ularni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalar va joylarga joylashtirish va yangilab borishni ta'minlash tegishli axborot xizmati yoki matbuot xizmati yoxud jamoatchilik bilan aloqalar xizmatining zimmasiga yuklatilgan.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi «Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ–4366-son qaroriga muvofiq davlat organlari axborot xizmatlari rahbarlari bir vaqtning o'zida tashkilot rahbarining matbuot kotibi hisoblanib, axborot siyosati masalalari bo'yicha rahbarning maslahatchisi maqomiga ega bo'lishi, mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlariga ko'ra davlat organi rahbarining o'rinbosariga tenglashtirilgan [10].

O'tgan davrda 280 dan ortiq respublika ahamiyatiga molik idora, muassasa, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, viloyat, tuman va shahar hokimliklarida birinchi marta axborot

xizmatlari tashkil etildi. 90 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlarida esa amaldagi axborot xizmatlari tegishli maqomga ega bo'lgan va shart-sharoitlari yaratilgan holda qayta tashkil etildi.

2019 yilda axborot xizmatlari sohasida jami 443 nafar mutaxassis faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning umumiy soni 1 200 nafardan ortiqni tashkil etmoqda. Ya'ni, davlat axborot siyosatini yuritishga mas'ul bo'lgan mutaxassislar soni qariyb 800 nafarga ko'paydi [11].

Biroq, tahlillarga ko'ra, 3 ta respublika tashkilotida (Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, «Aloqabank» ATB) axborot xizmati rahbari axborot siyosati masalalari bo'yicha tashkilot rahbarining maslahatchisi maqomiga tenglashtirilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining xulosalari asosida axborot xizmati rahbari lavozimiga rasman tasdiqlanib, faoliyat yuritib kelgan respublika darajasidagi 139 nafar matbuot kotibidan 45 nafarining ish natijalari yuqori, 57 nafariniki o'rta, 33 nafariniki qoniqarli, 4 nafarining faoliyati past darajada baholandi. Tuman va shaharlar hokimliklari kesimida 206 nafar matbuot kotibidan 14 nafarining (2021 yilning birinchi yarmida 10 nafar) faoliyati yuqori, 97 nafariniki (2021 yilning birinchi yarmida 83 nafar) o'rta, 75 nafariniki (2021 yilning birinchi yarmida 70 nafar) qoniqarli, 9 nafariniki (2021 yilning birinchi yarmida 38 nafar) esa past darajada, deb topilgan [12].

Yuqoridagilarni inobatga olib, davlat organlarining ochiqligini ta'minlashda axborot xizmatlarining faoliyatini baholash tizimini yo'lga qo'yish, bunda OAV va aholi bilan samarali muloqotni yo'lga qo'ymagan va faoliyati natijadorligi past natija ko'rsatgan axborot xizmatlarini tegishli javobgarlikka tortish, Shuningdek, yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan axborot xizmatlarini rag'batlantirib borish taklif etiladi.

Yuqoridagi kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining qo'shma qarori bilan quyidagilarni o'z ichiga oluvchi **«Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi axborotni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalar va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish tartibi»**ni tasdiqlash (Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazish) maqsadga muvofiq:

davlat organining kirishi mumkin bo'lgan xonalariga va joylariga joylashtirilishi lozim bo'lgan axborotlar ro'yxati va ularga qo'yiladigan (rasmiylashtirish, joylashtirish va texnik) talablar;

davlat organining kirishi mumkin bo'lgan xonalariga va joylariga axborotlarni joylashtirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma, uning vazifa va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari;

davlat organining kirishi mumkin bo'lgan xonalariga va joylariga qo'yiladigan talablar va ularga davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlarni joylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar;

davlat organining faoliyati to'g'risidagi axborotni yangilab borish tartibi va muddatlari, Shuningdek, ularni joylashtirish tartibi hamda muddatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

IV. Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish.

Davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot axborot-kutubxona va arxiv fondlari ham taqdim etilishi mumkin. «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq axborot-kutubxona fondi – tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui, axborot-kutubxona resursi esa moddiy obyektda matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash hamda foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot.

Axborot kutubxona tizimini axborot-kutubxona muassasalari tashkil etib, ular mustaqil muassasa yoxud korxona, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'ladi hamda ularga O'zbekiston Milliy kutubxonasi, axborot-kutubxona markazlari, axborot-resurs markazlari, organlarining kutubxonalari va boshqa kutubxonalar kiradi.

«Arxiv ishi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga asosan arxiv fondi – yuridik yoki jismoniy shaxslar faoliyati natijasida yaratilgan, tarixiy yoki mantiqiy jihatdan o'zaro aloqador arxiv hujjatlari majmui, arxiv hujjatlari esa fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ahamiyati bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, Shuningdek boshqa moddiy jismlardagi yozuvlardir.

Demak, davlat organlari tomonidan o'z faoliyati to'g'risidagi axborot (foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborotni istisno etgan holda) axborot-kutubxona va arxiv muassasalariga taqdim etiladi. Keyinchalik axborot-kutubxona va arxiv muassasalari axborotdan foydalanuvchilarning tanishib chiqishi uchun davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi.

Davlat organlari tomonidan taqdim etilgan axborotlarning doimiy ravishda jamlab, to'ldirib hamda saqlab boriladigan elektron nusxalari majmui (elektron bazasi) axborot-kutubxona va arxiv muassasalari tomonidan yuri-

tiladi. Elektron baza har kalendar yil hamda har bir davlat organi bo'yicha alohida-alohida turkumlashtirilgan holda joylashtiriladi.

Ta'kidlash lozimki, davlat organlari faoliyati axborot taqdim etishda amaliyotda eng samara bermayotgan usullardan biri aynan davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish usulidir. Ushbu usul davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni izlashni amalga oshirayotgan shaxslardan faollikni, o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni kutubxonalarga va arxiv muassasalariga borgan holda olishni talab etadi.

Bu esa, hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda fuqarolarga noqulayliklar tug'diradi. Shu jihatdan aytish joizki, ushbu usuldan faqat davlat organlari faoliyati bilan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirayotgan shaxslar foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilarni hamda axborotdan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish, shu jumladan, davlat organlarining faoliyati to'g'risida o'zlarini qiziqtirgan axborotlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ham (masofadan) olish imkoniyatini yaratishni hisobga olgan holda **«Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish tartibi»ni** nazarda tutuvchi idoraviy normativ-huquqiy hujjatni («O'zarxiv» agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi qo'shma qarori) qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

V. Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida axborotdan foydalanuvchilarning hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratish.

Axborotdan foydalanuvchilar davlat organlarining faoliyati haqida axborot olish uchun ularning ochiq tarzda o'tkaziladigan hay'at majlislarida ishtirok etishlari mumkin.

Davlat organlari o'z ichki idoraviy hujjatlari bilan axborotdan foydalanuvchilarning ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lishi tartibini belgilashi hamda ularning ochiq hay'at majlislarida ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratib berishi lozim.

Davlat organlari axborotdan foydalanuvchilarning tanishib chiqishi uchun binoning hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarida va (yoki) maxsus ajratilgan joylarida ochiq hay'at majlislarini o'tkazish rejalari, shu jumladan, majlislarning kun tartibi loyihalari, ular o'tkaziladigan sana, joy va vaqt hamda boshqa zarur axborotlar axborot stendlari va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan texnik vositalarga majlis o'tkazilishidan kamida uch kun oldin joylashtirishlari shart.

Axborotdan foydalanuvchilar tomonidan davlat organining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish uchun tegishli davlat organiga so'rov bilan murojaat qilinadi.

Biroq, yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlarga qaramasdan, axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish darajasi pastligicha qolmoqda. Bunga, davlat organlari axborot xizmatlari tomonidan o'tkaziladigan ochiq hay'at majlislari to'g'risida fuqarolarni barvaqt xabardor qilish, ularning ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar mavjudligini keng jamoatchilikka yetkazish borasidagi ishlar talab darajasida emasligi sabab bo'lmoqda.

Shuni inobatga olgan holda davlat organining axborot xizmati tomonidan ochiq hay'at majlislarini o'tkazish vaqti, unda ishtirok etish tartibi to'g'risida axborotdan foydalanuvchilarni barvaqt xabardor qilish, Shuningdek, **ochiq hay'at majlislarida har yarim yilda kamida bir marta** davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi **qonunchilik hujjatlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish** hamda ushbu muhokamalarda **jamoatchilik vakillari** va **OAV vakillari ishtirokini ta'minlash** maqsadga muvofiq.

VI. Axborotdan foydalanuvchilarning so'rovi asosida ularga davlat organlarining faoliyati to'g'risida og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etish.

Axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlari faoliyati haqida axborot taqdim etish haqida ushbu organlarga va (yoki) ularning mansabdor shaxslariga yo'llanadigan og'zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan elektron hujjat shaklidagi) talabi axborot olishga doir so'rov hisoblanadi [13].

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni olish uchun so'rovlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va qayta ishlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma (ro'yxat raqami 2769, 2016 yil 17 mart) tasdiqlangan bo'lishiga qaramasdan, davlat organlari faoliyatida axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlari bilan ishlash bo'yicha turlicha yondashuv saqlanib qolmoqda. Misol uchun, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan «Axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlari asosida og'zaki va yozma shaklda axborot taqdim etish tartibi» [14], Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan «Axborotdan foydalanuvchilarning Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovini qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti» [15] tasdiqlangan.

Bu esa, axborotdan foydalanuvchilarning so'rovini ko'rib chiqish va unga javob berish

bo‘yicha ishlashda huquqni qo‘llash amaliyotining turlicha shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari davlat organlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash usullarini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash hamda ushbu organlar faoliyati bo‘yicha keng jamoatchilikka axborot yetkazish maqsadida turli xil dasturlar, ko‘rsatuvlar, roliklar, eshittirishlar tayyorlash va ularni elektron ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, internet) orqali e’lon qilib borish kerak. Bunda ayniqsa, davlat organlari faoliyatining ochiqligi yuzasidan statistik ma’lumotlarni, shu jumladan, kelib tushgan so‘rovlar soni, ushbu organlar faoliyati ochiqligini ta’minlashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar xususidagi ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bu orqali axborotdan foydalanuvchilar davlat organlari faoliyati to‘g‘risida axborot olishi va ushbu organlarga axborot olishga doir so‘rov bilan murojaat etishi yuzasidan tushunchalarga ega bo‘lishlari mumkin.

Ikkinchi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash yuzasidan turli xil qo‘llanmalar, monografiyalar, ko‘rgazmali va tarqatma materiallar, statistik va tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, gazeta va jurnallarda doimiy materiallar e’lon qilish hamda davlat organlari faoliyati ochiqligining ta’minlanganlik darajasini shunday vositalar, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam yoritib borish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish darkor. Bu ham o‘z navbatida aholining ochiqlik instituti xususida ijobiy fikr va mulohazalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar, axborot oluvchilarga yaratib berilgan imkoniyatlar va bu boradagi qonunchilik xususida, Shuningdek, axborot oluvchilarning huquqlari hamda davlat organlarida o‘tkaziladigan ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish va ushbu organlarga so‘rov bilan murojaat qilish tartibi to‘g‘risida keng jamoatchilikka ma’lumot berishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini, shu jumladan, turli davra suhbatlarini tashkil etish lozim. Bunda ayniqsa, davlat organlari vakillari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va OAVning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish kutilgan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash usullari bilan bog‘liq aniq mexanizmlarning amaliyotga joriy etilishi natijasida axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlari faoliyati haqida qiziqishining ortishiga hamda pirovardida ushbu organlarga bo‘lgan ishonchning yanada kuchayishiga va mustahkamlanishiga erishiladi.

Yuqorida holatlar, *birinchidan,* soha va hudud rahbarlarining Davlat Rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati, qonun va qonun osti hujjatlari talablariga loqayd munosabatini, jumladan, davlat organlarida ochiq ma’lumotlar bilan ishlash uchun mas’ul bo‘g‘in hisoblanuvchi axborot xizmatlarining ijro mexanizmi aniq belgilanmaganligini, soha hamda hududlarda ichki axborot almashinuvini nazorat qilish va muvofiqlashtirishga muhtojligini, *ikkinchidan,* ayrim davlat organlari mansabdor shaxslarida ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlash madaniyatining yetarli shakllanmaganligini, *uchinchidan,* davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish jarayonlarini izchil olib borish maqsadida ularni raqamlashtirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://aoka.uz/uzb.

2. «POSTDA.UZ» веб-сайти // Электрон манба: http://postda.uz/#/uz/about.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://aoka.uz/uzb.

4. Электрон манба: https://darakchi.uz/uz/144691.

5. Чегара билмас мухбирлар ташкилотининг веб-сайти // Электрон манба: https://rsf.org/en/index.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://aoka.uz/uzb/news/1224.

7. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майдаги «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги ЎРҚ–369-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда.

8. «UZ» домени маъмурияти // Электрон манба: https://cctld.uz/stat/. (Мурожаат вақти: 01.08.2022).

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://aoka.uz/uzb.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 июндаги «Оммавий ахборот воситалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари ахборот хизматлари фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ–4366-сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.06.2019 й., 07/19/4366/3343-сон.

11. Электрон манба: https://darakchi.uz/uz/144691.

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://aoka.uz/uzb/news/1224.

13. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 5 майдаги «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги ЎРҚ–369-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда.

14. Ўрмон хўжалиги давлат қўмитасининг расмий веб сайти // Электрон манба: https://urmon.uz/uz/axborotdan-foyda/.

15. Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг расмий веб-сайти // Электрон манба: https://www.fvv.uz/uploads/docs/8bf8df8a31a0a4f8de07cc7825fdbaa2.pdf.

Radjapov A.X. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash usullari va ularni takomillashtirishning ayrim masalalari

Maqolada davlat organlari tomonidan faoliyatining ochiqligini ta'minlash jarayonlarida qo'llaniladigan usullar amaliy misollar asosida tahlil qilingan hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ochiq ma'lumotlar, rasmiy veb-sayt, rasmiy nashr, axborot xizmati, axborotning erkinligi, davlat organi

Раджапов А.Х. Способы обеспечения открытости деятельности государственных органов и некоторые вопросы их совершенствования

В статье на практических примерах проанализированы методы, используемые государственными органами в процессах обеспечения открытости своей деятельности, а также выдвинуты предложения направленные на их совершенствование.

Ключевые слова: открытые данные, официальный веб-сайт, официальная публикация, информационная служба, свобода информации, государственный орган

Radjapov A.X. Ways to ensure the openness of the activities of state bodies and some issues of their improvement

In the article, on practical examples, the methods used by state bodies in the processes of ensuring the openness of their activities are analyzed, and proposals are put forward aimed at improving them.

Key words: open data, official website, official publication, information service, freedom of information, government agency

Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi;
Muradullayev Abbosbek Abduraxmanovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI SOHASIDA AUTSORSING XIZMATLARINI TASHKIL ETISH AFZALLIKLARI

Kirish. Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitlarida tovarlar, ishlar, xizmatlar va kapital bozoridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy munosabatlarining xilma-xilligi va murakkabligi, ularning bozordagi beqaror sharoitlari va talab va taklifning keskin o'zgarishi, bir tomondan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, boshqa tomondan, buxgalteriya hisobi va nazorat faoliyatini tashkil etish va yuritishning yangi vositalarini izlash zarurligi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Biznes shaffofligining asosiy garovlaridan biri buxgalteriya hisobi va (moliyaviy) hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar buxgalteriya xizmatlari mijozlari bilan shartnoma asosida hamkorlik qiluvchi autsorsing kompaniyalari tomonidan yuritib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash funksiyalari bilan taqqoslaganda, korxonani boshqarish tizimining buxgalteriya funksiyasi deyarli muhim emas, ushbu kompaniyaning ichki harakatlarini maksimal darajada oshirishni talab qiladi. Bugungi kunda biznes jarayonlarini boshqarish tizimining buxgalteriya hisobi va nazorat funksiyalarini buxgalteriya jarayonini masofadan boshqarish tarmog'i orqali amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish tashkilotlari tomonidan buxgalteriya xizmati funksiyalarini masofadan turib buxgalteriya hisobi va nazorat xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalarga topshirish, xaridor uchun ilmiy asoslangan va iqtisodiy jihatdan samarali usullar (buxgalteriya hisobi usullari va boshqaruv usullari). Korxonalarining buxgalteriya xizmatlari faoliyatini osonlashtiradigan buxgalteriya hisobi va nazoratini autsorsingni faollashtirish uchun buxgalteriya hisobini masofaviy autsorsing asosida yuritishning ilmiy asoslangan nazaraiy-uslubiy ko'rsatmalarini ishlab chiqish, ular uchun zaruratga aylangan.

Korxonalarning iqtisodiy hayoti faktlarini tezkor ro'yxatga olish, baholash, Shuningdek ishonchli va shaffof hisobot tayyorlash uchun ularni qayta ishlash muammolarining mavjudligi tadqiqot yo'nalishini, dissertatsiya mavzusini tanlashni, materialni taqdim etish tuzilishi va mantig'i, buxgalteriya hisobi va nazorat tizimida yuzaga kelgan muammolar bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqish bosh maqsadimizdir. Masofaviy autsorsing asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish borasida keng qamrovli nazariy va uslubiy tadqiqotlarning mavjud emasligi tadqiqot mavzusini dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Umuman olganda, jahon tajribasi Shuni ko'rsatadiki, autsorsing xizmatlarining 3 turi keng tarqalgan.

N.N.Markova quyidagi 3 turini izohlab o'tgan:

- ishlab chiqarish autsorsingi ishlab chiqarish jarayonlarining bir qismini yoki butun ishlab chiqarish siklini uchinchi tomon kompaniyasiga topshirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, uning bo'linmalarining bir qismini boshqa kompaniyalarga sotish va keyinchalik ular bilan autsorsing doirasida o'zaro hamkorlik qilish mumkin;

- IT-autsorsing - bu axborot tizimlarini ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga o'tkazish (masalan, texnik yordam: korporativ pochta tizimini, veb-serverni va veb-saytni qo'llab-quvvatlash va texnik xizmat ko'rsatish; hosting; axborotni himoya qilish; kompyuter tarmoqlarini boshqarish; ishlab chiqish, joriy etish va keyinchalik texnik xizmat ko'rsatish);

- biznes-jarayonlarning autsorsingi kompaniya uchun asosiy, biznes-generator bo'lmagan ma'lum biznes jarayonlarini uchinchi tomon tashkilotiga o'tkazishni o'z ichiga oladi (masalan: reklama; buxgalteriya hisobi; xodimlarni boshqarish; logistika; transport; ofisni tozalash; xavfsizlik) [1].

Bizning tadqiqotlarimiz esa, autsorsing turlarining 3 turiga mansub bo'lib, biznes jarayonlarda korxonalar buxgalteriyasini

autsorsing xizmatlari asosida olib borishni takomillashtirishdir.

N.N.Markovaning ta'rificha, "Autsorsing" atamasi (inglizcha – "Autsorsing" so'zidan olingan) boshqalarning resurslaridan foydalanish deb tarjima qilingan. Boshqacha aytganda, autsorsing - bu asosiy bo'lmagan funksiyalarni shartnoma asosida muayyan sohaga ixtisoslashgan, tegishli tajriba, bilim va texnik vositalarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarga o'tkazishdir [2].

Autsorsing (ingliz tilidan outsourcing: (outer-source-using) tashqi manbadan va/yoki resursdan foydalanish) - tashkilot tomonidan sanoat tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turlari yoki funksiyalarini shartnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshqa kompaniyaga o'tkazish. Bir martalik, epizodik yoki tasodifiy bo'lgan va boshi va oxiri bilan cheklangan xizmatlar va qo'llab-quvvatlashdan farqli o'laroq, autsorsing odatda uzoq muddatli shartnoma asosida alohida tizimlar va infratuzilmalarning uzluksiz ishlashini professional qo'llab-quvvatlash funksiyalariga o'tkaziladi.

Autsorsing umuman korxona samaradorligini oshirish va bo'shatilgan tashkiliy, moliyaviy va inson resurslaridan yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish yoki ko'proq e'tibor talab qilmaydigan harakatlarni jamlash uchun foydalanish imkonini beradi [3].

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish" nomli 11-moddasida "buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklash" [4], - deb belgilab qo'yilgan, unga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga, ya'ni ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan tashkilotlar tomonidan buxgalteriya autsorsing xizmatlarini ko'rsatishi ta'kidlab o'tilgan.

O.V.Nikolayevaning ta'rif berishicha, "Buxgalteriya hisobi autsorsingi - bu biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun tashkilotning buxgalteriya hisobi funksiyalarini uchinchi tomon mutaxassislariga o'tkazish. Ushbu turdagi autsorsing tashqi buxgalterni jalb qilishni anglatmaydi, u doimiy funksiyalarning o'tishiga xosdir, tashqi mutaxassisni jalb qilish esa, faqat epizodik yoki bir martalik deb nomlanishi mumkin" [5].

Buxgalteriya hisobi autsorsingi - korxonada buxgalteriya hisobi va hisobot berish funksiyalarini buxgalteriya hisobidan ta'minlash variantlaridan biri bo'lib, uning uchun korxona rahbari to'liq javobgar bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektda buxgalteriya hisobi yuritilishini ta'minlash va soliq xizmati va budjetdan tashqari jamg'armalarga zarur hisobotlarni taqdim etish uchun ixtisoslashgan kompaniya qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda buxgalteriya hisobida autsorsing xizmatlarini tashkil etish, uning yuritilishi autsorsing kompaniyalariga yuklash va ular bilan doimiy iqtisodiy munosabatlarni uzviy davomiyligini saqlash, shu orqali ma'muriy xarajatlarni qisqartirib borish ilmiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, solishtirma va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvida autsorsing xizmatlaridan foydalanish kengayib bormoqda, xususan ularning buxgalteriyasini yuritishda autsorsing xizmatlaridan keng foydalanib borishmoqda.

Jahon iqtisodiyotida autsorsingga asoslangan iqtisodiy tizimlar eng muhim o'rinni egallaydi. Bu tizimlar sinfiga rivojlangan mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar va integratsiyalashgan biznes guruhlarning sanoat bazasini tashkil etuvchi zamonaviy innovatsion sanoat majmualari kiradi. Axborot biznes jarayonlarining autsorsingi va elektron tijorat sohasida global alyanslarning yaratilishi iqtisodiyot va umuman jamiyatda ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarda tub o'zgarishlarga olib keldi. Innovatsiyalar uchun autsorsing ishlab chiqish vaqtlarini sezilarli darajada qisqartiradi, aksariyat yangi mahsulotlarning hayot aylanishini qisqartiradi. Buxgalteriya hisobi faoliyatini autsorsing qilish global tarqatish tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, autsorsing amaliyoti yanada chuqurroq o'rganishni talab etib, uni tashkil etish natijalari, qator ishlab chiqarish jarayonlarini korxona va alohida davlatlar chegaralaridan tashqariga o'tkazish dunyoning butun mintaqalarining iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini o'zgartirdi.

Buxgalteriya autsorsing xizmatlari korxonaning barcha sohalarini, shu jumladan asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olib,

buxgalteriya autsorsing jarayoniga jalb qilingan korxona uchun uning asosiy vakolatlari o'zgarishsiz qoldi va yangi bilimlarni, intellektual kapitalni yaratish qobiliyati paydo bo'ldi. Mutaxassislarning tajribasi va malakasi, mavjud bilim va ko'nikmalar tizimi, noyob texnika va texnologiyalar ichki biznes jarayonlarining yuqori o'ziga xosligi uchun zamin yaratadi, muvaffaqiyat garovi va uzoq muddatli raqobatbardoshlik omili hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy subektlar soni ko'payib, ular bozorga o'z mahsulot, ish va xizmatlari bilan chiqib bormoqdalar, ularni ichki boshqaruv tizimi va uchinchi shaxslar oldida turgan majburiyatlarini bajarishlari, ya'ni ichki va tashqi buxgalteriya hisob tizimini yuritib borishlari asoslidir. Shu ma'noda, korxonalarning asosiy axborot va ma'lumotlar bazasi hisoblangan buxgalteriya hisobi tizimini uzluksiz va samarali olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda, ushbu tizimni qay holatda yuritishlari ularning o'zlariga bog'liq bo'lib, tizim va tizim osti jarayonlarni to'liq yoritib berishlari bu bozor talablaridan biridir. Shunday ekan, buxgalteriya tizimini aniq, to'liq va operativ olib borish hamda barcha jarayonlarni aks ettirishi darkor. Lekin, tizimni ishonchli yurituvchi mutaxassislar yetishmovchiligi, ularda inson omilining kuchayib borishi oqibatida ishonchsizlikning ortib borishi kabi muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri kelmoqda.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan qator muammolarni yechimlari sifatida korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimini yuritilishini autsorsing kompaniyalariga ishonib topshirish maqsadga muvofiqligini keltirib o'tmoqchimiz.

Umuman olganda, buxgalteriya autsorsing xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalarda yetuk mutaxassislar jamoasi shakllantirilgan bo'lib, ular o'z majburiyatlarini to'liq tushungan holda ish va faoliyat olib boradilar. Shunga ko'ra, biz tomonimizdan ushbu buxgalteriya autsorsing xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklarini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'lib, shu maqsadda quyidagi 1-jadvalda ular ko'rib chiqildi.

1-jadval

Buxgalteriya autsorsing xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari

№	Jarayonlar	Afzalliklari
1.	Tashkiliy	Asosiy biznesga e'tibor qaratish, ikkilamchi funksiyalarni tashqi autsorsingga topshirish imkoniyati. Autsorsingni jalb qilish orqali ichki resurslarni bo'shatish, xodimlarni asosiy biznes jarayonlariga jalb etish va korxona rahbariyatini asosiy bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanmaslik imkoniyati. Asosiy jarayonlarda unumdorlikni oshirish. Mahsulot ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish va shu orqali qo'shimcha sotishni ta'minlash.
2.	Texnik	Xizmatlar sifati darajasini oshirish yoki narxni pasaytirish bilan birga sifatni saqlab qolish. Autsorsing kompaniyasi odatda bajarilgan ishlarning sifatiga javobgarligi. Autsorsing xizmatlaridan foydalanish ishdagi nuqsonlar xavfini kamaytirishga imkon berishi. Har bir alohida vazifani hal qilish ushbu sohadagi mutaxassisga ishonib topshirilishi. Biznesning har bir jihatini eng yuqori darajada ta'minlashni kafolatlashi. Bir jarayonda autsorsing kompaniyasining ixtisoslashuvi yuqori sifatni ta'minlashi. Autsorsing kompaniyasi xodimlarining malaka darajasi ularning daromadlariga, jalb qilingan mijozlar soniga bevosita ta'sir qilishi va Shuning uchun autsorsing xizmatlari sifatlari va ishning yuqori darajasini kafolatlashi.

3.	Iqtisodiy	Tashkilotda asosiy bo'lmagan jarayonlarni ta'minlashda mavjud bo'lmagan ilg'or texnologiyalar va boshqa yetuk mutaxassislar tajribasi, yuqori darajadagi yechimlarga tezkor kirishishi. Autsorsing xizmatlariga ixtisoslashgan kompaniyalar boshqa firmalardan oldin yangi ishlanmalar bilan tanish bo'lishi, doimiy o'z texnologiyalari va xodimlarini rivojlantirishga sarmoyalar kiritib borishlari. Buxgalteriya autsorsing firmalari biznes-jarayonlarni boshqarishning eng so'nggi jahon innovatsion usullarini tadqiq qilishlari va amalga oshirishlari, shu orqali bozor raqobatiga mos kelishidir. Buxgalteriya autsorserlari tomonidan biznesning ma'lum bir sohasida to'plangan ijobiy tajribalari mijozlarning mavjud muammolarini hal qilishga imkon berishi va yechimlarni hal etish orqali mijozning ishlab chiqarish narxini pasayishiga olib kelishi.
4.	Muomalalarni o'tkazish	Ma'muriy xarajatlarni keskin kamayishi. Buxgalteriya autsorserlari tomonidan ma'lum funksiyalarni bajarish mijoz kompaniyasida bajarishdan ko'ra arzonroq bo'lishi. Yuqori ixtisoslashgan autsorsing firma xizmatlarining arzon narxlarda bo'lishi. Mijoz korxona quyidagilarni tejash imkoniyatiga ega bo'lishi: - operatsion xarajatlarning va xodimlar sonining qisqarishi yoki ularni doimiy shtatda ushlab turishni qisqarishi. - o'tkaziladigan biznes-jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot va ularni keyingi texnik qo'llab-quvvatlash xarajatlarining qisqarishi. - ixtisoslashtirilgan uskunalar uchun xarajatlarni kamaytirish; - bino, ofis va ofis jihozlarini saqlash xarajatlarini kamayishi.
5.	Personalni boshqarish	Xodimlarni qisqartirish orqali ijtimoiy soliq va sug'urta to'lovlarini qisqarishi va soliq to'lovlarini optimallashtirilishi.
6.	Risklarni boshqarish	Moliyaviy chetga chiqish xavfi va risklarni minimallashtirish. Resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash qisqarishi. Yuqoridagi xarajatlarni qisqartirish orqali ortgan mablag'larni kapitallashtirish. Investorlarni korxonaga qiziqishini oshirish imkoniyati.
7.	Boshqarish	Ma'muriy-boshqaruv xarajatlarining qisqarishi. Kichik va o'rta biznes korxonalari boshqaruv tizimini optimallashuvi. Mulk egalari yoki ta'sischilarning o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklarni oldi olinishi. Boshqaruvda inson omilini qayta kiritilmasligi. Uzundan uzoq va saralanmagan axborot va ma'lumotlar hajmining kamayishi. Boshqaruv qarorlarini chiqarishda aniq, to'g'ri va operativ ma'lumotlarni olinishi. Ta'sischilarni "Qora buxgalteriya" yuritilishiga yo'l qo'ya olmasligi.
8.	Biznesni boshlash va yuritish	Boshlang'ich loyihalarni amalga kiritish osonligi. Yangi tashkil etilgan korxona ishchi xodimlari tarkibini va ular orasida yetuk mutaxassislar mavjudligini aniqlash mumkinligi. Keyingi harakatlarda ishchi va xodimlarni ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan ishga taklif etish imkoniyati. Biznesni yangi boshlagan chog'larida xarajatlarni qisqartirilishi natijasida bo'sh mablag'larni paydo bo'lishi. Vazifa va funksiyalar taqsimotida aynan buxgalterlik vazifa va funksiyalarining mavjud emasligi. Ta'sischilar yoki ijrochi boshqaruv organi xodimlarini o'zboshimchalik bilan va g'ayriqonuniy o'zaro kelishgan holda korxona mablag'larini o'zlashtira olmasliklari. Buxgalteriya hisobi tizimida tez-tez uzilishlar yoki izdan chiqishlar kuzatilmasligi.

Xulosa va takliflar

Fikrimiz so‘ngida umumiy xulosalarni qiladigan bo‘lsak, nazariy va amaliy jihatdan buxgalteriya autsorsing firmasi bank to‘lovlarini amalga oshirish va kontragentlarga birlamchi hujjatlarni berish, Shuningdek, ish haqi fondigacha bo‘lgan korxonaning buxgalteriya hisobining barcha funksiyalarini to‘liq bajarishi mumkin. Biroq, bu maksimal samaradorlikka erishish uchun tashqi kompaniyalar va o‘z xodimlari yordamida yetarlicha murakkab va moslashuvchan biznes jarayonlarini qurish imkoniyatini istisno etmaydi.

Buxgalteriya autsorsingini mustaqil buxgalter bilan aralashtirib yuborish mumkin emas, autsorsing asosan muntazam funksiyalarni topshirishga taalluqlidir. Shu bilan birga, mustaqil mutaxassisni jalb qilish umumiy hajmdagi ishlarning ma’lum bir ijrochiga o‘tkazilishi sifatida ko‘rib chiqilishi zarur.

Endi buxgalteriya hisobini autsorsing qilishning kamchiliklariga keladigan bo‘lsa, ulardan biri mijozlarning moliyaviy ma’lumotlarining xavfsizligi, moliyaviy va soliq hisobotlarini to‘g‘ri yuritish va nazorat qiluvchi organlariga taqdim etishdan qo‘rqishidir. Shunday ekan, ko‘plab autsorsing kompaniyalari tegishli vakolatlarga ega bo‘lsalar ham va mijoz oldida ma’lumotlarning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgar bo‘lsalar ham, hisobotning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun mijozning buxgalteriya bo‘limi javobgardir. Natijada, aksariyat xo‘jalik yurituvchi subyektlar bunday autsorsing xizmatlarini o‘z zimmalariga olishni istamaydilar, balki buxgalteriya hisobini o‘zlari yuritib borishlarini afzalroq deb biladilar. Natijada, har qanday autsorsing kompaniyasining muhim aktivi uning bozordagi obro‘si va o‘rnatilgan mijozlarning fikr-mulohazalarini o‘zgarishiga olib keladi.

Shu o‘rinda buxgalteriya autsorsing afzalliklarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lib, umuman olganda, autsorsingning afzalliklari mijoz uchun ham, autsorsing kompaniyasi uchun ham hisobga olinishi kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, zamonaviy bozor sharoitida autsorsingning kompaniya faoliyatiga ta’sirini baholashning eng muhim yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Shuning uchun, zamonaviy biznes sharoitlarida autsorsing xizmatlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va motivlari ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [2] Маркова Н.Н. Тенденции развития аутсорсинговых компаний в Калужской области//Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. №4, 2014

3. www.ru.wikipedia.org/wiki/Аутсорсинг

4. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни. – Т.: 2016 йил 13 апрель. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 15-сон, 142-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2020 й., 03/20/660/1682-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.10.2021 й., 03/21/726/1001-сон

5. Николаева О.В. Особенности организации бухгалтерского учета в аутсорсинговой фирме// Вопросы науки и образования. №19 (31). 2018. - С.18

6. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни. – Т.: 2016 йил 13 апрель. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 15-сон, 142-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2020 й., 03/20/660/1682-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.10.2021 й., 03/21/726/1001-сон.

7. Варламова В.В. Структурированный рабочий план счетов аутсорсинговой деятельности//Управленческий учет. 2008. №8. С.55-61.

8. Грищенко А.В. Бухгалтерский аутсорсинг как способ оптимизации бизнес-процессов // Справочник экономиста. 2008. №7. С. 118-125.

9. Ермакова Т.М. Аутсорсинг в бухгалтерском учете//Бухгалтерский учет. 2007. №7. С.55-57.;

10. Иванова М.М. Аутсорсинг, аутстаффинг, лизинг персонала: правовые аспекты // Международный бухгалтерский учет. 2010. №17. С.38-43.

11. Николаева О.В. Особенности организации бухгалтерского учета в аутсорсинговой фирме//Вопросы науки и образования. №19 (31). 2018. - С.18.

12. Орлова Е.В. Передача бухгалтерии на аутсорсинг: документальное оформление и налогообложение // Налоговый вестник. 2008. №11. С. 114-126.

13. Панков В.В., Наумова С.А. Аутсорсинг в бухгалтерском учете// Аудит и финансовый анализ. 2009. №1. С. 1-21.

14. Султангужиева А.Ж. Особенности формирования и развития дистанционного аутсорсинга в сфере оказания услуг бухгалтерского учета // Предпринимательство. 2014. №6. С. 134-138.

Islomov A.B., Muradullayev A.A. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida autsorsing xizmatlarini tashkil etish afzalliklari

Maqolada soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish tartiblarida autsorsing xizmatlarini tashkil etish afzalliklari va muammolari, buxgalteriya autsorsing xizmatlarini nazariy-uslubiy jihatlari, ushbu xizmatlarni samarali tashkil etish orqali buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanish natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobida autsorsing xizmatlari, autsorsing turlari, autsorsing xizmatlarining afzalliklari, buxgalteriya autsorsing xizmatlarining xususiyatlari.

Исломов А.Б., Мурадуллаев А.А. Преимущества аутсорсинга бухгалтерских услуг в Узбекистане

В статье освещены преимущества и проблемы организации аутсорсинговых услуг в упрощенном порядке бухгалтерского учета, теоретические и методологические аспекты бухгалтерского аутсорсинга услуг, результаты научных исследований по совершенствованию бухгалтерского учета за счет эффективной организации этих услуг.

Ключевые слова: аутсорсинговые услуги в бухгалтерском учете, виды аутсорсинга, преимущества аутсорсинговых услуг, особенности бухгалтерского аутсорсинга.

Islomov A.B., Muradullayev A.A. Advantages of outsourcing accounting services in Uzbekistan

The article highlights the advantages and problems of organizing outsourcing services in simplified accounting procedures, the theoretical and methodological aspects of accounting outsourcing services, the results of scientific research on improving accounting through the effective organization of these services.

Key words: outsourcing services in accounting, types of outsourcing, advantages of outsourcing services, features of accounting outsourcing services.

Kuldashev Ikrombek Xamidullayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti boshlig‘ining o‘rinbosari,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;
Abdullayev Laziz Olimovich,
“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish,
xavflar va risklar bo‘yicha ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi

SANOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDA XAVF, XAVF-XATAR, VA XAVFSIZLIK TUSHUNCHALARINING TAHLILI VA DOLZARBLIGI

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston Respublikasida xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 57-sonli “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi va 213-sonli “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, 271-sonli “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi va 291-sonli “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish «Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 158-sonli “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavflilik darajasini tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i kabi muhim me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida xavf va xavfsizlik, Shuningdek xavf-xatar (risk), tushunchalariga alohida e’tibor berildi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi me’yoriy-huquqiy hujjatlari xavfli ishlab chiqarish obyektlardagi risklarni baholash va uni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Chunonchi, ushbu me’yoriy hujjatlar mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi sohalaridagi munosabatlarni tartibga solish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavf-xatar tahlilining uslubiy tamoyillari, atamalar va tushunchalar, tahlil tartibi va natijalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan umumiy talablar, Shuningdek xavf-xatar va avariyalar xavfini tahlil qilishning asosiy usullarini o‘z ichiga oladi. «Xavf nima?» va «Xavf-xatar nima?» savollari bir qarashda oddiy ko‘rinadi. Kundalik hayotda ko‘pchilik insonlar uchun ular qisman mos keladigan ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar - sinonimlar kabi ko‘rinadi va ko‘pchilik ma’no mazmuni haqida o‘ylamaydilar[10]. Garchi ushbu maqolamizda «xavf-xatar» tushunchasiga ta’riflar ko‘p bo‘lsa-da, xodimlar xavf-xatarning ma’nosini har doim ham tushunavermaydilar. Shuning uchun ham xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavf-xatarni baholash va tahlil qilish mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Har qanday xavfli ishlab chiqarish obyektining xavfsizligini ta’minlash uchun obyektga tahdid soladigan xavflarni aniqlash va unga bardosh bera oladigan sharoitlarni yaratish zarur. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavflilik darajasini tahlil qilish jarayonida aniqlashga ehtiyoji mavjud ikkita asosiy, “xavf” va “xavfsizlik” tushunchasiga duch kelamiz. Ushbu tushunchalarga so‘nggi o‘n yilliklarda mutaxassislar o‘rtasida qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan yana bir, “xavf-xatar” tushunchasini qo‘shish muhimdir.

Vikipediyada «xavf» va «risk» so‘zlarining ma’nolari sezilarli farqlarga ega [10]. Jumladan, xavf – xotirjamlik, normal faoliyat yoki mavjudlik uchun tahdid (tahdidlar) keltirib chiqaradigan potensial zarar manbai. risk – zarar yetkazish ehtimoli darajasi va uning tibbiy, texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati (og‘irligi) darajasini jamlagan holda tasodifiy zararning nomi va o‘lchovidir.

Ta’riflarni o‘qib chiqqach, biz farqlarga amin bo‘ldik, ammo bu farqlarni qanday tuShunish mumkin?

Ehtimol, bu so‘zlarning xorijiy ekvivalentlari va taqqoslashning vizualizatsiyasi bizga yordam berar?

«Xavf» so‘zi inglizcha «hazard» ekvivalentiga ega va xavf-xatar so‘zi «risk» deb yoziladi.

Xavf (hazard) insonga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan holatdir. Masalan, xavfli ishlab chiqarish obyektida sodir bo‘lgan yong‘indan xavfsiz masofada bo‘lish. Bu yerda xodim yong‘indan himoyalangan, chunki xavfsiz joyda.

Xavf - xatar (risk) bu zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xavfning ehtimoli, ya’ni xavfni xis qilib turgan holatda xavfli ishlab chiqarish obyektidagi yong‘inga yaqinlashish, bu yerda xodim himoyalanmagan. Yong‘in uning sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin.

Xavf muammolariga bag‘ishlangan maxsus adabiyotlarda qoida tariqasida «xavf» tushunchasi umuman ta’riflanmagan [6]. Faqat-

gina «Fuqaro muhofazasi» izohli – terminologik lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: «Xavf – shaxsga, jamiyatga va davlatga mulkiy (moddiy), jismoniy yoki ma'naviy (ruhiy) zarar yetkazish mumkinligidir.» «Xavf» «chaqiriq», «xavf-xatar» va «tahdid» tushunchalari bilan bir qatorda milliy xavfsizlikning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ularning iyerarxiyasida xavf-xatar va tahdid o'rtasidagi o'rinni egallaydi [7].

«Xavfsizlik» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holatidir» [7].

Xavfsizlik insonning oziq-ovqat, suv, kiyim-kechak, boshpana, ma'lumotga bo'lgan ehtiyoji kabi muhim ehtiyojdir. Ushbu umumiy ilmiy toifa ichki va tashqi siyosat, mudofaa, iqtisod, ekologiya, ijtimoiy siyosat, informatika va texnologiya sohalarida ma'lum bir dunyoning turli obyektlari hayotiyligi hamda barqarorligini ifodalashning integral shakli sifatida chiqadi [7]. Shunday qilib, xavfsizlik har qanday obyektni har qanday xavfdan himoya qilish holatidir.

Biroq, «xavf-xatar» tushunchasi eng ko'p savol va bahslarni keltirib chiqaradi. Lug'atda «xavf-xatar» tushunchasi va uning hosilalariga ta'riflar beradi [7]. Quyidagi ba'zilarini keltiramiz:

«Xavf-xatar - bu amalga oshirilgan harakatlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan biron bir nosozlikning mumkin bo'lgan xavfi, Shuningdek, istalgan natijaga erishish bunday xavf bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir»;

«Individual xavf-xatar - muayyan xavflarni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan ma'lum turdagi zararli ta'sirlarning yuzaga kelish ehtimoli yoki sodir bo'lish darajasi»;

«Qabul qilish mumkin bo'lgan xavf-xatar - iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar nuqtai nazaridan oqlangan xavf-xatar darajasi»;

«Tabiiy xavf - xatar tabiiy jarayon yoki hodisaning mumkin bo'lgan namoyon bo'lishidan kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy zarar».

Mervi Murtonenning Ish joyida xavf-xatarni baholash amaliy darsligida xavf – xatar quyidagicha ta'riflangan: Xavf-xatar - bu xavf tufayli kelib chiqadigan zarar ehtimoli va bu zararning mumkin bo'lgan o'lchami. Xavf-xatar - bu xavfning o'lchovidir [8].

«Xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarish asoslari» darsligida quyidagicha ta'rif berilgan: "Favqulodda vaziyatlar xavf-xatari - bu bir yildagi favqulodda vaziyatlar soni (yoki ehtimolligi) va favqulodda vaziyatlarning kutilayotgan oqibatlarining ko'paytmasiga teng xavfning miqdoriy o'lchovidir." [10].

V.A. Akimov va hammualliflar "tahdid va qaltislik xavfi darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tizim va uning tarkibiy qismlari uchun xavf-xatar darajasini aks ettiradi"- deb hisoblaydilar. Bu xavf toifasi bo'lib, birinchi navbatda mumkin bo'lgan xavf va uni amalga oshirish oqibatlarining miqdoriy ko'rinishida ifodalangan o'lchovi sifatida tuShunilib, ikkala tushunchani - xavf va qaltislikni - bir butunga birlashtiradi. Ularning fikriga ko'ra, ratsionalistik yondashuv doirasida xavf-xatar xavfli yoki noqulay hodisaning yuzaga kelish mumkinligi (ehtimolligi) va/yoki bunday hodisaning (zarar) miqdoriy o'lchovi sifatida qaraladi. Bunday holda, xavf-xatarning o'zi qayd etilgan hodisaning ehtimolini zararga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi [10].

Texnika fanlari doktori N.N. Brushlinskiyning ta'kidlashicha, xavf-xatar muayyan xavfni amalga oshirish imkoniyatining o'lchovidir. «Xavf-xatar» tushunchasi deyarli har doim xavfni ro'yobga chiqarish natijasida har qanday yo'qotishlar (mulk, mablag', sog'lik, hayot, obro'-e'tibor va boshqalar) yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lganligi sababli, aksariyat hollarda bu yo'qotishlar hajmi miqdoriy bo'lishi, garchi ayrim holatlarda buni amalga oshirish mumkin bo'lmasa-da, ularni ba'zi birliklarda o'lchash mumkin[11].

Xavf - xatarlarni o'lchash mumkin bo'lmagan sifat va o'lchash mumkin bo'lgan miqdorga bo'lish mumkin. «Xavf-xatar bu xavfni amalga oshirish imkoniyatining miqdoriy xususiyatidir» [12].

Har bir xavf uni turli tomonlardan baholaydigan turli xil xavf-xatarlar bilan tavsiflanishi mumkin. Masalan, bir tomondan, xavfni amalga oshirish chastotasi, ikkinchi tomondan, uni amalga oshirish oqibatlarining xarakteri va o'lchami baholanadi.

Har bir xavf-xatar ko'p jihatlar va omillarga qarab o'z qiymatini o'zgartirishi mumkin, ya'ni u ma'lum dinamikaga bo'ysunadi.

Shu munosabat bilan, xavf-xatar darajasiga ta'sir qiluvchi individual omillarning rolini aniqlash orqali ularga maqsadli ta'sir ko'rsatishga harakat qilish mumkin, ya'ni xavf-xatarni boshqarish. Binobarin, har qanday himoya obyektiga (tizimiga) tahdid soluvchi xavfni obyektga salbiy ta'sirini kuchsizlantirish orqali ma'lum darajada boshqarish mumkin [13].

Biroq, ma'lum bir himoya obyekti bilan bog'liq barcha xavf-xatarlarni nolga tushirishning umuman olganda imkonsizligi aniqdir. Bu xavf va xavf-xatarlar haqidagi ilmiy g'oyalarning doimiy to'liq emasligi va nisbiyligi, ham jamiyatning muhandis-texnik va iqtisodiy imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Faqatgina xavf-xatar darajasini jamiyat qabul qilishga majbur bo'ladigan darajaga tushirishga harakat qilish mumkin (ya'ni, psixologik jihatdan uni qabul qilishga tayyor bo'ladi). Bundan kelib chiqadiki, har qanday tizimning (himoya obyektining) mutlaq xavfsizligiga (hech qanday xavfning yo'qligi) umuman jihatdan bu dunyoda erishib bo'lmaydi. Biroq, xavf-xatarlarni boshqarish orqali biz

ma'lum bir himoya obyekti uchun xavf darajasini pasaytirishimiz va bu orqali uning xavfsizligini zamonaviy sharoitlarda mumkin bo'lgan eng yuqori darajaga oshirishimiz mumkin. Faqat shu ma'noda himoya qilish obyektining unga tahdid soluvchi xavflardan «himoya holati»ni talqin qilish mumkin [14].

Xavf va xavfsizlik, Shuningdek xavf-xatar tushunchalari sanoat va boshqa sohalarda faoliyat olib borayotgan aksariyat ishchi-xodimlarning anglashlari uchun zarur tushunchalar hisoblandi. Quyida xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi xavf va xavf – xatarlar bo'yicha fikr yuritamiz:

Sanoat xavfsizligi bu shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariyalar va noxush hodisalar hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holati (O'zbekiston Respublikasi «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasi) [5].

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida avariya xavfi hamda uni baholash va zarurdir. Jumladan, avariya xavfi, xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya tufayli insonlarga, mulkka va (yoki) atrof-muhitga zarar yetishi ehtimoli va xavfi bo'lib, xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi avariya xavflari inshootlar va (yoki) texnika qurilmalarining buzilishi, portlash va (yoki) xavfli moddalar ajralib chiqishi va oqibatda insonga, mulkka va (yoki) atrof-muhitga zarar yetishi bilan bog'liqdir. Avariya xavfini baholash esa, avariya xavflarining sodir bo'lish ehtimoli (yoki sodir bo'lish chastotasi)ni va ularning oqibatlarining inson sog'lig'i, mulk va yoki atrof-muhit uchun og'irlik darajasini aniqlashda bajariladigan jarayon bo'lib, baholash avariya xavflarining sodir bo'lish ehtimoli (yoki sodir bo'lish chastotasi)ni, oqibatlarini va ularning birikuvlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Avariya xavfini baholash orqali avariya xavfining ko'lami va zarar yetkazish hududi kabilarni aniqlanishiga va qabul qilsa bo'ladigan avariya xavfi qabul qilinishiga erishiladi. Ushbu avariya xavfi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan asoslangan va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadagi xavf hisoblanib, agar obyektdan foydalanish natijasida olinadigan foyda uchun jamiyat bunday tavakkalchilikni qabul qilishga tayyor bo'lsa, maqbul hisoblanadi [5].

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida xavflilik darajasini tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarda xavf-xatar darajasi, sodir bo'lish darajasi (yoki ehtimollik), bu orqali sodir bo'layotgan xavfli voqealar, hamda bu xavfli voqealarning oqibatlari (natijalari) – deb ta'riflangan. Xavf-xatar saviyasi esa, odamlar va mol-mulk uchun ularning atrof-muhitidagi xavfning kattaligini belgilovchi ko'rsatkich sifatida keltirib o'tilgan[5].

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida faoliyat olib borayotgan sanoat xavfsizligi sohasining mas'ul mutaxassislari xavf va xavf-xatarlar tushunchalarining mohiyatini to'liq anglaganlaridan keyin xavf tahlilini o'tkazish, ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, xavf-xatarlarni identifikatsiyalash, xavfni baholash va xavfni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan ishlarni amalga oshirishlari zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, ishlarni rejalashtirish bosqichida tahlil qilinadigan xavfli ishlab chiqarish obyektini belgilab olish va uning umumiy tavsifini berish, xavf tahlilini o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan sabablar va muammolarni tavsiflash, xavf tahlilini o'tkazish uchun ijrochilar guruhini belgilash, xavfli ishlab chiqarish obyekti to'g'risidagi ma'lumotlar manbalarini belgilash va tavsiflash, xavf tahlilining chuqur, to'liq va mukammal o'tkazilishini belgilovchi dastlabki ma'lumotlar, moliyaviy resurslar va boshqa holatlarning cheklanganligini ko'rsatish, o'tkaziladigan xavf tahlilining maqsad va vazifalarini aniq belgilash, xavf tahlilida qo'llaniladigan usullarni asoslash, maqbul xavf mezonlarini belgilash kabilar bajarilishi lozim[5].

Xavf-xatarlarni identifikatsiyalash bosqichining asosiy vazifalariga barcha xavf manbalarini, ularning sodir bo'lish yo'llari (ssenariylari)ni aniqlash va puxta tavsiflash kirib, bu tahlilning muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda aniqlanmagan xavf-xatarlar keyinchalik o'rganilmaydi va nazardan chetda qoladi[5].

Xavfni baholashda hisoblash-tahlil qilish usulini qo'llash bilan O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy hujjatlariga zid bo'lmagan, barcha rasmiy hujjatlardagi bor hisoblash usullaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Barcha ko'ngilsiz hodisalar va ularning omillarining yuzaga kelish chastotasini aniqlash, ko'ngilsiz hodisalar oqibatlarini baholash, xavf baholarini umumlashtirish xavfni baholash bosqichining asosiy vazifalari hisoblandi[5].

Xavfni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish xavf tahlilining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Tavsiyalarda xavfni baholash natijalari bo'yicha asoslangan xavfni kamaytirish choralari ko'rsatiladi.

Xavf tahlilini o'tkazish usullarini tanlashda obyektning faoliyat bosqichlari (loyihalash, foydalanish va h.), tahlil maqsadlari, qabul qilsa bo'ladigan xavf mezonlari, tahlil qilinadigan xavfli ishlab chiqarish obyektining turi va xavf-xatarning xususiyatlari, tahlilni o'tkazish uchun resurslarning mavjudligi, bajaruvchilarning tajribasi va malakasi, zarur ma'lumotlarning mavjudligi va boshqa omillar hisobga olinishi lozim[5].

Masalan, xavf-xatarlarni identifikatsiyalash va xavfni dastlabki baholash bosqichida xavfni tahlil qilish va baholashning puxta o'ylangan tartibi, maxsus yordamchi vositalar (anketalar, blanklar, so'rovnomalar, yo'riqnomalar) va bajaruvchilarning amaliy tajribasiga tayanadigan sifat usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu bosqich xavf-xatarlar tahlili deb nomlanishi mumkin[5].

Amaliyotdan ma'lumki, murakkab miqdoriy usullardan foydalanish ko'p hollarda murakkab texnik tizimlar uchun aniqligi uncha yuqori bo'lmagan xavf ko'rsatkichlari qiymatini beradi. Shuning uchun xavfni to'liq miqdoriy baholash xavf-xatar manbalari yoki xavfsizlik chora-tadbirlarining turli variantlarini (masalan, obyektni joylashtirishda) taqqoslash uchun obyektning xavfsizlik darajasi to'g'risida xulosa tayyorlashga nisbatan samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, xavfni miqdoriy baholash usullari barcha holatlarda juda foydali, ba'zi hollarda esa, jumladan, turli xususiyatdagi xavf-xatarlarni taqqoslash, yirik avariyalar oqibatlarini baholash va natijalar chiqarishning yagona yo'li hisoblanadi[5].

Zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash xavf tahlilini o'tkazishning muhim shartidir. Statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi tufayli amaliyotda miqdoriy tahlilning soddalashtirilgan usullariga asoslangan ekspert baholash va xavfni ajratish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuvlarda ko'rib chiqilayotgan hodisalar yoki elementlar, odatda, xavf ehtimoli kattaligi, oqibatlarning og'irlik darajasi bo'yicha bir nechta, masalan, xavf darajasi yuqori, oraliq, past yoki sezilarsiz bo'lgan guruhlar (yoki toifalar, darajalar)ga ajratiladi. Bunday yondashuvda yuqori xavf darajasi (obyektning spetsifikasiga qarab) qabul qilib bo'lmaydigan (yoki maxsus ko'rib chiqish talab etiladigan) daraja hisoblanadi, oraliq xavf darajasi xavf darajasini kamaytirish bo'yicha ishlar dasturi bajarilishini talab etadi, past darajani qabul qilsa bo'ladi, sezilarsiz xavf darajasi esa umuman ko'rib chiqilmasligi mumkin [5].

Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasidagi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning noxush hodisa va avariya vaziyatlarida sog'liklarini muhofaza qilishda obyektdagi xavf va xavf-xatarni o'rganish, tahlil qilish hamda ushbu xavf va xavf-xatarlar bo'yicha xodimlarni ogohlantirish, avariya vaziyatlaridagi harakatlarini o'rgatish zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik - bu obyektga xos bo'lgan barcha xavf va xavf-xatarlarning qiymatlarining maqbul darajadan oshmaydigan himoyalangan obyektning (tizimning) holatidir. Shu bilan birga, «xavf», «xavfsizlik» va «xavf-xatar» tushunchalari o'z mohiyatiga ko'ra sinonim bo'lib, bir-biridan faqat ba'zi ma'no jihatidan farqlanadi.

Ularning barchasi xavf-xatarlar to'plami bilan tavsiflanib, ularning qiymatlarini kamaytirish orqali ma'lum bir himoya obyekti (shaxs, jamiyat, davlat, har qanday ijtimoiy, iqtisodiy, texnik tizim) uchun maqbul xavfsizlik darajasiga erishish mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi xavf-xatarlarni aniqlash, tahlil qilish va baholash orqali ushbu obyekt himoyasini yanada takomillashtirish mumkin bo'lib, ilmiy jihatdan asoslanishi o'rganilishi katta manfaat keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 2006 йил 28-сентябрдаги "Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида"ги ЎРҚ-57-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси 22.09.2022й.)

2. Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 23-апрелдаги "Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида"ги ЎРҚ-213-сон қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси 22.09.2022й.)

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 10-декабрдаги "Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида"ги 271-сон қарори // lex.uz. (мурожаат санаси 22.09.2022й.)

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 19-майдаги "Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 291-сонли қарори // lex.uz. (мурожаат санаси 23.09.2022й.)

5. Ўзбекистон Республикаси саноатда, кончиликда ва коммунал-маиший секторда ишларнинг бехатар олиб борилишини назорат қилиш «Саноатконтехназорат» давлат инспекциясининг 2009 йил 14-августдаги "Хавфли ишлаб чиқариш объектларида хавфлилик даражасини таҳлил қилиш бўйича услубий кўрсатмаларини тасдиқлаш тўғрисида"ги 158-сонли буйруғи // lex.uz. (мурожаат санаси 23.09.2022й.)

6. Брушлинский Н.Н. Пожарные риски (Учебное пособие) / Н.Н. Брушлинский – М.: Министерство Российской Федерации по делам гражданской обороны, чрезвычайным ситуациям и ликвидации последствий стихийных бедствий Академия Государственной противопожарной службы, 2016. – 10-11 бетлар.

7. Воробьев Ю.Л. Гражданская защита / Ю.Л. Воробьев – М.: Центр “Геополитика”, 2001. – 4, 37 бетлар.

8. Муртонен, Мерви. Оценка рисков на рабочем месте (практическое пособие) [пер. с финского] / Мерви Муртонен VTT - технический исслед. центр Финляндии, М-во социального обеспечения и здравоохранения, Отд. охраны труда, Тампере, Финляндия. - Москва: Международная орг. труда [2007] (Охрана труда : международный опыт. Опыт Финляндии; Вып. 1) – 6 бет.

9. Информационный портал “ОХРАНА ТРУДА В РОССИИ” [Электронный ресурс] Опасности и риски в проблеме понимания безопасности систем – Режим доступа: https://ohranatruda.ru/news/2845/586313 - (мурожаат санаси 24.09.2022й.)

10. Акимов В.А. Основы анализа и управления риском в природной и техногенной сферах (учебное пособие) / В.А. Акимов, В.В. Лесных, Н.Н. Радаев – М.: Деловой экспресс, 2004. – 339 – бет.

11. Брушлинский Н.Н. Основы теории пожарных рисков и ее приложения / Н.Н. Брушлинский – М.: Академия Государственной противопожарной службы МЧС России, 2011 – 16 бет.

Обращение к рабству считается скрытым и разнообразным преступлением, понимание уязвимости к рабству остается сложной задачей, хотя формируется консенсус относительно широких факторов, которые позволяют процветать современному рабству [17]. Закон Великобритании о современном рабстве определяет современное рабство как "удержание лица в рабстве или подневольном состоянии или требование от лица выполнения принудительного или обязательного труда" [18]. Современное рабство может принимать множество различных форм, включая принудительный труд, долговую кабалу, торговлю людьми, принудительная сексуальная эксплуатация, рабство по признаку родового происхождения, детское рабство и принудительные и ранние детские браки. По данным Государственного департамента США, рабство существует в любое время, когда человек был завербован, перевезен или принужден к работе силой, мошенничеством или принуждением" [19]. В таких случаях жертвы не имеют средств, чтобы уйти по собственной воле. Рабство чаще всего встречается в отраслях, которые являются трудоемкими, низкоквалифицированными и недостаточно регулируемыми (Совет по международным отношениям - CFR, ND.) [20]. Хотя рабство повсеместно запрещено, а защита индивидуальных прав закреплена в национальных и международно-правовых документах, оно сохраняется. Рабство наиболее распространено в бедных странах и странах с уязвимыми сообществами меньшинств, хотя оно также существует и в странах глобального севера. Рабство, как правило, более очевидно в определенных секторах, где значительное число людей работает в рабских условиях в таких отраслях, как горнодобывающая промышленность, сельское хозяйство и фабрики, производящие товары для внутреннего потребления или экспортирующие в более процветающие страны. По мнению И.Н. Лебединца, основной и первоочередной причиной работорговли в современном мире является неравномерность социально-экономического развития как отдельных государств, так и целых географических регионов мира. Высокий уровень безработицы и масса социально-экономических проблем приводят к обнищанию большого количества населения, становятся причиной того, что большинство граждан этих стран является потенциальной группой риска для торговцев людьми [21]. По нашему мнению, в более широком смысле на уязвимость к современному рабству влияет сложное взаимодействие факторов, связанных с наличием или отсутствием защиты; уважением прав; физической безопасностью; доступом к предметам первой необходимости, таким как еда, вода и медицинское обслуживание; моделями миграции населения и конфликты. Понимание уязвимости является важнейшим компонентом оценки распространенности торговли людьми. Оценки уязвимости позволяют более объективно определять страны с аналогичными профилями риска, рассматривая широкий спектр факторов риска, которые помогают лучше понять движущие силы, способствующие процветанию торговли людьми. **Ж.Бойл и Л.Шилд считают, что (2018: 7) при разбивке на различные формы современного рабства женщины продолжают оставаться чрезмерно представленными в принудительном труде (59%), принудительном браке (84%) и принудительной сексуальной эксплуатации (99%) [22]. В любой момент времени около 16 миллионов человек во всем мире являются жертвами принудительного и кабального труда и торговли людьми в частном секторе, что затрагивает почти 9,5 миллиона женщин. Наконец, важно отметить, что современное рабство находится на одном полюсе континуума эксплуатации, и часто нет четкой границы между современным рабством и другими серьезными трудовыми нарушениями. Плохая трудовая практика, которая сама по себе не представляет собой современное рабство, может подтолкнуть рабочих к условиям современного рабства, если сочетается с другими показателями. Например, задержка выплаты заработной платы, ненормированный рабочий день или словесные угрозы сами по себе могут не привести к современ-**

ному рабству, но совокупность множественных злоупотреблений может достигать уровня современного рабства. При рассмотрении этих основных рисков и проблем крайне важно понять, приводят ли они к ситуации современного рабства.

Таким образом, борьба с современным рабством является серьезной проблемой для правительств, бизнеса, неправительственных организаций (НПО) и общества в целом. Усилиям препятствует целый ряд факторов, включая непонимание движущих сил, которые повышают риск порабощения, и масштабов практики на национальном и субнациональном уровнях. Также ясно, что периоды политической, экономической или социальной неопределенности могут усугублять факторы риска порабощения –примером тому является нынешняя пандемия COVID-19, которая делает очевидными глубоко укоренившиеся неравенство в обществе, которое может сделать отдельных лиц и группы более уязвимыми к порабощению.

Проблема современного рабства в глобальных цепочках поставок привлекает все большее внимание правительств, бизнеса и гражданского общества. Современное рабство не определено в международном праве и остается концепцией, находящейся в поиске четкого юридического определения. Мы фокусируемся на формирующихся законодательных режимах раскрытия информации как механизме регулирования современного рабства в цепочках поставок и рассматриваем, как можно создать нормативные рамки для максимального повышения их эффективности. Мы выделяем четыре основных требования: такое законодательство должно включать права человека, должная осмотрительность в отношении прав; она должна включать подробные требования к раскрытию информации; за невыполнение обязательств должны быть предусмотрены регулирующие последствия; и, наконец, она должна использовать рычаги воздействия отдельных заинтересованных сторон - включая предприятия, правительства, неправительственные организации.

Использованная литература

1. Совместный доклад о ситуации опубликовали Международная организация труда (МОТ), Международная организация по миграции (МОМ) и международная правозащитная группа Walk Free [«Будь свободен»]. https://news.un.org/ru/story/2022/09/1431301

2. Global Estimates of Modern Slavery: Forced Labour and Forced Marriage. International Labour Organization (ILO), Walk Free, and International Organization for Migration (IOM), Geneva, 2022. -1 p.

3. Современные формы рабства: изложение фактов № 14. Printed at United Nations, Geneva. June. 1991. P.5

4. Лебединец И.Н. Генезис международно-правового регулирования борьбы с рабством, работорговлей и другими формами торговли людьми. Актуальные проблемы российского права. 2016. № 3 (64) март. –с.186

5. Конвенция о принудительном или обязательном труде1930 года. https://lex.uz/docs/2741079

6. Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий Конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности от, 15 ноября 2000 года. https://lex.uz/docs/1463679

7. Конвенция о рабстве от 25 сентября 1926 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/convention_slavery.shtml

8. Дополнительная Конвенция об упразднении рабства, работорговли и институтов и обычаев, сходных с рабством 1956 года. https://nrm.uz/contentf?doc=185335_dopolnitelnaya_konvenciya_ob_uprazdnenii_rabstva_rabotorgovli_i_institutov_i_obychaev_shodnyh_s_rabstvom_(jeneva_7_sentyabrya_1956_goda)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

9. Миронов А. О некоторых проблемах противодействия торговле людьми в условиях современных миграционных процессов // Белорусский журнал международного права и международных отношений 2006 — № 2. С.-92.

10. Кадников Ф.Н. Криминологическая характеристика Автореф.дисс..кан.юрид.наук.-Владивосток. 2005. С.-8.

11. Мизулина Е.Б. Торговля людьми и рабство в России: международно-правовой аспект. М.: Юрист, 2006. С.-96.

12. Евстифеева Е.В. Теоретические проблемы уголовно-правовой ответственности за торговлю людьми. -Автореф.дисс..кан.юрид.наук. - Саратов. 2002. С.-26.

13. Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий Конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности от, 15 ноября 2000 года. https://lex.uz/docs/1463679

14. Larsen, J. & Durgana, D. (2017). Measuring Vulnerability and Estimating Prevalence of Modern

Slavery. Chance. Volume 30, 2017 - Issue 3: Special Issue on Modern Slavery. https://doi.org/10.1080/09332480.2017.1383109

15. Walk Free (2018). The Global Slavery Index 2018. Walk Free. https://downloads.globalslaveryindex.org/ephemeral/GSI-2018_FNL_190828_CO_DIGITAL_P-1594282898.pdf

16. Home Office (2014). Modern slavery: how the UK is leading the fight. HMG. https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/328096/Modern_slavery_booklet_v12_WEB__2_.pdf

17. Larsen, J. & Durgana, D. (2017). Measuring Vulnerability and Estimating Prevalence of Modern

Slavery. Chance. Volume 30, 2017 - Issue 3: Special Issue on Modern Slavery. https://doi.org/10.1080/09332480.2017.1383109

18. Modern Slavery Act 2015. http://www.legislation.gov.uk/ukpga/2015/30/contents/enacted

19. https://www.state.gov/what-is-modern-slavery/

20. Council on Foreign Relations (ND.). Modern Slavery. CFR.

https://www.cfr.org/interactives/modern-slavery/#!/section1/item-1

21. Лебединец И.Н. Генезис международно-правового регулирования борьбы с рабством, работорговлей и другими формами торговли людьми. Актуальные проблемы российского права. 2016. № 3 (64) март. –с.189.

22. Boyle, G. & Shields, L. (2018). Modern Slavery and Women's Economic Empowerment. DFID.

https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/726283/modern-slavery-womens-economic-empowerment.pdf

Рашидова К.И. Концептуальные подходы определения современных форм рабства в международном праве

В данной статье автор освещает различные научные и международно-правовые подходы по определению современных форм рабства, в частности, приведены мнения специалистов дальнего и ближнего зарубежья, анализируются международно-правовые документы в сфере прав человека, состояние, причины и тенденции современных форм рабства. По мнению автора сегодня проблема рабства не исчезла после его формальной отмены. Это явление лишь ушло в тень и приобрело более изощрённые формы, адаптируясь под изменения законодательства и общественного мнения. Оно укоренилось в теневой экономике современного мира, имеет децентрализованную систему с множеством точек похищения, приобретения и использования людей. В заключении сделан вывод, что современное рабство не определено в международном праве и остается концепцией, находящейся в поиске четкого юридического определения.

Ключевые слова: рабство, традиционное рабство, современные формы рабства, принудительный труд, обязательный труд, торговля людьми, уязвимость к современному рабству.

Rashidova K.I. Xalqaro huquqda qullikning zamonaviy shakllari tushunchasining konseptual yondashuvlari

Mazkur maqolada muallif qullikning zamonaviy shakllari tushunchasi bo'yicha turli ilmiy va

xalqaro-huquqiy yondashuvlarni yoritadi. Xususan, uzoq va yaqin xorijdagi mutaxassislarning fikrlari keltiriladi, inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar, zamonaviy qullik shakllarining holati, sabablari va tendensiyalari tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, bugungi kunda qullik muammosi uning rasman bekor qilinishi bilan yo'q bo'lib qolmadi. Ushbu hodisa faqatgina soyaga o'tdi hamda qonunchilikdagi o'zgarishlar va ijtimoiy fikrning ta'siri o'laroq yanada murakkab shakllarga ega bo'lmoqda. U zamonaviy dunyoda yashirin iqtisodiyotga kirib bordi, odamlarni o'g'irlash, ularga egalik qilish va foydalanishning ko'plab tarmoqlari bilan nomarkazlashtirilgan tizimga ega bo'ldi. Muallif xalqaro huquqda zamonaviy qullikning tushunchasi ishlab chiqilmaganligi va u o'zining aniq yuridik ta'rifini kutayotgan konsepsiya bo'lib qolmoqda, degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: qullik, an'anaviy qullik, qullikning zamonaviy shakllari, majburiy mehnat, zo'raki mehnat, odam savdosi, zamonaviy qullikka nisbatan zaiflik.

Rashidova K.I. Conceptual approaches to the definition of modern forms of slavery in international law

In this article, the author highlights various scientific and international legal approaches to the definition of modern forms of slavery. In particular, the opinions of experts from far and near abroad are given, international legal documents in the field of human rights, the state, causes and trends of modern forms of slavery are analyzed. According to the author, today the problem of slavery has not disappeared after its formal abolition. This phenomenon has only gone into the shadows and acquired more sophisticated forms, adapting to changes in legislation and public opinion. It is rooted in the shadow economy of the modern world, has a decentralized system with many points of abduction, acquisition and use of people. It is concluded that modern slavery is not defined in international law and remains a concept in search of a clear legal definition.

Key words: slavery, traditional slavery, modern forms of slavery, forced labor, compulsory labor, human trafficking, vulnerability to modern slavery.

Mamarasulov Davronbek Xasanovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Karimov Jamshid Jabborkulovich,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Jizzax mintaqaviy o'quv markazi Huquqiy fanlar sikli boshlig'i

XODIMLAR HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA

Mamlakat rivojlangani, demokratik tamoyillar qaror topgani va mamlakat huquqiy davlat maqomiga intilgani sari, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati ham tabiiy ravishda o'sib boradi. Aholining huquqiy ongi va madaniyati o'sishi mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir qiluvchi omillardan bo'lgani bois, davlat ham bu jarayonga yanada turtki berish uchun tashabbuslar ko'rsatishi mumkin. Xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, ingliz va rus tillaridagi huquqiy manbalarda legal awaraness – (huquqiy ong), legal culture (huquqiy madaniyat) atamalari bilan bir qatorda legal literacy (huquqiy savodxonlik), public legal education (ommaviy huquqiy ta'lim, ya'ni aholining huquqiy savodxonligini oshirish) atamalari ham keng qo'llaniladi va bu kabi terminologiya rivojlanganligining o'zi mamlakat aholisining huquqiy ongi va madaniyati saviyasi hamda davlat hokimiyatining aholi huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish yo'lidagi tashabbuskorligi belgisidir, deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni ham davlatimiz rahbariyatining shunday olijanob tashabbuslaridan bir deb hisoblash mumkin [1]. Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalaridan biri etib "davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash" belgilangan bo'lib, bu vazifa bevosita O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga ham taalluqlidir.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan tuzilma ekanligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari xizmat faoliyati davomida muntazam ravishda aholi bilan muomala va munosabatga kirishishlari, qolaversa xizmat faoliyatida huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikda boshqalarga namuna bo'lishlari lozimligini inobatga olsak, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlari huquqiy ong va huquqiy madaniyat borasida aholiga nisbatan "bir necha qadam oldinda" bo'lishlari talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida xorijiy tajribani tadqiq qilish va ilg'or jihatlarini o'zlashtirish oldimizdagi dolzarb masalalardan biridir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning umumiy masalalari, Shuningdek xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari ingliz va rus tilidagi ko'plab ilmiy manbalarda uchraydi. Jumladan, ingliz tilida Lawrence M. Friedman [2], He Yu, G.Pan [3], Ch.M.Indah [4], M.I.Notoprayitno, F.Jalil [5], Christian Atias and Alain A.Levasseur [6], D.Zartner [7], R.Ch.Michaels [8], M.D.Wiatrowski, J.A.Goldstone [9], E.A.Paoline III, W.Terrill [10], K.Boke, M.K.Nalla [11], B.Kingshott; J.Prinsloo [12] kabi mualliflar tomonidan e'lon qilingan ilmiy manbalar bu kabi tadqiqot natijalariga misol bo'la oladi.

Bu borada rus tilidagi manbalar ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatning turli jihatlari, jumladan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish zarurati hamda yo'llari haqida tadqiqot natijalarini uchratish mumkin. Rus tilidagi ilmiy maqolalar sharhiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, N.A.Lyaxova Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo'shinlari xizmat faoliyatida huquqiy madaniyat va huquqiy ongning zaruriy komponentlar sifatidagi o'rni [13]; M.V.Yakovlev professional huquqiy madaniyatning harbiy xizmatchilar misolidagi tahlili [14], Ye.N.Xazov Rossiyada politsiya xodimi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining inson huquqlariga rioya qilinishi, saqlanishi va himoya qilinishidagi o'rni ahamiyati ahamiyati [15]; L.L.Grishenko va Yu.L.Korabelnikova ichki ishlar organlarida huquqiy tayyorgarlik hamda uning xodimlar kasbiy faoliyatidagi ahamiyati [17]; M.M.Murtazaliyev prokuratura xodimlarining professional huquqiy madaniyati [18]; A.A.Eliseva bojxona xodimlarining kasbiy huquqiy madani-

yati [19]; P.V.Korshunova sudyalar huquqiy madaniyati va huquqiy ongining odil sudlovni amalga oshirishdagi roli [20] bo‘yicha ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ma’lumotlar beradilar.

Xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha xorijiy tajriba tahlillari Shuni ko‘rsatmoqda-ki, bu masala har bir davlatning o‘z ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi, ya’ni demokratik jihatdan rivojlanish bo‘yicha yirik yutuqlarga erishgan mamlakatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining huquqiy madaniyati bunday yutuqlarga kamroq erishgan mamlakatlardagiga qaraganda yuqoriroq bo‘lib, buning sabablari butun ta’lim tizimining rivojlanganligi, mamlakat aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuqori darajada ekanligi kabi omillar bilan bog‘liq.

Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari politsiyasi haqidagi manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, asosan, bu mamlakatda so‘nggi yillarda xodimlarning huquqiy ongidan ko‘ra, ularning huquqiy madaniyatga rioya qilishi, jumladan, ularning aholi bilan munosabatga kirishishdagi odob-axloqi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Xususan, Jeyn Miller va Rashon Rey tomonidan e’lon qilingan “Asosiy masalalar: Amerikada politsiya madaniyatini oshirish” (ingl.: “Highlights: Improving police culture in America”) deb nomlangan maqolada mualliflar so‘nggi paytlarda AQShda uchrayotgan politsiya xodimlarining huquqbuzarlikda gumon qilingan shaxslarga nisbatan shafqatsiz munosabati natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar, aholining katta e’tirozi haqida fikr yuritiladi. Xususan, qora tanli shaxslarga nisbatan qurolning noo‘rin qo‘llanilishi fuqarolar, OAV va siyosatchilarning Amerika politsiyasiga nisbatan borgan sari tanqidiy munosabati shakllanishiga sabab bo‘layotganligi, jamiyat muammolari yechimiga yangi strategiyalar va texnologiyalar yo‘naltirilayotganiga qaramay, politsiya xodimlarining tajribasini yaxshilash va politsiya madaniyatini oshirish uchun hali ko‘p ishlar qilinishi lozimligi ta’kidlanadi.

Ingliz tilidagi manbalarda keltirilgan huquqiy madaniyat bilan bog‘liq masalalar, asosan, G‘arb mamlakatlarida bu yo‘nalishda mavjud muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda, ayrim hollarda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan muammolar bilan farqli bo‘lsa-da, tadqiqotlar natijasida yuzaga kelgan xulosalardan mamlakatimizda huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida unumli foydalanish mumkin.

Misol uchun, Lourens M. Fridman (Lawrence M. Friedman) tomonidan chop ettirilgan huquqiy madaniyatning shaxsga yo‘naltirilishiga bag‘ishlangan ilmiy maqolada huquqiy madaniyatni oshirishda individual xususiyatlarni hisobga olish haqida xulosaga kelingan [2]. Ushbu muallifning xulosasini inobatga olib, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarda ularning individual xususiyatlariga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xitoylik tadqiqotchilar Yu Xe (Yu He) va Guangtang Pan (Guangtang Pan) tomonidan chop ettirilgan mafkuraviy va siyosiy nazariya kursida talabalarning huquqiy ongi va e’tiqodini oshirish bosqichlariga bag‘ishlangan maqolada, garchi huquqiy ongni oshirishda bizning huquq tizimimizga xos bo‘lmagan mafkuraviy masalalarga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, tadqiqotning ijobiy yutug‘i sifatida huquqiy ta’limda zamonaviy ta’lim metodlarini ommalashtirish bo‘yicha xulosalar diqqatga sazovordir. Maqolada huquqiy ongning yuksalishi barqaror taraqqiyotga xizmat qilishi asoslantirilib, huquqiy ongni oshirishda odob-axloqning huquqiy ong bilan uzviy bog‘liqligini inobatga olish bilan bir qatorda, amaliyotga yo‘nalgan, munozarali mashqlarni qo‘llash kabi usullardan foydalanish lozimligi bo‘yicha xulosalarga kelingan. Mualliflar, Shuningdek, huquqiy bilim (law-knowing), huquqiy odat (law-abiding), huquqni qo‘llash (law-usage), huquqiy himoya (law-defense) bosqichlari namunali fuqaroni shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tganlar [3].

Indoneziyalik tadqiqotchi Kristina Maya Inda (Christina Maya Indah) tomonidan e’lon qilingan ilmiy maqola mazmuni politsiya xodimlari huquqiy madaniyatining demokratik politsiya institutiga aylanishi uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaratilgan bo‘lib, avtoritar, izolyatsiyalashgan, korrupsiya yuqori bo‘lgan tuzum va tizimlarda demokratik islohotlar natijasida politsiya tuzilmalarining ham yangicha, ya’ni demokratik ishlash prinsiplariga o‘tishi zarurati, bu boradagi eskicha fikrlash va eskicha ishlash bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilish uchun, birinchi navbatda, xodimlarning demokratik jamiyat va fuqarolik jamiyat haqidagi huquqiy bilimlari hamda huquqiy madaniyatini oshirish zarurati haqida so‘z boradi [4].

Kristina Maya Indaning fikrlariga qo‘shilgan holda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bo‘yicha mashg‘ulotlarda, huquqiy davlat, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati,

inson huquqlari kabi fundamental tushunchalarning mazmun-mohiyatiga va jamiyat hayoti hamda xodimlar faoliyatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz.

Indoneziyalik tadqiqotchilar Maya Indrasti Notoprayitno (Maya Indrasti Notoprayitno) va Farida Jalil (Faridah Jalil) tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolada, garchi xodimlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyati haqida so'z bormasada, huquqiy ong tushunchasining jamiyatdagi o'rni tizimlashtirilgan chizma orqali sodda qilib ko'rsatib berilgan (*interaction in society (social control) – jamiyatdagi aloqalar (ijtimoiy nazorat); legal system – huquqiy tizim; legal structure – huquqiy tuzilma; legal substance and legal culture – huquqiy mulk va huquqiy madaniyat; social change – ijtimoiy o'zgarish; awareness – xabardorlik, ong; implementation – realizatsiya, qo'llash*) :[5]



AQShning Luiziana davlat universiteti Huquq markazi tadqiqotchilari Kristian Atias (Christian Atias) va Alen A. Levassyor (Alain A.Levasseur) Amerika huquqiy madaniyati bo'yicha tadqiqotlarga bag'ishlangan maqolasida huquqiy madaniyatning fundamental nazariyasi hamda yuridik fan epistemeologiyasiga oid tahlillarni keltirib, huquqiy asoslardan huquqiy madaniyatga o'tilishi jamiyatdagi tartibni mustahkamlashi haqida ilmiy-falsafiy g'oyani olg'a suradilar [6]. Mualliflar huquqiy madaniyatni shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda, huquqiy an'analar tushunchasi bilan bog'laydilar.

Shuningdek, AQShning Luiziana shtatida joylashgan Tuleyn universiteti dotsenti (Assistant Professor) Dana Sartner (Dana Zartner) ham huquqiy madaniyat va huquqiy an'ana o'rtasidagi bog'liqlik haqida ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy izlanishlar natijalarini keltirib, keys-stadi metodi asosida Uganda davlatini misol qilib keltirgan holda, ikki tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni izohlaydi [7].

Germaniyadagi Maks Plank jamiyati Qiyosiy va xalqaro xususiy huquq instituti direktori Ralf Kristian Mixayels (Ralf Christian Michaels) tomonidan chop ettirilgan "Yevropa xususiy huquqi haqida Oksford risolasi" nomli ilmiy asarda huquqiy madaniyat atamasi mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, ushbu tushunchani yoritishda "milliy huquqiy madaniyatlar", "Yevropa huquqiy madaniyati", "global (zamonaviy) huquqiy madaniyat" kabi tushunchalarni farqlaydi va izohlaydi [8]. R.K.Mixayelsning ilmiy asoslantirilgan xulosalaridan kelib chiqib, aholining, Shuningdek xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarda mamlakatimiz milliy huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish joiz, deb hisoblash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

AQShning Florida Atlantika universiteti dotsenti (Assistant Professor), Sirakuza universiteti Utika kolleji jinoiy huquq departamenti sudyasi, AQSh Qurolli Kuchlari iste'fodagi podpolkovnigi, Bosniya va Gaitida politsiya treninglarida xizmat olib borgan Maykl D. Viatrovski (Michael D. Wiatrowski) hamda Jorj Meyson universiteti professori Jek A. Goldstoun (Jack A. Goldstone) tomonidan e'lon qilingan maqolada, garchi mojarolardan so'nggi tuzum politsiyasini huquqiy tayyorlash haqida so'z borsa-da, ushbu maqolada keltirilgan bir qator ilmiy asoslantirilgan fikrlar va xodimlar huquqiy bilim va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha taklif-tavsiyalardan unumli foydalanish mumkin [9]. Maqolaning mazmuniga ko'ra, mamlakatda demokratik islohotlar boshlanishi mamlakat politsiya kuchlarining demokratik ongini, huquqiy ongini oshirish zaruratini tug'diradi. Bu borada yuzaga keladigan muammolar yechimi borasida mualliflar keltirgan taklif-tavsiyalar ro'yxatidan ajratib olingan quyidagi fikrlar mamlakatimizda xodimlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida foydalanish nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir:

- miqdor uchun emas, sifatga ishlash, ya'ni yaxshi kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish;

- demokratik politsiya faoliyatini institutsionallashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlarini joriy qilish;

- politsiya fuqarolarni himoya qilish va jamiyat bilan rishtalarni qurish uchun qo‘llanilishiga e’tibor qaratish, ular ikkinchi eshelon harbiylar sifatida foydalanilishi kerak emas;

- hisobdorlik mexanizmlarini joriy qilish va h.k.

Yevropa mintaqasida, Germaniya misolida oladigan bo‘lsak, globalizatsiya natijasida migratsiya oqimi huquqiy madaniyatni so‘roq ostiga qo‘ymoqda. Migratsion oqimlar natijasida umuman madaniyatlar to‘qnashuvi yuz berayotganligi, Yevropa uchun umumiy bo‘lgan huquqiy qadriyatlarga daxl qilmoqda.

Bu borada Germaniyaning “Donaukurier” gazetasi rasmiy veb-sahifasida e’lon qilingan “Germaniya huquqiy madaniyatining alifbosi” (nem.: “Das Abc der deutschen Rechtskultur”) nomli maqola mazmun-mohiyati va maqolada keltirilgan faktlar Yevropa Ittifoqi davlatlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyat bilan bog‘liq asosiy muammo migratsiya tufayli, madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida kelib chiqayotganligini tasdiqlaydi. Maqolada huquqiy madaniyat borasida yuzaga kelayotgan muammolar yechimi sifatida, Germaniyaning Bavariya o‘lkasi Adliya vazirligi tashabbusi bilan Bavariyaning turli shaharlarida yetakchi yuristlar ishtirokida migrantlar uchun tashkil etilayotgan qisqa kurslar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, ushbu maqola masalaning amaliy yechimlari yo‘lida xorijiy tajribaga misol bo‘la oladi. Qisqa kurslar, ya’ni seminar-treninglar mavzular yuzasidan ma’ruzalar, videofilmlar namoyishi, grafik vositalar, tarqatma materiallar kabi o‘quv-metodik vositalardan foydalanilishi bilan birga, kursda ishtirok etishning ixtiyoriyligi ham ta’kidlab o‘tilgan [21].

Garchi, G‘arb mamlakatlarida huquqiy ong bilan bog‘liq muammolar obyekti boshqa tuyulsada, muammolarni bartaraf etish borasida ularning metodik tajribasidan foydalanish mumkin. Masalan, huquqiy madaniyat bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimiga bag‘ishlangan situativ videofilmlar zerikarli, monoton ma’ruzalarga nisbatan ta’lim sifatini oshirishga ko‘proq xizmat qiladi.

Xodimlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish borasida Rossiya Federatsiyasi olimlari tomonidan e’lon qilingan ilmiy tadqiqot natijalariga murojaat qiladigan bo‘lsak, bu mamlakatda ham mazkur masala bo‘yicha mavjud muammolar bizning mamlakatda mavjud muammolarga o‘xshash ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, I.I.Beseda tomonidan e’lon qilingan Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar organlari xodimlari huquqiy madaniyatini oshirishning nazariy-huquqiy jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolada [16] muallif K.E.Mamayevning prokuratura xodimlari huquqiy madaniyati haqidagi maqolasidan iqtibos keltirib [22], bu ikki tuzilmada huquqiy madaniyat bilan bog‘liq bir qator o‘xshash muammolar mavjudligiga e’tibor qaratadi: huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarida insonlar bilan hurmat asosida muomala qilish mahorati yetishmasligi; umuman, madaniyatning o‘zi yetishmasligi; fuqarolik mas’uliyati va o‘zining vatanparvarlik burchini anglash yo‘qligi; professional malakaning past darajada ekanligi; insonlarning insofliligi va vijdonliligiga nisbatan aybdorlik prezumpsiyasi deb atalmish ishonchsizlik hamda shubha borligi; qonunning mazmuni ochiqdan-ochiq yoki yashirincha buzib ko‘rsatilishi natijasida jamiyatda yuristlarga, qonunga va hatto konstitutsiyaga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishi shular jumlasidandir.

I.I.Beseda hamda K.E.Mamayev tomonidan sanab o‘tilgan muammolar bizning huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga ham begona emasligi sir emas. Shunday ekan, ushbu mualliflar tomonidan muammolar ildizi hamda yechimi borasidagi fikr va g‘oyalar bizning xodimlar uchun ham muhim deb hisoblaymiz.

Jumladan, I.I.Beseda yuqorida nomi keltirilgan ilmiy maqolasida jamiyat tomonidan huquqni muhofaza qiluvchining ishi davlat hokimiyatining inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlar tizimining bir qismi sifatida qabul qilinishiga, huquq tizimining asosi va tamoyillari mazmuni tahlili nafaqat huquqning mohiyati, balki onglilik va adolatlilik mezonini ochib berishiga e’tibor qaratadi. Shuningdek, muallif fikricha, xodimlarning huquqiy tafakkuri ularga o‘z xatti-harakati bilan jamiyatga va davlatga naf keltirish, milliy manfaatlarni maksimal darajada himoya qilishni ta’minlash tartibida ishlashi lozimligini ta’kidlaydi [16].

I.I.Beseda ham, yuqorida Ralf Kristian Mixayelsning ilmiy maqolasida keltirilgani kabi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat borasida mamlakatlar, mintaqalarning huquqiy tizimi, umuman, huquq oilasining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozimligini, hatto, AQShning o‘zida, shtatlar qonunchiligida farqlar mavjudligi omili ham bu jarayonga ta’sir qilishini ta’kidlaydi.

Huquqiy madaniyat yuzasidan e'lon qilingan so'nggi xorijiy manbalar tahlili, Shuningdek ilg'or ta'lim metodlaridan foydalangan holda, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan quyidagi metodik va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi yo'nalish — seminar-treninglar tashkil etish orqali xodimlar va harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirib borish. Bu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

qo'riqlash xizmati xodimlari uchun muntazam ravishda bir necha kunlik seminar-treninglar tashkil etishni yo'lga qo'yish;

seminar-treninglar uchun yaxlit dastur ishlab chiqish;

seminar-treninglarda yetuk mutaxassislar va olimlarning ixtiyoriylik asosida (volontyor sifatida) trenerlik qilishini ta'minlash;

seminar-treninglarda rolli o'yinlar, situativ videofilmlar, keys-stadi metodlarini qo'llash;

seminar-treninglarda yetuk mutaxassislar va olimlar ishtirokida master-klasslar tashkil etish;

ishtirokchilarni, ularning individual xarakter xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajalarini inobatga olib, guruhlarga ajratish;

seminar-treninglarda "majburiy" va "tanlov" mavzularini joriy qilish va bunda tanlov mavzulari individual qiziqishdan kelib chiqishiga imkon berish.

Ikkinchi yo'nalish — uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy qilish orqali xodim va harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirib borish. Bu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

qo'riqlash xizmati xodimlari uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy qilish;

qo'riqlash xizmati xodimlarining malakasini oshirish tizimini modulli o'qitish tizimi asosida shakllantirish;

qo'riqlash xizmati xodimlari uchun uzluksiz malaka oshirish tizimiga onlayn ta'lim imkoniyatlarini integratsiya qilish;

onlayn ta'lim uchun maxsus sayt yaratish va uni adabiyotlar, mashqlar, normativ-huquqiy hujjatlar, audio va videomateriallar kabilarni ma'lumotlar bankiga aylantirish, bir paytning o'zida bu saytni avtonom ishlaydigan malaka oshirish platformasiga aylantirish;

mavzularni shakllantirishda eng asosiy e'tiborni amaliy faoliyatga qaratish;

malaka oshirish tizimida ham rolli o'yinlar, situativ videofilmlar, keys-stadi kabi usullarni qo'llash;

malaka oshirish tizimida ham "majburiy" va "tanlov" fanlarini joriy qilish va bunda tanlov fanlari individual qiziqishdan kelib chiqishiga imkon berish;

uzluksiz malaka oshirish tizimida onlayn tarzda har bir modulni o'zlashtirish yakunida imtihon topshirib, imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda keyingi modulga o'tish, muvaffaqiyatli o'ta olmagan taqdirda, mustaqil ravishda o'sha modulni istalgan payt onlayn platformadan o'zlashtirishga imkon yaratish.

Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 iyunda qabul qilingan O'RQ-778-sonli "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonuni kuchga kirish arafasida bo'lib, ushbu qonunning mazmun-mohiyatini qo'riqlash xizmati xodimlariga yetkazish, jumladan qonunning mazmun-mohiyati bo'yicha xodimlarning bilimlarini oshirish, bu borada, huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha xodimlar malakasini oshirishning intensiv metodikasini shakllantirish, Shuningdek, qonun mazmun-mohiyatini keng yoyish maqsadida turli davra suhbatlari va master-klasslar tashkil etish Milliy gvardiya tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardandir. Fikrimizcha, mazkur vazifani amalga oshirish uchun "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyatini targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xodimlar huquqiy madaniyatining yuqoriligi xodimlar uchun zaruriy kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Zero, xodimlar va harbiy xizmatchilarning qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi, inson huquqlarini hurmat qilgan holda faoliyat olib borishi ularning aholi hurmati va ishonchini qozonishiga, aholi o'rtasida norozilik kayfiyati shakllanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги ПФ-5618-сонли "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан

такомиллаштириш тўғрисида"ги фармони // lex.uz (мурожаат санаси: 17.09.2022й.).

2. Lawrence M. Friedman. The Concept of the Self in Legal Culture, 38 Clev. St. L. Rev. 517 (1990) //engagedschoparship.csuohio.edu/clevstlrev/vol38/iss4/3

3. Yu He, Pan G., Study on the Path of Enhancing Students' Legal Awareness and Faith in Ideological and Political Theory Course // 2nd ICEMET 2016. – pp. 1520–1525.

4. Indah Ch.M. The Reconstruction of Police Legal Culture to Interpreting Law in the Democratic Era // Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 84. ICONEG 2016. – pp. 74–78.

5. Notoprayitno M.I., Jalil F. Legal Culture Perspective in Implementation of Inclusive Education in Indonesia // Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 388. 3rd ICSE 2019. – pp. 122–127.

6. Christian Atias and Alain A. Levasseur, American Legal Culture and Traditional Scholarly Order, 46 La. L. Rev. (1986) // digitalcommons.law.lsu.edu/lalrev/vol46/iss6/1

7. Zartner D. The Culture of Law: Understanding the Influence of Legal Tradition on Transitional Justice in Post-Conflict Societies // doi.org/10.18060/17864

8. Michaels R.Ch. Legal Culture // Forthcoming in Oxford Handbook of European Private Law (Basedow, Hopt, Zimmermann eds., Oxford University Press) – 11 June 2016. // researchgate.net/publication/294445084

9. Wiatrowski M.D., Goldstone J.A. The Ballot and the Badge: Democratic Policing // Journal of Democracy Volume 21, Number 2 April 2010. – pp. 79–92.

10. Paoline III E.A., Terrill W. The impact of police culture on traffic stop searches: an analysis of attitudes and behavior // Policing: An International Journal of Police Strategies & Management Vol. 28 No. 3, 2005. – pp. 455-472.

11. Boke K. and Nalla, M. K., 2009, Police Organizational Culture and Job Satisfaction: A Comparison of Law Enforcement Officers' Perceptions in two Midwestern States in the US, Journal of Criminal Justice and Security, Vol 11(1). – pp. 55-73.

12. Kingshott B.; Prinsloo J. Universality of the "Police Canteen Culture" // Acta Criminologica Volume: 17 Issue: 1 Dated: 2004. – pp. 1-16.

13. Ляхова Н.А. Правовая культура и правосознание как необходимые компоненты служебной деятельности войск Национальной гвардии РФ // Правовая культура. – 2018. – № 3(34). – С.130–135.

14. Яковлев М.В. К вопросу о профессиональной правовой культуре на примере военнослужащих // Вестник Саратовской государственной юридической академии. – 2020. – № 1 (132). – С.51–57.

15. Хазов Е.Н. Роль и значение правосознания и правовой культуры сотрудника полиции в соблюдении, охране и защите прав человека в России // Вестник Московского университета МВД России. – 2011. – №4. – С. 151–153.

16. Беседа И.И. Пути повышения правовой культуры сотрудников органов внутренних дел: теоретико-правовой аспект // Философия права. – 2021. – № 2 (97). – С. 93–98.

17. Грищенко Л.Л., Корабельникова Ю.Л. Правовая подготовка в органах внутренних дел и ее значение для профессиональной деятельности сотрудников // Вестник Московского университета МВД России. – 2020. – №2. – С.175-178.

18. Муртазалиев М.М. Профессиональная правовая культура сотрудников прокуратуры: основные характеристики и деформационные тенденции // Вестник АГУ. – 2015. – № 2 (158). – С. 188–194.

19. Елисеева А.А. Профессиональная правовая культура сотрудника таможенного органа как представителя публичной политической власти // Ученые записки СПб филиала РТА. – 2010. – № 2 (36). – С. 71–76.

20. Коршунова П.В. Правовая культура и правосознание судей: общетеоретические аспекты осуществления правосудия в России // Правовая культура. – 2020. – № 2 (41). – С. 121–131.

21. Das Abc der deutschen Rechtskultur // www.donaukurier.de (мурожаат санаси: 18.09.2022 й.).

22. Мамаев К.Е. Повышение уровня правовой культуры работников прокуратуры как фактор укрепления законности, некоторые теоретические вопросы // Наука и новые техноло-

гии. – 2009. – № 4. – С. 239.

Mamarasulov D.X., Karimov J.J. Xodimlar huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba

Ushbu maqolada xodimlar huquqiy madaniyatini oshirishning zarurati, huquqiy madaniyatni oshirishning nazariy masalalari, xodimlar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili kabi masalalar yoritilgan, shuningdek Milliy gvardiya xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha taklif-tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, Milliy gvardiya, qo'riqlash, xodimlar, metodika, huquqiy bilimlar, inson huquqlari, qonun, seminar-trening, malaka oshirish.

Мамарасулов Д.Х., Каримов Ж.Ж. Зарубежный опыт по повышению правовой культуры сотрудников

В этой статье рассмотрены такие вопросы, как актуальность повышения правовой культуры сотрудников, теоретические вопросы повышения правовой культуры, анализ проведенных научных исследований в зарубежных странах по повышению правовой культуры сотрудников, а также приведены предложения и рекомендации по принятию мер для повышения правового сознания и правовой культуры сотрудников Национальной гвардии.

Ключевые слова: правовая культура, правовое сознание, Национальная гвардия, охрана, сотрудники, методика, правовые знания, права человека, закон, семинар-тренинг, повышение квалификации.

Mamarasulov D.X., Karimov J.J. Foreign experience in raising the legal culture of employees

This article discusses such issues as the relevance of improving the legal culture of employees, theoretical issues of improving the legal culture, analysis of scientific research conducted in foreign countries to improve the legal culture of employees, as well as suggestions and recommendations for taking measures to increase legal consciousness and legal culture of the National Guard.

Key words: legal culture, legal awaraness, National Guard, security, employees, methodology, legal education, human rights, law, seminar-training, advanced training.